



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIYTA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

Fakultet dekani

_____ M.Boltayeva
« ____ » _____ 2023-yil

UMUMIY PEDAGOGIKA fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



Bilim sohasi:

Talim sohasi:

Bakalavriat yo‘nalishi:

100000- Gumanitar soha

120000- Gumanitar fanlar

Biologiya rang tasvir

Namangan - 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»

Fakultet dekani

_____ **M.Boltayeva**

« ____ » _____ **2023-yil**

“UMUMIY PEDAGOGIKA” FANIDAN
O’QUV–USLUBIY MAJMUA

NAMANGAN.

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan 25.08. 2023 yildagi buyrug'i bilan tasdiqlangan va "Umumiy pedagogika" fanining o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy ta'lim muassasalarining nomutaxassislik yo'nalishlari talabalariga o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda asosiy uslubiy qo'llanma, mutaxassislik yo'nalishlari talabalariga mashg'ulotlarni tashkil etishda yordamchi vosita bo'lib xizmat qilishi ko'zlangan. "Umumiy pedagogika" fanining mazmuni va mohiyatini innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali "Umumiy pedagogika" fanini o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv-uslubiy majmuada innovatsion ta'lim texnologiyalari, "Umumiy pedagogika" fanining mazmun mohiyati, tarkibiy tuzilishi, bilish batafsil yoritilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi noan'anaviy ishlanmalar orqali keltirilgan. Mazkur o'quv-metodik majmuadan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga hamda talabalarning mustaqil ta'limini tizimli yo'lga qo'yishda foydalanish tavsiya etiladi.

Tuzuvchi:

Pedagogika nazariyasi va tarixi
kafedrasi dotsenti D.Inamov

Taqrizchi:

NamDU pedagogika nazariyasi
va tarixi kafedrasi dotsenti,
M.Nishanov

O'quv-uslubiy majmua Pedagogika-psixologiya fakulteti Kengashining 2023-yil ___ avgust ___-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan

MUNDARIJA

KIRISH

I.	Ma’ruza Materiallari	6
1-Maruz	Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Xozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni	6
2-maruz	Pedagogika fan sifatida. Pedagogik tadqiqot metodlari	10
3-maruz	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasiva ijtimoiylashuvi	19
4-maruz	Tarbiya maqsadi va vazifasi	24
5-maruz	Ta’lim nazariyasi. Didaktika	34
6-maruz	O‘rta maxsus va kasb-xunar ta’limi mazmuni	46
7-maruz	Ta’lim metodlari va vositalari	54
8-maruz	Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari	64
9-maruz	Dars –ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida	80
10-maruz	Ta’limni tashxis etish	97
11-maruz	Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni. Tarbiya tamoyillari	107
II.	SEMINAR MASHG‘ULOTLARI	114
1-mavzu	Prezident I.Karimovning “Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida ta’lim tarbiya masalalari	114
2-mavzu	Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni har tomonlama shakllantirish	129
3-mavzu	Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari (prinsiplari)	134
4-mavzu	Ta’lim metodlari va vositalari	139
5-mavzu	Ta’limni tashkil etish shakllari	140
6-mavzu	O‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda iqtisodiy va ekologik tarbiyaning o‘rni	141
7-mavzu	O‘quvchilarda fuqarolik tarbiyasi	152
8-mavzu	Shaxsni ma’naviy- axloqiy ruhda tarbiyalash	161
9-mavzu	O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimi	176
III.	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	
IV.	GLOSSARIY	212
V.	ILOVA	
	Fan dasturi	
	Ishchi dastur	
	Tarqatma materiallar	
	Test	
	Baholash mezonlari	

*Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamoq bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Alisher Navoiy

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI. XOZIRGI DAVRDA O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI.

Reja:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi, vazifalari va ro'yobga chiqarish bosqichlari
2. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
3. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.
4. Kadrlar tayyorlash milliy modeli pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asosi.
5. Xozirgi davrda o'qituvchilik kasbi. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Mavzuning maqsadi:

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish orqali o'qituvchi kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yoritish, fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda o'qituvchilarni qayta tayyorlash, o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar haqida ilmiy tushuncha berish.

Mavzuning vazifalari:

- kadrlar tayyorlash milliy modelining mazmunini tushuntirish;
- demokratik jamiyatda pedagoglik kasbining rolini ko'rsatish;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni ochib berish.

Tayanch ibora va atamalar:

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy modeli: (shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish), pedago-gika, mutaxassis, raqobatbardosh kadr, o'qituvchi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

1. 1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish

1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dastu-ri» qabul qilindi. Qonunlarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida-gi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahora-tiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bizda 221 ming nafar kishini qamrab olgan 442 ta o'quv yurti, shu jumladan, 209 ta kasb-hunar maktabi, 180 ta kasb-hunar litseyi va 53 ta biznes maktab faoliyat ko'rsatdi. Boshlang'ich kasb-hunar ta'lim o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'quvchi va malakali mutaxassislar o'quvchilarga kasb-hunar sirlari-ni o'rgatib bormoqdalar. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ham islohotlar amalga oshirilib, bu borada 23 ta institut, 16 ta fakultet, 4 ta markaz va 14 ta malaka

oshirish kurslari pedagog kadrlar malakasini oshirish, ularni fan va texnika yutuqlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan boxabar etib bordi. Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgarishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi. Mutaxassislar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, yangilanish jarayoni talablari bilan bog'lanadi. Majburiy to'qqiz yillik ta'limga asoslangan o'n bir yillik o'rta ta'lim mazmuni ilmiy jihatdan to'laqonli asoslanmadi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlay olmadi.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli - pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asosi

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi. O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. «Ta'limxizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tishni kafolatlaydi.

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir. Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiyotga erishadi.

3. Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy bosh shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, uning o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasa-lari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» ham-da «Bolalar bog'chasi - boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Maz-kur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, aso-siy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilat-lar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi

Akademik litsey o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlari-ni hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvo-fiq, o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muas-sasasidir. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoni-yatiga ega bo'ladilar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassa-sasidir. Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlan-ganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texno-logiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqichda (bakalavriat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'na-lishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizidagi ta'lim bo'lib, magistratu-radagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat

attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malaka-li ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspi-rantura, adyunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mus-taqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayo-nida asosiy e'tibor mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yuri-tuvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglov-chilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim - maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik vajismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texni-kaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foy-dalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, kadriar tayyoriash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadriar tarkibini shakilantirishni, ulardan taiim tizimida unum-li foydalanishni, shuningdek, kadriar tayyoriash jarayonining ilmiy-tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoq-larida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakilantirishni hamda ilmiy-tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qam-rab oladi». Kadriar tayyoriash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan: «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standart-lari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qoilanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi». Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yi-ladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadriar tayyoriash tizimini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi. «Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadriar tayyoriash tizimi-ning yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijasida kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi». «Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qoilib-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi».

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining mazmuni nimadan iborat?
- 2.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» necha bosqichda amalga oshiriladi.
- 3.Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
- 4.Uzluksiz ta'lim tizimi qanday bosqichlardan iborat?
- 5.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning farqi nimada?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi” T., “Sharq” 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon., “Xayot” 2001 y
5. O. Musurmonova “Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” T., “O'qituvchi” 1990 y
6. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O'qituvchi” 2004 y
7. I. Karimov O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida/ 2011yil “O'zbekiston” nashriyoti. 440b

PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. PEDAGOGIK-TADQIQOT METODLARI.

Reja:

- 1.Pedagogika fani haqida umumiy tushuncha.
2. Pedagogika fani predmeti, maqsadi va vazifalari.
- 3.Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot).
- 4.Pedagogika fanining metodologik asoslari.
- 5.Pedagogika fanining tarmoqlari. Fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati.
- 6 .Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mavzuning maqsadi:

Pedagogika fanining maqsad va vazifalari, kategoriyalari, metodologik asoslari, tarmoqlari va uning ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot berish hamda pedagogika faniga qiziqishni uyg'otish.

Mavzuning vazifalari:

Pedagogika fanining ijtimoiy ahamiyati, maqsadini yoritish; pedagogika fanining metodologik asoslarini ko'rsatish; pedagogika fanining va boshqa fanlar bilan aloqalarini asoslash; pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarining vazifalarini belgilash va hokazo.

Tayanch ibora va atamalar: pedagogika, tarbiya, ta'lim, ma'rifat, ma'naviyat, madaniyat, ta'limning milliy modeli, ma'lumot berish, o'qitish, bilim, pedagogikaning asosiy funksiyasi, didaktika, xususiy didaktika, pedagogika tarixi, pedagogika nazariyasi, maktabshunoslik, oila pedagogikasi, maktab ta'limi pedagogikasi, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, oliy ta'lim pedagogikasi, xususiy pedagogika, defektologiya, qiyosiy pedagogika, milliy pedagogika.

1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va

tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot)

Pedagogika — tarbiyaning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan-dir. Pedagogika — yunoncha, pais — bola, agogos — yetaklash - bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarining o'zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to'g'ri hayotga boshlash san'ati) fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh muammosi tarbiyadir.

Inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda, qadriyatnomalarda, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida, ilohiy va muqaddas kitoblar-da asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan tarzida o'z mavqeyini mustahkamladi. Pedagogika fani ta'rifiari to'g'risida har xil qarashlar mavjud. «Pedagogika - tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat ham-da ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika tarbiya va ta'lim sohasiga tegishli bilimlar yig'indisi»; Unda yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida bahs yotadi. Ta'riflarni umumlashtirib, pedagogika tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1.1-shaklga qarang).

1.«Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; inson-ning jamiyatda yashashi uchun zarur boigan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi».

2.1.1-shakl. «*Pedagogika*»da ta'lim-tarbiya va ma'lumot hosil qilinishi.

Demak, tarbiya - ijtimoiy hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadri-yatdir. Tarbiya insoniyat bilan birga paydo bo'lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki, tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyat bo'lib, u avloddan avlodga o'tib boraveradi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga nisbatan qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

2. Ta'lim — ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassis-lar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

2.1. «Ta'limning milliy modeli — O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tub-dan isloh qilish, ta'lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadr-larni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmuyi.

3. Ma'lumot berish —bu o'rganilayotgan obyekt (ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim-tarbiya oluvchi va h.k.)ning muhim xususiyatla-ri va xossalari haqidagi ma'lumotlarni ifodalash jarayoni bo'lib, unda obyekt to'g'risida sonli va sifatli ma'lumotlar aks ettirilgan bo'ladi. Ma'lumot berish - bunda nafaqat o'qitish,

balki o'ziga mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, inson-ning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutiladi. Ma'lumot — ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuyi. Bilimlar - odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan va umumlashgan tajribasi.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan. Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasad-xonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bu ishlarga bevosita o'zi rahbarlik qilgan. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyat-da muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi: ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak; talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak; uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'larini kashf etib borish lozim;

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining turli jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. Ular:

1. Didaktika - bu o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyilla-ri, usullari bilan shug'ullanadigan soha. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonidagi umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika yunoncha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «didaskol» -o'rgatuvchi, degan so'zlardan kelib chiqqan. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha o'quv predmetining umumiy jihatlarini muayyanlashtiradi va ularda o'qitishning umumiy jihatlarini namoyon bo'ladi.

2. Pedagogikada tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i bunda shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarining yechimi qaraladi.

3. Pedagogika tarixi - bu jahon yoki milliy tarbiya nazariyasi, didaktika fani va amaliyotining jamiyat taraqqiyoti turli davrlarida qanday mazmun-mohiyatga egaligi, ularning qanday shaklda ifodalanganligi, qaysi usul, vosita, uslubiyat va shakllardan foydalanib faoliyat ko'rsatganligi, qanday natijalarga erishganligi kabi masalalarni o'rganadi.

4. Pedagogikaning maktabshunoslik sohasi — bunda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish, uyushtirish va uni boshqarishga oid bo'lgan tashkiliy-pedagogik qonuniyatlar o'rganiladi va ularga mos qonuniyatlar tadqiq etiladi.

Mazkur soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, albat-ta, ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bu, shuningdek, muammo yechimidagi natijalarning hayotiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Defektologiya - bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar

rivojlanishining ruhiy-jismoniy xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirishdagi o'ziga xosliklarni hisobga olib ish ko'radigan pedagogika fani tarmog'i.

PEDAGOGIKA fanining dolzarb muammolari:

1. Pedagogika fanini milliy pedagogika sifatida tarkib toptirish va uni jahon fanlari tizimida yuqori darajaga ko'tarish.
2. Pedagogika fani milliy mafkura, kadrlar tayyorlash milliy modeli, taraqqiyotning «o'zbek modeli» talablari va ilg'or rivojlangan davlatlar ta'lim standartlari asosida innovatsion yondashuvlar bilan o'z metodologiyasi va yo'nalishlarini tubdan isloh qilish.
3. Pedagogika fanidagi tadqiqot saviyasi va uning metodologiya-sigainnovatsion tus berish, ulardagi sifat o'zgarishlari va samaradorlikni muntazam rayishda baholab borishga erishish.
4. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda boshqa fanlarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishga erishish, shaxsni bir butunlikda o'rganish va uni shakllantirish metodologiyasini yaratish.
5. «Pedagogika fanlari tizim va tarkibini takomillashtirish, ijtimoiy pedagogika sohasida oila pedagogikasi, ma'naviyat-ma'rifat pedagogikasi alohida fan sifatida tarkib topishi. Professional pedagogikada iqtidorli bolalarni tanlash va ularni o'qitish, maktab, litsey, kollej, malaka oshirish, oliy va xususiy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish. Pedagogika nazariyasi va amaliyotining o'zaro bog'liqligi, pedagoglar ommasining erkin ijodkorligiga sharoit yaratish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tizimini tarkib toptirish».
6. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'limni texnologiyalashtirish: pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, innovatsion ta'lim texnologiyasi va shu kabilarni alohida o'rganish, ular asosida innovatsion pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalarni ishlab chiqish orqali ta'limni hamda pedagogik tadqiqotlarni kompyuterlashtirishga erishish, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish.
7. Uzluksiz ta'lim tizimida bola tarbiyasi rivojining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish hamda barkamol avlodni shakllantirishga zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish. Pedagogik diagnostika va prognoztika yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini davr talabiga mos rivojlantirish. Bunda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalanishga erishish.
8. Ta'lim-tarbiya tizimida modeli, modulli ta'lim texnologiyalariga keng o'rin ajratish va ular asosida kompyuter uchun muloqotli ishchi dasturlar tayyorlab, kompyuterli tizimlar yaratishga erishish va ulardan ta'lim-tarbiyaning innovatsion xususiyatlarini vujudga keltirishda keng foydalanish.

10. Ta'lim-tarbiya jarayonida reyting-nazorat tizimiga katta e'tibor berish va bu jarayonlarni boshqarishni zamonaviy kompyuterlar zimmasiga yuklashga harakat qilish.

11. Uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya tizimining maqsadi, vazifasi va mazmunini zamonaviy davr talablari asosida tubdan isloh qilishga erishish.

12. Ta'lim-tarbiya tizimi metodologiyasini tubdan isloh qilish konsepsiyasini, komil inson modelini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish.

13. Ta'lim-tarbiya jarayoniga bir butunlikda qarab, unga «tizimiy yondashuv» tadqiqot usulini qo'llashga erishish.

14. Tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insoniylashtirish; istiqloq mafkurasi asosida yoshlarning milliy dunyoqarashini shakllantirish, o'quv fanlarining aqliy kamolot imkoniyatini oshirish, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining o'quvchilar dunyoqarashini tarkib toptirish darajasini oshirish; ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharq-ona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish».

15. Kasbiy va mehnat tarbiyasining jamiyat, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika-texnologiyalar asosida rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

16. Iqtisodiy va ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishga erishish va bunda ilm-fan yutuqlaridan muntazam foydalanib borish mexanizmini yaratish.

17. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yanada jonlantirish va yoshlarimiz g'oyaviy ongida bo'shliq hosil bo'lishga yo'l qo'ymaslik metodologiyasini yaratish.

18. Aqidaparastlik va terrorizm ta'siridan yoshlarimizni asrashda kasbiy-kompyuterli o'yinlardan keng foydalanishga erishish, ayniqsa, kiberterrorizmdan yoshlarimizni asrash mexanizmini barpo 'tishga keng imkoniyatlar yaratish.

19. Ijtimoiy va kasbiy pedagogikaning barcha sohalarini muntazam ravishda davr bilan mos holda takomillashtirib borishga erishish.

20. Ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha xatt-harakatlarimizni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa shu kabi davlat me'yoriy hujjatlari asosida olib borishga erishish va hokazo. Ushbu muammolar qatorini yana davom ettirish mumkin.

Ushbu ma'noda pedagogika fanining vazifalari quyidagilardir:

- Sharq va G'arb xalqlari yaratgan, xalq og'zaki ijodiyotiga asoslangan pedagogikani, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib,

barkamol shaxsni shakllantirishning qonun-qoidalari va zaruriy sifatlarini aniqlash;

- Pedagogika — tarbiyashunoslikdagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammosini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga amal qilish;
- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va uslublarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab bo'ljak o'qituvchilarga o'rgatish;
- xalq ta'limini boshqarish va unga fahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'ljak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal etish.

Fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati

Pedagogika fani tarbiya nazariyasi va dialektikaning uyg'unligi asosida insonda bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy-ma'naviy meros, an'analar, urfodatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo'lgan tarbiya va ta'lim berish haqidagi tushuncha, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o'z o'rni va aloqadorligi bor. Pedagogika falsafa, psixologiya, odam ana-tomiyasi va fiziologiyasi, sinergetika va informatika kabi fanlar bilan mushtarak holda rivojlanib kelgan

Pedagogik fanlarning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fani inson tarbiyasi bilan shug'ullanganligi sababli, unga hamma fanlar ko'maklashishi tabiiydir. Inson tarbiyasining qaysi sohasini olib ko'rsangiz, u qaysidir fan bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi, o'sha fanning qonun-qoidalari suyanadi. Pedagogikaning metodologik asosi bilan nazariyasi va tarbiyadagi qonun-qoidalari bevosita falsafa fanining ta'sirida amalga oshiriladi. Abu Nasr Forobiy «Tal-xisu navomisi Aflotun» (Aflotun qonunlarining mohiyati) asarida inson kamolotining falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shunday ko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng bax-tiyor odam bo'lishi, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkam-lash zarurdir».

2.4. Pedagogikaning ilmiy –tadqiqot metodlari. Metod haqida tushuncha Metod (lotincha metodus - yoi so'zidan) tadqiqot yo'li, naza-riya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Mavjud metod (usul)lar asosan quyidagilardir:

- adabiyotlarni o'rganish metodi;
- kuzatish metodi;
- suhbat metodi;
- bolalar ijodini o'rganish usuli;
- maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- eksperiment — tajriba, sinov usuli;
- test sinovlari metodi;

- statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli;
- matematik va kibernetik usullar;
- sotsiologik tadqiqot metodi.

Adabiyotlarni o'rganish metodi - pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mus-taqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlari, tadqi-qot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik-psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

Kuzatish metodlari - kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan bosh-lanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tez-ligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish, muddatiga ko'ra, ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish — obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish.

Suhbat metodi — tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisa-lari haqida bilib olish maqsadida maxsus shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doira-sida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab, tuzib, natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin.

Pedagogik eksperiment — har qanday pedagogik tadqiqot-ning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementla-ri o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi.

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.
2. Tadqiqot medodlarining ishonchliligi.
3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish. Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqi-qotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bun-ga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordam beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi - pedagogik hodisa-lar va faktiarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chu-qur o'rganmoq lozim. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i kerak. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda, o'quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini, uning iqtidorini hamda ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy eti-lishini ko'rsatgan taqdirdagina to'liq qiymatga ega bo'ladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi - maktab o'quvchilari ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinch-kovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda

ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'larini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistik ma'lumotlarni analiz va sintez qilish metodi - pedagogik tadqiqotning kerakli statistik ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan tizimli o'rganish, mustaqil O'zbekistonda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi. Xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'ining doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushadigan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Anketalar metodi- o'quvchilardan so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi.

Hisobiash matematikasi va kibernetika metodlari - hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fan va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalari, hisobiash matematikasi va kibernetika usullari maktab ishida va pedagogikada qo'llanishini talab qiladi.

Sotsiologik tadqiqot metodi - anketa savollari kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini aniqlash, o'zi ta'lim-tarbiya olayotgan oliy o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga (xususan, tasavvufga) bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlari darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ilmiy va kasbiy mahoratlarni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stepindiyalar miqdori, ota-onalarning moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning yashash joyi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ta'sir etuvchi omillar, ularning onglilik darajasi jarayoni, ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tez-roq qutilish kerak bo'lgan salbiy sifatlarni aniqlashdir.

Muammoni izlash va tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim: qo'yilgan muammoni yechmasdan, belgilangan yo'nalishda metodni, metodologiyani, texnologiyani va texnikani yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligiga ishchi farazni shakllantirishga muayyan nima berishini aniqlash; rejalashtirilgan tadqiqot natijalari asosida olinadigan yangi qonuniyat nimasi bilan usul, vosita va ilm-fan hamda texnika-texnologiyalardagi oldin mavjudlaridan yangi va ko'proq amaliy bahoga ega ekanligini aniqlash.

Xususiy muammolarni qo'yish. Yuqorida qayd etilganidek, muammoni to'g'ri va aniq qo'yish, tadqiqot maqsadi va vazifalarini to'g'ri aniqlash, tadqiqot ko'lamini belgilash va ular asosida tadqiqot manbayini aniqlash ilmiy-tadqiqot ishining muhim bosqichlaridir.

Ta'lim texnologiyasi - aniq bir o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan qonun-qoida, metod va usullaridan iborat bo'lib, u ta'limda ko'zlangan maqsadga erishish bosqichlarini o'zida aks ettirgan va ta'lim jarayonini maqsadga

muvofig boshqarishga erishish imkonini beruvchi jarayondir. ham nazariy, ham amaliy fikrlash tadqiqotchida rivojlangan bo'lishi kerak.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- I. Pedagogika fani nima haqida bahs yuritadi?
2. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini aytib bering.
3. Pedagogika fanining bo'limlari deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogika fanining dolzarb muammolarini aytib bering.
5. Pedagogika fanining vazifalari nimadan iborat?
6. Pedagogikaning metodologik asosini nima tashkil etadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
8. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

*Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa - tarbiyadir.
(Demokrit)*

SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Reja:

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxsning rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Pedagogik antropologiya. Individ va shaxs haqida tushuncha. Shaxs tarbiya obyekti va subyekti sifatida.
4. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi.
5. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Shaxs kamolotining yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati.

Mavzuning maqsadi:

Shaxs, individ, barkamol shaxs, o'quvchilarning yosh davrlari to'g'risida ma'lumot berish hamda ularda dunyoqarash, axloq, inti-zomni shakllantirish.

Mavzuning vazifalari:

shaxs va individ tarbiya jarayonini obyekti va subyekti ekanligi, shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlarini yoritish; shaxsni kamol toptirishda ta'sir etuvchi omillarning rolini ko'rsatish; shaxs shakllanishini yosh xususiyatlariga ko'ra davrlarga bo'lish; barkamol shaxs tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy asoslarini ko'rsatish.

Tayanch ibora va atamalar: shaxs tushunchasi, individ, inson, ruh, aql, bosh miya, rivojlanish, salomatlik, ta'lim-tarbiya, shaxsning rivojlanishi, shaxsni rivojlantiruvchi omillar, ta'lim-tarbiya, biologik, ijtimoiy omillar, irsiyat, muhit, oila muhiti, ijtimoiy muhit, mahalla, maktab, tarbiya, shaxsning kamol topishida tarbiya va faoliyatning bog'liqligi, go'daklik davri, yangi davr, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, O'smirlik davri, o'spirinlik davri, jismoniy va ruhiy kamolot, barkamol shaxs.

3.1. Individ va shaxs haqida tushuncha. Shaxs - tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxsni shakllantiruvchi asosiy omillar


Dunyoga kelgan go'dak ma'lum yoshga qadar individ hisoblanadi. «Individ» lotincha «individuum» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bo'linmas», «alohida», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Individ bio-logik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishidaharakato'zigaxos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik refleklar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go'dakda nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, lining tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro'y

berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam (inson individi) shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan farq qilishi lozim.

Ruhiy jarayonlar va bola ruhiyatidagi o'zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari, so'z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqa ruhiy rivojlanishga taalluqlidir. Shaxs rivojlanishida, u yoki bu faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar)ning turli yoshdagi faoliyat mazmuni (maq-sadga yo'naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo'lishi, ularning samaradorligi va h.k)

Shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshi-ruvchisi. Demak, shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda o'z o'rnini bor. Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug'ma va hosil qilin-gan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, faoliyat va xatti-harakatlarning miqdoriy va sifat o'zgarishi jarayonidir. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi shaklda aks ettirilgan (3.1.1-shakl).

3.1.1-shakl



Irsiyat - bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xusu-siyat va o'xshashliklarning nasl (bola)ga o'tish jarayoni. Nasldan naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi: anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amailar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari ham nasldan naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan ernas. Iste'dod alomatlari muayyan faoliyatga moyilligini aks ettirdi, xolos. Layoqat go'yo «mudroq» holatda bo'lib, uning «uyg'onishi» — rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini talab qiladi. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Muhit - bu shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar majmuyi. «Muhit» tushunchasi o'ziga geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi. Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi

Oila muhiti - mikromuhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois mustaqillikka erishilgandan so'ng, o'tgan davr mobaynida oila muhitining

shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan «Oila» ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori boiadi.

Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi:

1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o'sishi sodir bo'ladi. Masalan, bola o'z ona tilini, atrofini o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni ta'lim olish yo'li bilan o'rganadi. Ma'lum bilim ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida kishining tug'ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchilik (kar, ko'r, soqov va h.k) bilan tug'iladi. Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida, ularning aqliy qobiliyatlari taraqqiy qiladi, sogiom kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchilik (bolalarning qarta, qimor o'ynashi, chekishi, ichishi va narkotik moddalarga o'rganishi kabi)larni ham tugatish mumkin.

4. Tarbiya — istiqboldagi maqsadni belgilaydi. Shu bois, shaxs kamolotini ta'minlashda ilg'or rol o'ynaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'liqdir.

3.2. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi


Shaxsning kamol topishida tarbiya muhim rol o'ynaydi. Uning shakllanishi faoliyatdan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos boiadi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat — o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kel-maydi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Tarbiyalash jarayoni

Tug'ilganda, hamma chaqaloqlar bir xil yig'iydi. Ammo ular kat-ta bo'lganlarida, turli mavqega ega boiadi. Nima uchun? Bola o'z onasidan tug'ilishi bilan uni tashqi muhit asosida tarbiyalash boshlanadi, chunki, odatda, u ichki muhit asosida ona qor-nida tarbiya oladi. Tarbiya insonning o'z oilasi, jamoasi, jamiyatida muhim asos hisoblanadi, chunki hech kirm o'z onasidan «yomon» boiib tug'ilmaydi.

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi asosida faoliyat tashkil etishi lozim.

3.3.1-shakl



Yosh davrlari shartli ravishda guruhlanadi. Unda muayyan yosh davrining guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlaridagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi. Quyida yosh davrlariga qisqacha to'xtalamiz.

Go'daklik davri. Yangi tug'ilgan bolada barcha sezgi turlari mavjud bo'ladi. Ushbu sezgilar murakkab bo'lmay, oddiy holatdadir. Chaqaloq bir holat faol bo'lib, bu faollik, avvalo, qo'l va oyoqlarning refleksi yo'li bilan harakatlanib turishida ko'rinadi. Xuddi shunday reflektor harakatchanlik bolaning chinqiriqlarida ham namoyon bo'ladi. Bolada vujudga keladigan shartli reflekslar 5-6 haftalarda yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, u onasining ovozi taniydi, uni eshitsa, tinchlanadi.

Maktabgacha tarbiya davri.

Ushbu yoshdagi bolaning emotsionalligi (hissiy beriluvchanligi) uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yosh davrida bolalar hayotida o'yin o'ziga xos o'rin tutadi, o'yinlar, asosan, katta yoshdagi kishilar yoki bolalarning harakatlariga nisbatan taqliddan iborat bo'ladi. Bolani o'yinning mazmunidan ko'ra o'ynalayotgan buyumlar (o'yinchoq va qo'g'irchoqlar) hamda o'zining harakatlari ko'proq zavqlantiradi.

Kichik maktab yoshi. 7 yoshga to'lgan bola (ushbu yosh qator mutafakkirlar tomonidan dastlabki «yetuklik yoshi» sifatida e'tirof etilgan) jismoniy va ruhiy xususiyatlarga ko'ra maktabga, ta'lim olish-ga to'la tayyor bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq respublikamizdagi bolalarning barchasi 6-7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil o'la boshlaydi. Shu davr-ga qadar bola hayotida muhim o'rin tutgan o'yin faoliyati o'z o'rnini tizimli, uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt asosida tashkil qilinadigan o'qish faoliyatiga bo'shatib beradi. Yosh bola uchun bunday «mas'uliyatli mehnat»ga o'tish qiyin kechsada, u asta-sekin bunday sharoitga ko'nika boradi. O'yin vaqtida, qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur. Kichik maktab o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat, xotira va idrok, tafakkur, ixtiyoriy idrok qilish, nutq, his-tuyg'u, iroda kabi ruhiy jarayonlar rivojlanadi. chi bo'lsa, unda o'qish istagi yo'qoladi, maktab ta'limidan ko'ngli soviydi.

O'smirlik davri. Kichik maktab yoshidan o'tgach, o'smirlik davri boshlanadi.

Bunda bola shaxsi rivojlanishining murakkab davri boshlanib, bu «o'tish davri» deb ataladi. O'tish davri bolalikdan balog'at davriga o'tishni ifodalaydi. O'smirlik yoshining murakkabligi uning anatomik-fiziologik vapsixologik xususiyatida ro'y berayotgan kuchli o'zgarishlar bilan bog'liq. O'smirlik yoshidajismoniyjihatdan sekin o'sish davri tugaydi. Jis-moniy o'sish tezlashadi. O'zining har narsaga jahli chiqishi, qo'pollik holatlari tez-tez yuz beradi. O'smirlarning bu xususiyati ko'proq bahs-munozara jarayonida ko'zga tashlanadi. Garchi, o'z fikri asosli bo'lmasada, uni ma'qullashga urinadi.

13-14 yoshlarda o'smirlarda burch hissi, mas'uliyat tuyg'usi o'sadi, birmuncha vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda o'smirda maqsadga intilish, o'zi uchun ideal tanlash boshlanadi. O'smirlarda axloqiy e'tiqod shakllanib, o'ziga xos qarashlar tarkib topa boradi.

Demak, o'smir bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashning garovidir.

O'spirinlik davri. O'spirinlik davri jismoniy o'sishning tinch davri sanaladi. Shu boisdan, o'smirlardan farqli ravishda o'spirinlar faoliyatida romantik his-tuyg'ulardan ko'ra ko'proq realizm muhim o'rin tutadi. O'spirinning tana tuzilishidagi organlarning (qo'l, oyoq, ko'krak qafasi, yelka) bir-biriga muvofiqsizligi o'spirinlik davriga kelib, asta-sekin yo'qola boradi, ularning qomatlari shakllanadi. Ularning o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organ-lari, jamoatchilik tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki ana shu ehtiyojni qondirish yo'ida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'spirin yigit-qizlarda bir-birlariga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi, ikki jins orasidagi do'stlik-o'rtoqlik tuyg'ularini shakllanishiga zamin hozirlaydi. Ba'zi o'spirinlarning do'stligi zamirida haqiqiy sevgi-muhabbat qaror topadi. Shu sababli, ularda oila va nikoh masalalariga nisbatan jiddiy munosabatni tarkib top-tirish, voyaga yetmaganlarning nikohga kirishlari, shuningdek, ular o'rtasidagi jinsiy yaqinlikning oldini olish maqsadida, ular orasida oila va nikohning ma'naviy asoslari borasidagi targ'ib ishini kuchaytirish, bu borada o'ta ehtiyotkorona yondashuvni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Aslida bola tarbiyasi ona qornidaligi paytidayoq boshlanmog'i lozim. Shu sababli ham jismonan baquvvat, ma'nan yetuk insonlar doimo ulug'lanib kelingan va hattoki, jismonan baquvvat insonlarga polvon hamda jismonan, ma'naviy yetuk insonlarga pahlavon deb nom berilgan. Insonni ezgulik sari yetaklash haqidagi ta'limotlar muqaddas kitoblarimiz (Qur'oni Karim, Hadisi sharif, Avesto va shu kabilar)da doimo ulug'lanib kelingan.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Shaxs» tushunchasiga ta'rifbering.
2. «Shaxsning rivojlanishi» deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxsni rivojlantiruvchi asosiy omillar nimadan iborat?
4. Shaxsning shakllanishiga muhit qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Shaxsning rivojlanishida tarbiyaning rolini tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi” T., “Sharq” 1999 y
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
3. O‘. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y
4. A. To‘xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon., “Xayot” 2001 y
5. O. Musurmonova “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar” T., “O‘qituvchi” 1990 y
6. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y.
7. Axmedova M.E Pedagogika nazariyasi va tarixi” o‘quv qo‘llanma T:2011 “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti 157 b

TARBIYA MAQSADI VA VAZIFASI

Reja:

1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari.
2. Tarbiya usullari va shakllari.
3. Tarbiyaning tarkibiy qismlari.

Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun-qoidalari bo‘lganidek, bola tarbiyasining ham o‘ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi, chunonchi:


- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog‘lanish;
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o‘quvchilarning yoshi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Tarbiya - bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida - bilim, his - hayajon, estetika, odob - axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o‘ziga hos jihatlari, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Konuni va «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» ta’lim tizimini tubdan isloh qilish uni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab bergan. Hujjatda shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub’ekti va ob’ekti sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshiralayotgan o‘zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi - inson shaxsining rivojlanishi hisoblanadi. Savol tug‘iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo‘ladi? Qachonki, u jismonan sog‘lom, vijdonan pok, ma’naviyati yuksak bo‘lsa. Bunda o‘sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. SHu o‘rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning

ushbu fikri o'rinlidir: «Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil -bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir... SHuni unutmasligimis kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq...».

Tarbiya - jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama - qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning mukammal shaxs bo'lishlari, rivojlanishlari, shaxsiyliklari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarining muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadilar. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi.



Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat xayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogig jarayonida tarbiyalashi lozimligi bilishi kerak. SHu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim. O'quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi, o'qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar.

Tarbiya jarayonining uziga xos xususiyatlari xam mavjudki, bular orkali tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish yana xam e'tibor talab kiladi. Tarbiyaning

kupkirralilik,uzok muddat davom etishi,yaxlit xolda va konsentrik xolda amalga oshirilishi,ikki tomonlama:ukituvchi va ukuvchi faoliyatibilan boglikligi,karama-karshiliklar kupligi kabi xususiyatlari inobatga olish,mazkur xususiyatlarning tarbiya jarayonini amalga oshirishda xar bir ukituvchi –tarbiyachi dikat markazida turishini talab kiladi.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoklama jarayon. Tarbiyachilar - bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

“Metod” so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini qo'yidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1.Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

2.Namuna (maslaxat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar xaqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

3. Nasixat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, maqullash, raxmat aytish, duo qilish, ok yo'l tilash va xokazolar).

4. Qoralash va jazo.(ta'kidlash, ta'na, gina, tanbex berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va xokazolar.)

Tarbiya usullarini o'rganish, taxlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayondan foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo'lib olamiz:

Suxbat va xikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul xisoblanadi. Suxbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suxbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suxbatdan kutilayotgan natijani xisobga olish lozim.

Xikoya. O'quvchilar odatda xayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq xikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suxbat ham, xikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suxbat va xikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suxbatning zavqi – shundan ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nixoyatda muximdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota – bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: “ Qush uyasida ko'rganini qiladi ”. Juda oddiy jo'ngina xulosa.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni xis etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq – atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu xarakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona xarakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z – o'zini tarbiyalash usullari o'quvchilarning o'zini – o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeyini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z – o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z – o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini taxlil qilish. O'z shaxsini, fazilatlarini taxlil qilishga, xatti – xarakatlari xaqida o'ylashga o'rgatadi.

O'z – o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish – turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi xaqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baxolash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z – o'zini baxolash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin.

O'z – o'zini baxolash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini xisob – kitob qilish, baxolash, o'ziga chetdan turib xolisona baxo berish, o'zidan qoniqish xosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash usullari.

- 1.O'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr - qimmatini bilan faxrlanadi;
- 2.Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
- 3.Esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
- 4.Maqtov yorlig'i berish;
- 5.Stipendiya bilan taqdirlash;
- 6.Xurmat taxtasiga fotosuratini quyish;
- 7.Qo'llab- quvvatlash;
- 8.Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
- 9.Safda birinchi o'rinda turish;
- 10.Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
- 11.Gazetada, radioda e'lon va xokazo.

Xar qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni xisobga olgan xolda qo'llanishi lozim.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti – xarakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir.

Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralari qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani

qo'rqitish, gazablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralari quyidagilar kiradi:


Tanbex berish – eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma – yuz turib tanbex beradi, buni kundaligiga yozib quyish mumkin.

Ogoxlantirish – noma'qul xatti xarakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Xayfsan berish – agar tanbex va ogoxlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni bo'zaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda bo'zganini e'tiborga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-xayodir. Odatda, odamda izzat –nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini xurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu xislarni extiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Tarbiya tamoyillari- tarbiyachining tarbiya jarayonida asoslanishi va rioya qilishi lozim bo'lgan asosiy qoidalardir.



→ Tarbiyani ijtimoiy xayot bilan
qo'shib olib borish

Tarbiyada xududiy xususiyatlarini
inobatga olish ←

TARBIYA PRINTSIPLARI

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda tarbiyaning quyidagi printsiplari farqlanmoqda:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
 - tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanish;
 - shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
 - tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
 - tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
 - tarbiyada o'quvchilarning yoshi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.
- Quyida tarbiya jarayonining tamoillarini ko'rib chiqamiz.

Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi printsiipi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan - barkamol inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi printsiipi

Bu qoida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida iymon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar.

Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

SHAXSNI JAMOADA VA JAMOJA ORQALI TARBIYALASH

PRINSIPI

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'ladi va muvaffaqiyati ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog'lom jamoada o'quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi va tarbiya jarayonida o'qituvchilarning tayanchiga aylanadi.

O'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan qo'sha bilish, bir-biriga o'zaro yordam berish kabi qimmatli fazilatlar avvalo jamoada shakllanadi. O'quvchilar jamoasida har bir shaxsning kamolga yetishi, hamda sinfda va umuman maktabda do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoq darkor. SHuni ham aytish kerakki, ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga ham to'g'ri keladi.

O'quvchilarda jamoa manfaatini ko'zlash, jamoatchilik hissi, avvalo birgalikda o'qish va mehnat qilish jarayonida mustahkamlanadi.

O'qituvchi va tarbiyachi o'zining tarbiyaviy ishlarida hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga va ular orasidagi faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoachilik ruhini singdirib borishi lozim.

TARBIYADA BOLA SHAXSINI HURMAT QILISH VA UNGA TALABCHANLIK PRINSIPI

Tarbiyachi awaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki keyingi ishlarida o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hoi tarbiyaga yomon ta'sir etadi. Biz bunday tarbiyachini o'z so'zida qat'iy turmaydigan kishi, deb ataymiz. U bolalarga topshiriq berib: «Bilib qo'yinglar, topshirilgan vazifani albatta tekshirib, tegishli bahoni qo'yaman», deb ogohlantiradi. Lekin bolalarning topshiriqni bajargan yoki bajarmaganlarini aslo tekshirmaydi. Bolalar tartibni salgina buzsalar, u ko'p do'q-po'pisa qilib, ularga qarshi turli choralar ko'rajagini aytadi-yu, ammo amalda hech qanday chora ko'rmaydi. U, biror qiziq tadbir o'tkazishni bolalarga va'da qiladi-yu, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'yadi, bolalarda bunday tarbiyachiga izzat va hurmat paydo bo'lmaydi. Har bir pedagogning so'zi bilan ishi bir xil bo'lishi kerak. U o'z ishida va so'zida izchil bo'lmog'i lozim. Har bir tarbiyachi uchun bu narsa qonun sifatida tan olinishi shart.

Bolalarga birdaniga juda ko'p talab-qoidalarni taqdim qilish mumkin emas; bolalarni xulq va yurish-turish ko'nikmalariga o'rgatgan vaqtda ham xuddi o'quv predmetlari mazmuniga kiradigan ko'nikmalarni o'rgatishdagi tadrijiylik va tizimlilikka rioya qilish kerak. SHunday qilinsa, bolalar xulqiy ko'nikmalarni puxta, mustahkam o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich ta'lim mohir pedagoglari ish tajribalarining ko'rsa-tishicha, qaerda o'quvchilarga yuksak talabchanlik, hurmat, muhabbat, ishonch kuchli bo'lsa, o'shaerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Bolaga mehribonlik, hurmat va muhabbat bilan qarash uning kuchiga kuch qo'shadi, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada orttiradi, bu, ayni chog'da, o'quvchilarda o'z o'qituvchisiga nisbatan hurmat, ishonch va mehribonlik uyg'otadi. Zotan, bolalar g'amxo'r, mehribon va talabchan o'qituvchini sevadilar, hurmat qiladilar va unga to'la ishonadilar. Mana shunday o'qituvchining bolalarga tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'ladi, uning obro'yi ortadi. Agarda o'qituvchi o'z o'quvchilarining kuchiga va imko-niyatiga ishonch bilan qarasa, ular bu ishonchni oqlashga intiladilar.

O'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchiga nisbatan haddan tashqari talabchan va qattiqqo'l bo'lishi ham, va aksincha, bolalarga bo'sh muomala qilishi ham yaramaydi.

O'qituvchi va tarbiyachilar o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lishlari va qo'ygan talablarining o'quvchilar tomonidan so'zsiz bajarilishiga erishmoqlari lozim. Bu esa bolalarni kattalar tomonidan qo'yilgan oqilona talablarni o'z vaqtida bajarishga odatlantiradi. SHu bilan birga, bolalar o'zlariga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan o'qituvchilar, ota-onalar, bolalar va yoshlar tashkilotlari hamda barcha jamoatchilik tomonidan bir xilda talab bo'lishini, ya'ni talabda birlik bo'lishini ta'min etish g'oyat muhimdir.

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, o'qituvchilar bilan ota-onalar o'quvchilarga bir xilda talab qo'yishni ta'min etishlari kerak. Ota-onalar ham, o'z navbatida, bolalarni tarbiyalashni maktab bilan mustahkam aloqada olib borishlari hamda bolalarga nisbatan maktab bilan birga bir xil talab qo'yishlari lozim. Oila a'zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqalar o'rtasida ham bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda birlik bo'lishi zarurdir. Bolaning sinfdan-singfa o'tishi, yoshining ulg'ayishi, saviyasining ortishi, dunyoqarash doirasining kengayib borishi bilan talablarning mazmuni va shakli ham o'zgarib, ortib boradi.

Xullas, o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lish, ularga samimiy muhabbat va hurmat bilan qarash qoidasini oqilona hamda mohirlik bilan to'g'ri qo'llanishi, o'quvchilarning kuchiga, imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga - tarbiyaning muvaffaqiyatli borishiga yordam beradi.

TARBIYADA O'QUVCHILARNING YOSHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH PRINSIPI

Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini bolalik, o'smirlik, o'spirinlik pallalarini bosib o'tadilar. SHu davrlar ichida ular hayot, inson va tabiat, umuman atrofimizni o'rab olgan dunyo haqida aniq bilimlarga ega bo'ladilar. Ularning axloqi ham o'zgarib boradi. SHu yillar ichida bolaning axloqiy tuyg'ulari rivojlanadi, ongi bilan xulqi o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi, xarakteri tarkib topadi, o'z xulqi va xatti-harakatlarini ehtiyojga va sharoitga muvofiqlashtirishga intilish odatlari tarbiyalanadi.

Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni, pedagogik rahbarlikning xarakteri ham o'zgarib boradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zini maktabda, uyda, ko'chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi.

Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularga talab ham orta boradi. SHu tufayli o'rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning mustaqilligiga suyanib ish ko'rish yaxshi natija beradi. Tarbiyada bolalarning kuchi va imkoniyatlarini tola ishga solish yaxshi, lekin ularning kuchiga ortiqcha baho berib yuborish ham yaramaydi.

Tarbiya berishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan tashqari, har qaysi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarning yoshi, bo'yi bir xil bo'lsa-da, ularning mijozi, fazilatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari har xil bo'ladi. Bu farqlar bolalarning xulqida, o'qish va mehnatida aks etadi.

Bir o'quvchiga nisbatan muvofiq bo'lgan tarbiya uslubini boshqa bir o'quvchiga nisbatan qo'llaganda u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Sinfdagi o'quvchilarning ba'zilariga oddiy tanbehning o'ziyoq samarali ta'sir ko'rsatadi, ammo boshqa o'quvchilarga tanbeh berishning o'zi kifoya qilmaydi. Ba'zi bir o'quvchi ayrim axloqiy fazilatlarni tezda uqib oladi va unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrim bolalar esa bu xil sifatlarni o'zlariga juda sekinlik bilan singdiradilar.

Ayrim o'quvchilar o'zlarining faolliklari, saranjom-sarishtaligi, intizomlilik, fahm-farosati bilan o'qituvchi va bolalar jamoasining ishonchi va hurmatiga sazovor bo'ladilar, boshqalari esa intizomsizligi, pala-partishligi, betgachoparligi, bema'ni qiliqlari bilan tezda «tanilib» qoladilar. Demak, har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, his-tuyg'ulari, kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish tarbiyani to'g'ri yoiga qo'yish imkoniyatini beradi.

TARBIYAVIY ISHLARNING IZCHILLIGI, TIZIMLILIGI HAMDA BIRLIGI PRINSIPI

Avvalo, ta'lim va tarbiya bir maqsadni - barkatnol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim ishi tarbiya bilan birga qo'shilib ketadi va bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi.

Bolalar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdirdagina ta'siri kuchli boiadi.

Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida

qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning - oila va maktab, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi.

Tarbiya ishidagi bu hamjihatlik va hamkorlikni ta'min etishda maktab asosiy rol o'ynaydi. Maktab yuqorida aytilgan muassasalar bilan mustahkam aloqada bo'lib, tarbiya sohasida bahamjihatlikda ishlashga erishadi.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning hammasida bolalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarga hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim.

Har bir odam o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo, uning fe'l-atvori, olgan tarbiyasi sababdir.

O'quv qayda bo'lsa - ulug'lik shunda,
Bilim qayda bo'lsa - buyuklik shunda.
Yusuf Xos Hojib

TA'LIM NAZARIYASI (Didaktika)

Reja:

1. Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari
3. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari.
4. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari.
5. Ta'lim paradigmalari.

Mavzuning maqsadi: Ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslar haqida bilim berish.

Mavzuning vazifalari:

Ta'labalarga didaktika haqida tushuncha berish.

Didaktika ta'lim nazariyasi ekanligi.

Didaktikaning maqsad-vazifalari.

Didaktikaning asosiy tushunchalari.

Uzluksiz ta'lim tizimi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi.

Hozirgi davr didaktikasi tizimlari.

Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari: an'anaviy, konservativ, ilmiy, insonparvarlashtirilgan, ratsionalistik, texnologik, izoterik.

Tayanch ibora va atamalar: didaktika; o'qitish nazariyasi; umumiy didaktika; falsafa va sotsiologiya, siyosatshunoslik; pedagogik-psixologiya; odam fiziologiyasi; xususiy metodika; ta'lim; ta'lim jarayoni; ta'lim tamoyillari; didaktik tamoyillar; bilim, ko'nikma va malakalar; didaktik materiallar; tarqatma materiallar; didaktik qobiliyat; didakosentrik texnologiyalar; paradigma; ta'limni axborotlashti-rish; innovatsion ta'lim; modellashtirish.

Didaktikaning predmeti-ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir. Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga oid tushunchalar tizimi ham mavjud. Har bir tushuncha ma'lum didaktik hodisaga taalluqli bo'lib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash shakli, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda amaliyotda foydalanish vositalaridir.

Didaktika fan sifatida o'z tadqiqot predmeti va metodlari hamda aniq maqsadlariga ega. Didaktika ko'p asrlik tarixiga ega.

Didaktika yosh avlodni «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollarga javob beradi. Didaktika, o'z navbatida ayrim o'quv fanlarga oid o'qitish va o'qish metodi va uslublari bilan uzviy bog'liqdir. U o'qitishning barcha fanlarga oid umumiy qonuniyatlarini aniqlab borishi

bilan birga, har bir o'quv fanini o'qitish metodlari uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

4.1. Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi

Didaktika - pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Unda ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullaniladi. Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyat-larini o'rganuvchi qismidir.

Didaktika — yunoncha so'z bo'lib, «didasko» — o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasini ta'lim nazariyasini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) ilmiy iste'molga kiritgan. «Didaktika» nomi ostida nazariy va metodologik asoslar-ni tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «Hammani harama narsaga o'rgatish san'ati», deb baholadi. Didaktika fanining mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotssi, I.Gerbert, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Hamza, Oqilxon Sharofiddinov va Qumri Abdullayevalar katta hissa qo'shdilar.

Дидактика (от греч. *didaktikos* – ўқитаман, ўргатаман) – таълим жараёни, мазмуни, қонуният ва тамойиллари, шакл, метод ва воситаларини илмий асослаб берувчи педагогик таълим назарияси, педагогиканинг алоҳида соҳаси.

“Дидактика” атамаси илк бор немис педагоги *Вольфганг Ратке* томонидан “Дидактика, ёки таълим санъати” (1613 й.) деб номланган маърузасида қўлланилган.

Дидактика илмий билимлар тизими сифатида биринчи мартаба чех педагоги *Ян Амос Коменский*нинг “Буюк дидактика” (1657 й.) асарида очиб берилган.

Ta'lim jarayonini qonun-qoidalarini o'rganish, tahlil etish va yangi bilimlar yo'nalishlarini izlab topish, ularni o'zlashtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish masalalari bilan pedagogikaning didaktika qismi shug'ullanadi.

Mohiyati va mazmuniga ko'ra didaktik tushunchalar ikki turga bo'linadi: asosiy tushunchalar, yordamchi tushunchalar. Masalan, «Ta'lim»-asosiy tushunchalar, yordamchi tushuncha-»maktabgacha ta'lim», «boshlang'ich ta'lim», «o'rta ta'lim», «dars» tushunchasi asosiy, dars tiplari- «yangi bilim berish», «mustahkamlash» kabilar yordamchi tushunchalardir. Asosiy va yordamchi tushunchalar umumiylik va xususiylikni o'zaro munosabati shaklida amal qiladi. Didaktik tushunchalar tizimi asosiy tushuncha mohiyati, mazmuni negizida belgilanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, maxsus ta'lim, o'rta ta'lim kabi tushunchalarning mazmuni «ta'lim», dars tipi, dars turi, dars bosqichi kabi tushunchalar «dars» tushunchasi kontekstida aniqlanadi.

Дидактиканинг баҳс доираси

НИМА УЧУН ЎҚИТИШ? КИМНИ ЎҚИТИШ? ТАЪЛИМНИНГ МАҚСАДИ	ҚАНДАЙ АСОСДА ЎҚИТИШ? ТАЪЛИМНИНГ ҚОНУН, ҚОНУНИЯТ, ТАМОЙИЛ, ҚОЙДАЛАРИ
НИМАНИ ЎҚИТИШ? ТАЪЛИМ МАЗМУНИ	ҚАНДАЙ ЎҚИТИШ? ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ШАКЛЛАРИ ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИ

Didaktik ta'minot deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv axborotlari mazmuni xilma-xil turlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.

Didaktik ta'minot deganda ma'lum bir qonuniyat, tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga asoslanadigan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar tushuniladi.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv-uslubiy majmua tushuniladi.

Didaktik ta'minotning muhim xususiyatlari

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;
- 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.
- 3) referat ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va yetarli hajmda bo'lishi, pedagog va talabalarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korrektsiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Дидактик таъминотнинг муҳим хусусиятлари

Дидактик таъминот қуйидаги кўрсаткичлар билан баҳоланади:

1) назорат топшириқлари, тест саволлари банкининг mavjudligi;

2) ўқув фани бўйича дидактик материалларнинг mavjudligi: аудио-видео материаллар, компьютер дастурлари, жадвал, слайдлар, тарқатма материаллар.

3) реферат ишлари mavzulari.

Дидактик таъминот ўқув курсини ўзлаштириш учун ахборотларнинг тўлиқлиги ва етарли ҳажмда бўлиши, педагог ва талабаларнинг биргаликдаги интеллектуал-эмоционал ўзаро ҳаракати мазмуни ва усулларининг вариативлиги, интерфаоллик, диалоглик, муаммолик, амалий йўналтирилганлик тамойиллари асосида ишлаб чиқилган ахборотларнинг оригиналлиги ва тартибга солинганлиги билан характерланади. У таълим олувчининг ахборотларни ўзлаштириш жараёнини ташкил этиш, назорат қилиш ва коррекциялаш мақсадида фойдаланилади ва таълим олувчи шахсини шакллантириш ва ўз-ўзини ривожлантириш воситаси бўлиб хизмат қилади.

Didaktik ta'minot deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv axborotlari mazmuni xilma-xil turlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.

Didaktik ta'minot deganda ma'lum bir qonuniyat, tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga asoslanadigan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar tushuniladi.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv-uslubiy majmua tushuniladi.

Didaktik ta'minotning muhim xususiyatlari

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;

2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.

3) referat ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va yetarli hajmda bo'lishi, pedagog va talabalarining birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korrektsiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik va metodik ta'minotning qiyosiy tahlili


Tushunchalar	Didaktik ta'minot	Metodik ta'minot
Mazmun	O'zaro aloqador xilma-xil o'quv axborotlari majmui	Maxsus ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan o'quv-uslubiy majmua
Maqsad	O'qituvchi va talabalar o'rtasida faol axborot almashishga doir o'zaro harakatni tashkil etish uchun sharoit yaratish	Pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirib borish uchun sharoit yaratish
Funktsiya	Tashkiliy, ta'limiy, nazorat va kommunikativ	Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash, umumlashtirish va translyatsiya, kundalik metodik yordam
Tuzilishi	O'quv dasturlari, o'quv-metodik nashrlar, didaktik materiallar, o'qitish vositalari	O'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim ishlanmalari, nazorat va baholash uchun topshiriqlar, fanni o'qitishga doir tashkiliy ko'rsatmalar

B.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlari ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta'lim oluvchilarning 95 foizi ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun mazmunini o'zlashtirib olishga qodir. Ana shu nuqtai nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi

Metodikaning mohiyati quyidagicha:


1. O'qituvchi sinf yoki kurs uchun ta'lim yakunida erishilishi zarur natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.
2. O'quv materiallarining yaxlit hajmi ko'rsatilib, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan va tuzatuvchi, korrektsiyalovchi navbatdagi testlar tuziladi.
3. O'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test

O'QITISHNING HOTIRADA SAQLASH (PIRAMIDASI)



Ўқитишнинг хотирада сақлаш ҳолатлари (пирамидаси)





Didaktikaning asosiy kategoriyalari

O'RGATISH – TA'LIM MAQSADINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA PEDAGOGNING TARTIBLANGAN FAOLIYATI

O'RGANISH – ANGLASH, MASHQ QILISH, VA EGALLANGAN TAJRIBALAR ASOSIDA XULQ-ATVOR VA FAOLIYATNING YANGI SHAKLLARINI EGALLASH JARAYONI, OLDIN EGALLANGANLARI O'ZGARADI

O'QITISH – QO'YILGAN MAQSADGA ERISHISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOG BILAN TALABALARNING TARTIBLANGAN O'ZARO HARA KATI

TA'LIM – O'QITISH JARAYONIDA EGALLANADIGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKALAR, FIKRLASH USULLARI TIZIMI

BILIM – BIROR FANNI NAZARIY O'ZLASHTIRISHNI AKS ETTIRADIGAN INSON G'OYALARI YIG'INDISI

KO'NIKMA – O'ZLASHTIRILGAN BILIMLARNI AMALIYOTGA QO'LLASH USULLARINI EGALLASH

MALAKA – ATOMATLASHGAN HOLATGA O'TGAN KO'NIKMA, TAKOMILLASHGANLIKNING YUQORI DARAJASI

MAQSAD (O'QUV, TA'LIMIY) – O'QITISH NIMAGA QARATILGANLIGI, UNING KUÇLARI KELGUSIDA NIMAGA SAFARBAR ETILISHI

MAZMUN (O'QITISH, TA'LIM) – TALABALAR O'QITISH JAARAYONIDA EGALLASHI LOZIM BO'LGAN ILMIY BILIM, AMALIY KO'NIKMA, MALAKALAR, FAOLIYAT VA FIKRLASH USULLARI TIZIMI

TASHKIL ETISH – QO'YILGAN MAQSADNI YAXSHI AMALGA OSHIRISH UÇUN UNGA ZARURIY SHAKLNI TAQDIM ETADIGAN, ANIQ MEZONLAR BO'YICHA TARTIBLANGAN DIDAKTIK JARAYON.

SHAKL – O'QUV JARAYONINING MAVJUDLIK USULI, UNING IÇKI MOHIYATI, MANTIG'I, MAZMUNI UÇUN QOBIQ.

METOD – O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARIGA ERISHISH (AMALGA OSHIRISH) YO'LI

VOSITA – O'QUV JARAYONINI PREDMETLI QO'LLAB-QUVVATLANISHI. VOSITALARGA O'QITUVÇINING JONLI NUTQI, KENG MA'NODA UNING MAHORATI, DARSLIKLAR, JIHOZLAR VA BOSHQALAR KIRADI.

NATIJALAR (MAHSULLAR) – O'QUV JARAYONINING SO'NGGI NATIJASI, BELGILANGAN MAQSADLARNI AMALGA OSHGANLIK DARAJASI

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'umotlarga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xiz-mat qiladi.

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliya-tinging ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Siyosatshunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajriba-lar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik - psixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'zigaxos xususiyatlari, ularning roll, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

Xususiy metodika alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llashning o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

4.2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi

Ta'lim - ta'lim oluvchigamaxsustayyorlanganmutaxassislaryor-damida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat.

Ta'lim berish — ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish - o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. *Ta'lim dasturi* - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablarga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim maqsadi - har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olish-dan iborat. Sunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi

Ta'lim mazmuni — insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakterini tashkil etadi. Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ta'lim menejmenti va marketingi — bu pedagogik texnologiya-ning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligi-ni aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq qilish masalalarini hal qiluvchi

soha.

Ta'lim metodi - bu ta'lim jarayonida o'qituv'chi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir. Ta'lim metodi 'qituvchi bilan talabalarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'larini anglatadi.

Ta'lim monitoringi - pedagogik tizim faoliyati haqida axborot-lar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatilayotgan obyekt holatini va kelgusida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni.

Ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi. Sifat kategoriyasi insonning obyektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida obyekt subyekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi

Maxsus ma'noda «Ta'lim oluvchi - ta'lim beruvchi» darajasida ta'lim sifati - bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini bel-gilovchi darajadir.

Umumiy ma'noda «Ta'lim oluvchi - ta'lim muassasasi» darajasida ta'lim sifati - bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarining moslik darajasidir.

Ta'lim standart - bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

Ta'lim tamoyillari- bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi.

Didaktik tamoyillar — bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Ta'lim vositalari- o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib bori-shini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

Bilim - bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir. U borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik,

ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish. Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos.

Ilmiy bilim ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolarining yechimlarini topishda qoi keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

Nazariy bilim - empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi. Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilish-ning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi

Ilmiy bilimlar, obyektiv olamni anchato'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni tadrijiy (evolu-tsion) tarzda rivojlanib turadi.

Bilimlar banki - bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmuyi.

Bilimlar bazasi - muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmuyi.

Ko'nikma - bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyor-likda ifodalangan ongli faoliyat. U malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u talabalarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga kela-di»

Malaka — avtomatlashgan, o'rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. U shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning mala-kalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson, tez, go'yo o'z-o'zidan bajarilayotgandek bo'ladi.

O'qitish - o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurol-lantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir. U insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

O'qish - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'qish jarayonining asosiy g'oyalari:

- o'qish — bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida odamlar

butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;

- o'qish oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;

- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin;

- o'qish va yozish orasida chambarchas aloqa bor. Bu aloqani tushunish o'qitish jarayonini boyitadi va rag'batlantiradi.

O'rgatish — ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati. U axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni.

O'rganish - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Maqsad (o'quv, ta'limiy) - o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi. U qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi, yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Mazmun (o'qitish, ta'lim)-o'quvchilar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish — qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl — o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. Metod (yunoncha - aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat.

Metodika - bu metodikaga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilishdir. U biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Vosita — o'quv jarayonini predmetli qo'llab-qo'vvatlanishi. Vosita-talarga o'kituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

Natija - dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan vata'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir. Natija (mahsul)lar - o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Didaktik vositalar va tarqatma materiallar — bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallar. Ular:

kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokazolardan iborat bo'ladi. Professor B.Ziyomhammadovning ijod mahsulida didaktik materiallar - pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi.

Didaktik qobiliyat- o'quv materiali, ko'rgazmali qurollar va vositalarini tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, his-siy istakiarni rag'batlantirish, o'quv bilimini oshirish, faollashtirish mahoratlari majmuyidan iboratdir.

4.3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi - kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha.

Uzluksiz ta'lim — milliy modelning asosiy qismi bo'lib, quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; mak-tabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim — malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, DTSni, kadrlar tayyorlash tuzilmasini va uning faoliyat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

4.4. Ta'lim paradigmalari

Paradigma - (yunoncha *paradigma* - *namuna*, *o'rnak* ma'nolarini anglatadi) - ilmiy muammolarni hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya. Masalan, tug'ilish nazariyasiga tegishli muammolarni aksariyat hollarda differensial tenglamalar nazariyasi yutuqlari orqali hal qilinadi yoki talaba-yoshlarni mustaqillik fuhida tarbiyalash milliy g'oyalar asosida hal etiladi va hokazo.

Paradigma guruhli talabalarning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, talabalarning ilk vaqtlarini samarali o'tkazish, qayta aloqa sifati va sonini orttirish, didaktik materiallar sifatini yaxshilash, talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini kengaytirish, rivojlangan ta'lim tizimini joriy etish, yangi kurslarni loyihalash, o'quv rejasi mazmunini

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy didaktikaga ta'rif bering va uning yo'nalishlarini aniqlang hamda ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bering.
2. Uzluksiz ta'lim tizimining har bir tarkibiy qismidagi mos didaktikalarni integratsiyalashni amalga oshirish haqidagi muloha-zalaringizni yozib chiqing.
3. Ta'lim rivojlanishida paradigmalarning ahamiyati bor deb o'ylaysizmi?
4. Agar bor bo'lsa, ulardan amaliyotda foydala nishni qanday tasavvur qilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon. "Xayot" 2001 y
2. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
3. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
4. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
5. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
6. Axmedova M.E Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanma T:2011 "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti 157 b

TA'LIMNI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI.

Reja:

1. Ta'lim mazmuni haqida umumiy tushuncha.
2. Davlat ta'lim standartlarining amaliy asoslari.
3. O'quv reja, o'quv dasturi davlat xujjati.
4. O'quv adabiyot turlari va shakllari.

Ta'limiy maqsad: Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi va o'quv adabiyotlari, ularning tuzilishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: O'qituvchi faoliyatida ta'lim mazmunini egallashning ahamiyati, me'riy xujjatlar bilan ishlash malaka va ko'nikmalarining zarurligini asoslash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Ta'lim jarayonini talablarga muvofiq rejalashtirish va tashkil etishga doir bilimlar bilan qurollantirish.

1. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha, ilmiy-texnika taraqqiyoti va mazmuni.
2. O'quv rejalari, o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ularni ishlab chiqishga Yangicha yondashuvlar.
3. Ta'lim tashkil qilish shakllari va turlari, unga ijodiy yondashuv.
4. O'quv jarayoni tashkil qilishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari.
5. O'qituvchi o'quv ishlarini tashkil qilishning Yangi shakllaridan samarali foydalanish.
6. Yangi pedagogik texnologiyalar, ularning manbalari va joriy etish tartibi.

1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim -to'grisida"gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni: har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotta va dunyoviy demokratik jamiyat baxt-saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilangan.

Ushbu qonun Fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishiing huququhuququqiy asoslarini belgilash va har kimning bilim olishdai iborat konstitutsiyaviy xuquqini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'limning asosiy mazmunini uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bohuquqlik bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, hamda ular bilan bohuquqlik bo'lgan malaka

va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tugtan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob - axloqi haqidagi xikmatli fikrlar borki, bular bugunga halhuquq ta'limi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qaxramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagilarga amal qilgan holda belgolanadi:

ilmiy bilimlarning yetakchi roli to'g'risidagi qoidaga;

insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosi boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini egallab olish haqidagi "Milliy dastur" ko'rsatmalariga;

tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib rivojlantirish, iymon-e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;

- ilmiy hayot bilan, yagonga demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;

- ta'limning bir maqsadga qaratilganligi (umumiy yoki kasbiy ta'lim);

- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsplariga va didaktik printsiplariga muvofiqligaga amal qilinadi.

Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. Yangi demokratik jamiyat qurayottan hozirgi kunlarda fan va texnikaning, pedagogik texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqimizning madaniy-ma'rifiy yuksalishi tufayli bu jarayon ayniqsa tezlashdi. Biroq material tanlash va ta'limning mazmunini yangilash didaktik muammolar bo'lib qolmay, balki yetarlicha murakkab muammodir. Paydo bo'layotgan Yangi bilimlar oqimi uchun eng muhim, halq ta'limi vazifalarini hal etishda asosiy ahamiyatta ega bo'lgan vazifalarni ajratib ko'rsatish va ayni vaqtda qanday o'quv materiallarini chiqarib tashlash hisobiga ular dasturlarga kiritilishini hal etish kerak.

"Yangi demokratik jamiyat qurayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillashtirishni nazarda tutiladi:

- fan va tajribadaga eng yangi muvaffaqiyatlarni aks etgirish;

- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutulish;

- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi-yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;

- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;

- o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar: kompyuter, elektr pochta hamda texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari hosil qilish.

Biror maqsadga qaratilganligi bo'yicha umumiy ta'limni politexnika ta'limi, kasbiy ta'limdan farq qilish kerak.

Umumiy ta'lim — bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanshini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim - insonni o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi:

1. O'quv rejasi.
2. O'quv dasturi.
3. Darslik.

O'quv rejasi — davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u halhuquq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

1. O'quv tarbiya ishining maqsadi, o'quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotda qo'llay olishga o'rgatish.

2. Makgab o'quvchilariga bilim berish yeshiga qarab tizimga solinadi va qoidalarga asoslanadi:

- a) Boshlangich ta'lim- I-IV sinflar

- b) Umumiy o'rta ta'lim - V-IX sinflar.

- v) O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, kasb-hunar kolleji.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining mahuquqomi tenglashtirilgan. Ularning o'quvchilari va bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishda konstitutsiyaviy haq-xuquqlarini amalga oshirishda teng xuhuququhuquqlidirlar. Shu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Akademik litseylar — o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijgimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-ihuquqgasodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o'rta maktab ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorini, iste'dodlarini namoyon qiladilar. Bu boylikdan obosqichilona foydalanish, uni tug'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kollejlari esya o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yeki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb -hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi.

Bu farq nimalardan iborat?

Bular eng avvalo o'quvchilarni o'qishga qabul qilishdan boshlab, o'quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezoni va bir nechta kasb-hunar egasi,

ustasi, kichik mutaxassis bo'lib o'qishni tamomlashidan iboratdir. O'quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlari, ya'ni zamon talablariga javob beruvchi, istiqbol va kelajakni ko'zlab ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlari oldingi o'quv bosqichi - umumta'lim maktablari va keyingi pohnuqonada turgan oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik printsiyiga amal qiladi. Shu bilan birga kollej pedagoglarining saviyasi yuqoriligi va pedagogik texnologiyalarining Yangiligi bilan farq qiladi. Zamonaviy bilim berish uchun o'qituvchilarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagog kadrlarning obro'-e'tiborini, ijtimoiy mahuquqomini, mas'uliyatini, malakasini oshirishiga va zamon talablariga mos holda tayyorlashga e'tibor qaragilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish qanday amalga oshiriladihuquq

Bu umum o'rta maktabning 9 sinfi bitiruvchilarining yakuniy davdat atgestatsiyasi natijasiga binoan o'quvchi tomonidan yig'iltan Reyting ko'rsatkichlari hamda pedagog psixologik tashxis markazlari tavsiyalari asosida o'quvchi akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejining ma'lum yo'naliishda o'qishni davlom ettirish xuquqiga ega bo'ladi.

O'quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarning qiziqishi va xoxishlarini huquqoniqtirish, qobiliyatlarini rivojdantirish maqsadida o'tkaziladigan fakul'tativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv dasturi — har bir alohida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida bir sinfdan alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarnipg hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to'ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida shu fan bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda yo'nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linib, shu mavzu yuzasidai o'quvchi qanahuquqa bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashgirishi lozim bo'lsa, shu qisqacha ifodalanib beriladi. O'quv dasturining o'zini amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalari mavjud,

1. Dasturni aniq bir g'oyaga asoslanganligi.

Mustaqiljamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda islox qilingan har bir sohasidagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridaga erishilgan yutug'lar darajasini ilmiy asosda aks etgirshii lozim. Dastur uzoqni ko'ra bilish qoidalariga asoslanishi kerak.

2. Dastur ilmiylik printsiyiga asoslanadi.

har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jixatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O'quv dasturi- aniq mazmun va mantihuquq g'oyalarini o'zida aks ettirishi lozim.

Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rgatiladi. Aks holda o'rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jixatdan tushunish qiyin bo'ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning biologik printsipi. Talabalar nazariy olgan bilimlarini. amalda qo'llay olishi ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O'quv dasturini tuzishda fanning tarixiy sabog'lari inobatga olinadi.

Vaqt o'tishi bilan fan olamida Yangi-Yangi kashfiyotlar, ma'lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo'lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o'zida qisqacha ifodalaydi.

6. O'quv dasturi hujjatlar isloh qilingan ta'lim, davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlarga aloxila-alohida tuziladi.

Darslik.

Darslik o'quv jarayonining asosi. Darslik o'quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi, Darslik, ya'ni fan ob'yektiv borliq o'rtasidagi muhim qonuniyatli bog'lanishlarini aks etgiradi, Darslikdagi bilimlar tizimi o'zaro ichki, mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yoki xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim. Shu holdagina o'quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxish insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan boshlangan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta'riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muhuquqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lmoqi zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Pedagogik texnologiyalar, ularning manbalari va joriy etish tartibi

U nima uchun bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri kunimizga yarab kelgan ta'limni tashkil etish amaliyotidan voz kechinshimiz kerak, o'quv jarayonida qo'llab kelinayotgan loyihalashga Yangicha yondashish nima uchun zarur bo'lib qoldihuquq

Bu kabi savollarga javob berish uchun, eng avvalo, mamlakatimizda «Ta'lim to'grisida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub isloxotlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olmoq lozim. Bu yo'nalishlar:

ta'lim mazmunini, tizimini islox qilish;
ta'lim-tarbiya boshqaruvini islox qilish;
ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan Yangicha qarashlarini shakllantirish;

va nixoyat, bu tub isloxotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi — Yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Xulosa qilib aytsak, Yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv rejasi, o'quv dasturlari, darsliklar asosida o'quv jaraenini loyihalashtirishga ham Yangicha yondashish, uni Yangicha tashkil etish zaruriyati tug' ilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, biz «mamlakatimizning istiqboli yosh avlad qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechohuquqli faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, takomillashtirish, xususan, ta'lim mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi - ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bu g'oyani, fikrimizcha, ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siesat, falsafa, fan va boshqalar.);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar).

Dars jarayonida, ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayonining sub'ekti bo'lishi kerak, ya'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasiga o'tishi kerak.

O'qituvchining vazifasi esa o'qitishdan o'qishni o'rgatishga, bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarini mustaqilegallashlariga ko'maklashishdan iborat bo'lishi kerak. U o'quvchida extiyoj tug'dirishi, muhit yaratishi va uni mas'uliyatni xis qilishga yo'llashi kerak. har bir dars oldiga ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uchyohuquqlama maqsadlar qo'yiladi. Darsni tashkil qilish shakli o'quvchilarning o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, u maqsadlarga, o'quv materiallari xususiyatlariga, ta'lim metoddariga va o'quv imkoniyatlariga bog'liq, bunga erishish uchun o'qituvchi raxnamoligida o'quvchilar bilan birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayonni didaktikada «o'quv jarayoni» deyiladi. O'quv jarayonining tarkibi uch qismdan iborat deb qaraladi;

1. Motivatsiya.
2. Bilish faoliyati.
3. Boshqarish faoliyati.

O'quv jarayoniga bunday Yangicha qarashning tub moxiyati shundan iboratki, o'qitishda ichki motivatsiyadan (dihuququhuquqatni tortish, ichki tuyhuququ, istak,

zaruratni shakllantirish) kelib chiqish kerak. O'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch - o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo'lishi kerak.

O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishini, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli Nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik printsiplari — bu ta'limdagi faollikdir. Faollik mezonlari ongillik printsiplari bilan bevosita aloqador. Chunki faollik bor joyda ongillik bo'ladi.

Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lim-tarbiya jarayoniga birgalikda mas'uldirlar. Ular birgalikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baqolovchi» emas, balki Yangi bilimlar yetkazuvchi manbaga aylanadi.

Jaxon pedagogik leksikoni qatoridan allahuquqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha «Yangilik», «islox» tushunchalarini anglatadi. Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish — bu pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanar edi, so'ngra ta'lim tizimidagi har qanday Yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Pedagogik Yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi. Pedagogik innovatsiya — pedagogik Yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nixoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, pedagogik neologiya (yunoncha «neo» — «Yangi» va «logos» — «ta'lim», ya'ni Yangilik haqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagilar qanday Yangiliklar o'rganiladi, umumlashtiriladi.

Ikkinchisi, pedagogik aksiologiya (yunoncha «aksioma» - «isbotlanmaydiga ta'limot» ma'nosini anglatadi) deb nomlanib, bunda pedagogik Yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi.

Uchinchisi, pedagogik praksologiya (yunoncha «praks» - «harakat» va «logos» - «ta'lim», ya'ni «amaliyotda qo'llashhaqidagi ta'limot» ma'nosini anglatadi) deyiladi, bunda tanlab olingan pedagogik Yangiliklarni amaliyotda qo'llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

har qanday pedagogik Yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. O'oya asosida esa o'qituvchining bolalar bilan o'zaro harakati yotadi, ya'ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o'quvchi o'z shaxsini o'zi namoyon etishini ta'minlash; har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'lini tanlash; o'quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchi halbiga kirib borish uchun o'zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo'l topadi. Darsdagi o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'huquqvuchilar ham rahbarlik qiladi. Avvalo a'lochi o'quvchi, keyin boshqa o'quvchilar ham o'qituvchi topshiriqiga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o'quvchilarni orhalaridan ergashtiradilar. Bunday «izohli boshqaruv» o'quvchi maktab ostonasiga huquqadam qo'ygan kundan boshlanishi kerak.

Bularning hammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir so'z bilan aytganda, Yangi pedagogik texnologiyalardir.

Pedagogik texnologiya, o'quvchilar huquqay tarzda, qanday usullar bilan o'qitilsa, natija samarali bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'zining muayyan tizimiga ega bo'lib, bunda komponentlarning ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish va o'zgarishlar kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samarasi demakdir. Pedagogik texnologiyaning jo'nligi – ishlangan model boshqa pedagoglar qo'llanganda ham xuddi o'shanday samara berishi kerakligini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga Yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta'lim samarasi Yangi huquqga ko'tariladi, ya'ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-bosqichog'ishi uning imkoniyatlari darajasida huquqondiriladi;

- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi oshadi;

- bilimlarni mustaqilegallash malakalari shakllanadi;

- shaxsning jamiyatda o'z o'rnini tezroq topib olishi uchun muhit yaratiladi.

Buning uchun bugun biz o'quvchiga «sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da'vtdan «menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotga qo'llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Ma'ruza bo'yicha tayanch so'zlar:

Ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ilmiy texnika, taraqqiyot, dastur, o'quv reja, darslik, o'quv qo'llanma, Yangi pedagogik texnologiya, o'quv shakli, an'anaviy, noan'anaviy o'quv shakli.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim mazmuni deb nima aytiladi?
2. O'quv reja nima?
3. O'quv dasturi nima asosida tuziladi?
4. Darslik, o'quv qo'llanmalarga tavsif bering
5. Ta'limning tashkil qilish shakllariga tavsif bering
6. Sinf-dars shakliga kim asos solgan?
7. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi nimada?
8. Chet El ta'lim shakllari haqida bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakterlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. M. To'xtaxojayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

DARS - TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

Reja:

1. Ta'limni tashkil etishning xilma-xil turlarini va ulardagi umumiylik va xususiylik haqida bilim berish.
2. Hozirgi zamon darslari va ularga mos ta'limni modernizatsiya qilish asoslarini talabalar ongiga singdirish.
3. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy va zamonaviy shakllari haqida bilimlar majmuyini hosil qilish.
4. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hamda ularning mazmun-mohiyatini ta'lim oluvchilar ongida shakllantirish.
5. Darsdan tashqari mashg'ulotlar va ularning mazmun-mohiyatini yoritish.
6. Turli o'quv ishlarida o'qituvchi faoliyatini yoritish.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: Ta'lim turi, illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim, pedagogik tizim, arxiy, qadim-gi, avestit, yunon, o'rta asr, yangi, dogmatik, sxolastik, internet. «Avesto», Suqrotona suhbat, yordamchi savollar, dogmatik o'qitish, pedagogik konsepsiya, haqiqiy g'oyalar va bilimlar, dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuterli o'qitish, muammoli o'qitish, dastur, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'lim, ta'limni modernizatsiya qilish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, uy vazifalar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, individual dars, individual-guruhli dars, sinf-dars, ma'ruza-seminar, auditoriyadan va sinfdan hamda maktabdan tashqari dars, dolton-reja, loyihali ta'lim.

5.1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi.

Didaktik g'oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o'ziga xos tizimlar ko'rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Dogmatik o'qitish - bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ularning ilk ko'rinishlari iste'molda bo'lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bu borada musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli darajada-gi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun-mohiyatga ega bo'lgan. Ularning g'oyalari bo'yicha o'z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukmiy fikr shakllangan. «Haqiqiy g'oyalar» deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lgan.

Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish.

Kamchiliklari: ta'lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini

boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish imkoniyatini har bir ta'lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan ta'lim) harakat (operatsiya) lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi «dastur» terminidan kelib chiqadi.

Dastur - bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, lining yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi; o'quv jarayonining bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo'laklari) va fikrlash (mantiqiy) amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lishi; har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi; nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajargan ta'lim oluvchining yangi materialini o'zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish; to'g'ri javobni topishda ta'lim oluvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi; har bir ta'lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati yetarli bo'lgan mavzuJar bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirishi; natijalar monitoringi, ya'ni barcha nazorat topshiriqlarining bajarilish natijalarining qayd etilishi; ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining ta'lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;

Kompyuterli ta'lim.

Ma'lumki, o'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta'lim vujudga keldi. Kompyuter — (ing. «computer» - hisoblayman) - oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta'lim-tarbiya

5.2. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari

Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ularni ko'pchilik «qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish» deb ataydilar

Innovatsion ta'lim - bu bo'ljak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishini ta'minlaydi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishga erishiladi;

- ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, ya'ni ta'lim beruvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzish-

ga) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashxislash, bashoratlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur;

- ta'lim oluvchining hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlarini qabul qilish (lokal va xususiyan tartib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishni ta'minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia - masofa) uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.

- Masofaviy ta'lim - bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo'ldoshi, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlari majmuyidan iborat.

5.3. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Individual ta'limning kamchiliklari: vaqtning tejimli emasligi; ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi (bunda ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo'ladi); boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu ta'lim oluvchining yoki ta'limning ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish natijasida XVI asrdan boshlab ta'limning individual-guruhli shakli paydo bo'ldi. Bu ta'lim turidan XVI asrga kelib Yevropada keng foydalana boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu ta'lim turidan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan bir-ga olib borilar edi. XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» nomli ilmiy asarining maxsus «Amuzish va parvarishi modrasas farzand» («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash») bo'limida ta'lim oluvchilarga jamoaviy o'qitish haqida o'z fikrini bayon etgan.

XV-XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi va uning natijasida ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga keldi. Ulardan biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning guruhli (jamoaviy) turi deb ataladi. Ular G'arbiy Rossiya (hozirgi Belarus va Ukrainaning g'arbiy qismlari)dagi birodarlik maktablarida ilk bor qo'lanilgan va undagi o'qitish sinf-dars shaklining asosi bo'lgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarini kiritgan. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsa-da, bugungi kunda ham keng ko'lamda iste'molda foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:

* bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoyadi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

*dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois, ta'lim oluvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda ta'lim oluvchilarning ishiga (faoliyatiga) ta'lim beruvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalarini, har bir ta'lim oluvchining alohida bilimini baholaydi. O'quv yili oxirida pedagogik jamoa, ya'ni ta'lim beruvchilar xulosalari bo'yicha ta'lim oluvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qilinadi.

Sinf - dars tizimi atoqli olim K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi (tuzilishi) va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatdi:

1.Ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va ta'lim oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratilgan qism. K.D.Ushinskiyning fikricha, darsning bu qismi darsga go'yoki «eshik» hisoblanadi.

2.Asosiy masalani hal etishga yo'naltirilgan qism. Bu qism darsning muhim markaziy qismi hisoblanadi.

3.Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan qism. Bu qism darsning xulosalash va umumlashtirish qismi bo'lib hisoblanadi.

I. Afzalliklari:

- yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli (tizimli) ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;

- jarayonlarning oddiy boshqarilishi;

- muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;

- ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;

- ta'limning emotsionalligi (zero, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va izchilligi.

II. Kamchiliklari:

- tizimning bilimlarni asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchi ta'lim

oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzagakelishivakuchli o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;

- ta'lim beruvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi;

- katta va kichik yoshli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishda farq bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor qaratish masalasi ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda ta'limning tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi. Bu AQShda Batov va Yevropada Manncheym tizimlarida yaqqol seziladi. XX asr boshida Yevropa va AQShda ta'lim oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. Ular orasida 1905-yili Massachusetts shtatining Dalton shahrida o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi e'tirof etilgan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan peda-gogikaga va maktab tarixiga kirdi. Bu ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataladi. Bu tizimning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv faoliyatining muvoffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq;

- ta'lim faoliyati uchun ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish ta'lim oluvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi;

- ta'lim beruvchi o'z vazifasini odob bilan bajarishi;

- sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, balki uni ta'lim oluvchining o'zi laboratoriya yoki ustaxonalarda ta'lim beruvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytlarda ta'lim beruvchidan yordam so'rashlari asosida o'zlashtirishi va shu kabilar. XX asrning 20-yillarida maktab ishlari ilmiy-tadqiqot instituti ta'limning loyihalari tizimini targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kelpatrik ishlab chiqqan. Ta'limning bu tizimining mazmuni ta'lim oluvchilarning o'zlari loyiha ishlari mazmunini tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi iqtisoslashlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik ishlab chiqarish yoki madaniy turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan. XX asrning 60-yillarida Trank rejasi juda mashhur bo'lib ketdi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan. O'qitishning tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) umumiy mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda esa amaliy mashg'ulotlarni vata'lim oluvchilarning individual ishlarini ham bir-galikda olib borishni taklif etadi. Bunda turli xildagi texnik vositalar-dan foydalanib, umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv

vaqtining 40 foizi ajratiladi. Shuningdek, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga (amaliy mashg'ulotlar) esa o'quv vaqtining 20 foizini va kabinet yoki laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi. XX asrning 70-yillarida o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlarning asosiy masalasi - o'qishni individuallashtirishdan iborat edi. Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar shakli yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri mazkur tizim deyarli o'zgarmagan. Ma'ruza, seminar va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha ma'ruza-seminar tizimi sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Ma'ruza-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tadbqiq etilishi bilan ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ham ulardan foydalana boshlandi. Oxirgi paytlarda ma'ruza-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktablarning katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi. Demak, qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar.

Ta'lim tarixida turli ta'limni tashkil etish shakllardan foydalangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllanib kelingan maktablar huzuridagi maktablarida o'quv mashg'ulotlari asosan ruhoniylar tomonidan tashkil etilib, ta'lim guruhli yoki yakka tartibda amalga oshirilgan. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ta'lim tarixida birinchi bo'lib sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. Ya.A.Komenskiyning yangi ta'lim tizimi qisqa vaqt ichida barcha mamlakatlar ta'limida o'rin oldi hozirgi davrda sinf-dars shakli ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida qo'llanmoqda.

Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o'quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma'lum xona, rejim, tartib asosida o'tkaziladigan mashg'ulotga dars deyiladi.

Dars-bevosita o'qituvchi etakchiligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotidir.

Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.

Darsning asosiy belgilaridan biri ilmiylikdir. Darsda o'rganiladigan bilimlar hozirgi zamon fani yutuqlarini o'zida aks ettirishi, ta'lim jarayon maqsadi hamda bolalarning real bilish imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur.

Dars ijodiy jarayon

Dars-jamoa mehnati jarayoni. Darsni ijodiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tkazish bolalarda jamoa bo'lib ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro yordam, va bolalar o'rtasida hamkorlik o'rnatish yo'llari bilan mashg'ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'zining ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Muayyan yoshdagi va ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhi, rejim, dars tartibi, mashg'ulotlarni ma'lum xonada o'tkazish kabilar darsning tashqi xususiyatlari, darsning

maqsadi, ta'lim mazmunini his qilish, qiziqish, anglash, tushunish uning ichki xususiyatlari sanaladi. Dars ana shu ikki xil tashqi va ichki xususiyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladi.

Darsga qo'yiladigan talablar

Didaktik yoki ilmiy talablar sirasiga quyidagilar kiradi.

1. Har bir darsning maqsadini aniq belgilash
2. Darslarning optimal mazmunini, o'rganiladigan bilimlar ko'lami, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo'yish.
3. Darsni tashkil etishga oid ta'lim metodlarini, vositalarini tanlash, o'quvchilar bilish faolligini rag'batlantirish, o'quv topshiriqlari, mustaqil ishlarni ta'limga tatbiq etish.
4. Ta'lim qoidalarini (ilmiylik, faollik, izchillik, fanlararo aloqa va h.k) og'ishmay amalga oshirish.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Darsda o'rganiladigan o'quv materiallari bo'yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish.
2. Nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish.
3. Bolalarda o'qishga oid ijodiy motivlarni uyg'otish, bilish, o'qish-o'rganishga havas ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish.
4. Dars jarayoniga, pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar jumlasiga quyidagilar kiradi.

1. Dars uchun puxta yo'nalgan konspekt yoki reja tuzish.
2. Darsning bosqichlariga (dars bosqichlarining o'zaro bog'liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar, o'quv topshiriqlarining o'zaro aloqadorligiga) rioya qilish.
3. Dars tezligini o'quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.
4. Dars uchun ajratilgan vaqtdan to'laqonli foydalanish.

• Hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning 1-shakldagidek ko'rinishlaridan foydalanilmoqda.



1-shakl. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.
2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik

vazifalarining birligi va uzviyligi.

3.O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvafiq keladigan ta'lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.

4.Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.

5.Ta'lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta'lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6.Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.

7.Ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

8.Darsda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

9.Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

10. Darsda ta'lim oluvchilar erkinligini ta'minlash.

5.4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari (konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar)

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil vari-antlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.


Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars running qismlari bo'lishi mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- yangi bilimlarga bog'liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta'lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo'ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Didaktik usullar ta'lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o'zgarishiga, ta'lim metodlarining o'zgarishi ham dars tuzilishining

o'zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o'zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqa-li darsning shakl va metodlarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuri-tiladi. Bu boradaxulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, turli darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog'liqdir.

Umumlashtiruvchi dars — bu o'quv dasturining ma'lum bir qismi (bob, boim yoki ayrim mavzu) o'tib bo'lganidan keyin o'tiladigan dars mashg'uloti.



Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ba'zi o'quv materiallarining ma'lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Ma'ruza. Bugungi kunda zamonaviy o'quv muassasalari faoliyatida o'qitish shakllaridan biri bo'lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Maktab amaliyotida ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma'ruza-hikoya;
- ma'ruza-suhbat;
- ma'ruza-munozara;
- ommaviy ma'ruza.

Fakultativ mashg'ulotlar — bu ta'lim oluvchining qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Fakultativ mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlari. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish keng qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir. Seminar mashg'uloti ta'lim beruvchi rahbarligida o'tkaziladi.

Ekspursiyalar. Noan'anaviy dars shakllaridan biri hisoblangan ekspursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ta'lim oluvchi rejalashtirilgan va o'tkaziladigan barcha ekspursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekspursiya obyektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ekspursovod ish olib boradi;
- ekspursiya muddati turlicha bo'lib, unda doimiy o'quv jadvali talablariga amal qilish mas'uliyati mavjud;
- ta'lim beruvchi yoki ekspursovodning rahbarlik usuli va ta'lim oluvchilar faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekspursiyalar quyidagidek to'rt yo'nalishda uyushtiriladi (2-shakl).

2-shakl. Ekspursiyani uyushtirish yo'nalishlari.

Ekspursiya jarayonlari quyidagi tarkibiy tuzilishlarga ega (3-shakl).



3-shakl. Ekspursiyaning tarkibiy tuzilishi.

Ekspursiya davomida ta'lim oluvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra suhbatlari, matbuot konferensiyasi, telekonferensiyalar muayyan predmet (yo'nalish)ning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, ular ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, ta'lim oluvchining faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. «Viktorina», «Mo'jizalar maydoni», «Zakovat» va shu kabi shakl-da o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, ular ta'lim oluvchilarni faollikka undaydi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib quyidagi xulosani keltirish mumkin:

- ta'limning shakli muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasi bo'lib, ta'lim jarayonida yetakchi o'rin tutadi;
- ta'lim jarayonini samarasini ta'minlash uchun ta'lim metodlaridan o'rinli va unumli foydalanishga bog'liq;
- ta'lim metodi ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarning usullari hisoblanadi;
- ta'lim vositalari ta'lim metodlarining ta'limiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Illyustrativ ta'lim turining mazmun-mohiyati qanday didaktik asoslarga*

tayanadi?

2. *Muammoli ta 'limning asosiy maqsadi nimalardan iborat?*

3. *Dasturlashtirilgan ta'limning asoschisi kim?*

4. *Ta'lim qaysi asoslarga tayanib tashkil etiladi?*

5. *Ma'ruzadan ko'zlangan maqsad nima?*

6. *Seminarning maqsadi nimani ko'zlaydi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
2. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
3. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
4. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
5. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
6. Axmedova M.E Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanma T:2011 "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti 157 b

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.
2. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya. Sovremennaya interpretatsiya. – M., 2001.
3. Xutorskoy A.V. Didakticheskaya evristika. – M., 2003.
4. Xutorskoy A.V. Sovremennaya didaktika. – SPb., 2001.

Fan yo'lida qilinadigan xizmatlarning eng buyugi unga yangi g'oyalarni kiritishdir.

J. Tomson

TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Reja:

1. Ta'lim metodlari va usullari haqida ma'lumot.
2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar.
3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi.
4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari.
5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va ularning turlari.
6. O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Mavzuning maqsadi: Ta'lim oluvchilarni ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish.

Mavzuning vazifalari:

1. Ta'lim metodlari va ularning turlari hamda ularni o'zlashtirishga

bo'lgan turlicha yondashuvlarni bayon qilish.

2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning o'qitish metodlari haqidagi qarashlarini yoritish.

3. Ta'lim metodlarini joriy qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish tamoyillarini bayon qilish.

4. Ta'lim metodlarini takomillashtirishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar berish.

5. Mustaqil ta'lim va uning vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar; ta'lim metodlari, usullar, bilish faoliyati usullari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ilm-fan, texnika-texnologiya, o'quv material, didaktik xarakter, pedagogik nazariya, samarali, zamonaviy, pedagogik qarashlar, irodaviy sifatlar, ilmiy dalillar, sezgi organlari, bilimlarni o'zlashtirish, so'z orqali, ko'rgazmali uzatish, amaliy mehnat, ta'lim metodlari, mashq qildirish metodi, topshiriq berish, didaktik asos, laboratoriya metodi, ta'lim vositalari, o'qitishning asosiy va qo'shimcha vositalari, o'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Beruniy, ibn Sino, Forobiy ta'lim metodlarini faollashtirish haqida, mustaqil ta'lim, faol ta'lim, o'zaro bog'liqlik qonuni, mashq qonuni, intensivlik qonuni, assimlyatsiya qonuni, ta'limni axborotlashtirish qonuni, pedagogik mahorat.

6.1. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'lanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

«Metod» — yunoncha «metodos» - «yoi» degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yolidir.

6.2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim material ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini


umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijo-diy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshanva aniq asoslangan bo'lishi lozim.
3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.
6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'ziashtirish usuli rejalashtirilgan yoki moijailangan natijani berishi kerak.

6.3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisob-ga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchunchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (1-shakl).



1-shakl. Ta'lim metodlari.

Ta'lim metodlari tarkibi.

Ta'lim metodlari tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qituvchi bilimlarni Og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; o'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. Bilimlarni Og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o'qitish metodlari bo'lib, ular vositasida didaktik vazifalar (bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash va sh.k) hal etiladi. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi. Masalan, ma'ruza metodi tarkiban o'qituvshining o'rganilayotgan mavzuni mantiqiy izchillikka, Og'zaki bayon qilishi, o'quvchilarning esa o'quv materiallarini izchil tinglashi kabi metodlardan iborat. Ma'ruza metodidan shu yo'sinda foydalanish o'qituvchining, o'quvchining ham faolligi talablariga, binobarin, ta'limning samaradorligini oshirish ehtiyojlariqa mos kelmaydi. Zero, ma'ruzaning yuqoridagi ko'rinishi faqat bolalar xotirasiga mo'ljallangan. Ma'ruza ham bolalar xotirasiga, ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi. tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

1-variant. Ma'ruzada oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish. Muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish. Ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylanadi. 1-variantda ma'ruza quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: .

O'qitish-metodlari O'qish metodlari

Mavzuga oid muammoni tanlash -muammoni qabul qilish va qo'yish; tahlil qilish; muammoning bajarilishini-muammoni bajarishga oid tahlil qilish; tahlilda faol qatnashish;

muammoning bajarilishi asosida -o'qituvchi tushuntirishlarini o'quv materialini

izchil bayon etish

2-variant. Ma'ruzadan oldin bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, odatdagi muloqot yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni tahlil etish. Bu variantda ma'ruza bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

3-variant. Oldin o'rganilgan bilimlar bilan bugungi Yangi o'quv materiali o'zaro daxldor bo'lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat yo'li bilan o'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasida tabiiy bog'lanish hosil qilinadi. Ma'ruza shu bog'lanishning davomi sifatida o'tkaziladi.

O'quvchi faoliyati -ko'rgazma qurolni tahlil etish;

-qo'yilgan muammo to'g'risida o'ylash;

-o'qituvchi tushuntirishlarini tinglash;

-xulosalarni esda olib qolish;

- bilimlarni o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq qilish.

4-variant. Ko'rsatma qurollarda berilgan omillarni tahlil qilish asosida ma'ruza tashkil etilganda, quyidagicha ko'rinishni oladi.

- O'qituvchi faoliyati ko'rgazma qurolni tahlil ettirish;

- bolalar oldiga muammolar qo'yish;

- qo'yilgan muammo asosida bilim-larni izchil bayon etish;

- xulosalar chiqarish;

- bilimlarni o'quv sharoitlariga tatbiq qilishni tashkil etish;

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'limda hech bir metod sof holda qo'llanilmaydi. har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qitish va o'qish metodlarining bir-biriga mosligi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida didaktik ta'sirning o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sirining samarali amal qilishiga olib keladi.

O'qitish metodlari va o'qish metodlarining bir-biriga muvofiqlashuvi ta'limning ijtimoiy instinktning alohida turi-o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishni ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib, ta'lim metodlarini ikki guruhga ajratamiz; o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari.

Ta'lim metodlarining har bir guruhida o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri qatnashadi. O'zaro ta'sir ishtirok etmaydigan metod ta'lim metodi sanalmaydi. Masalan, o'qituvchi evristik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o'rta tashlay olish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari ta'limda faol ishtirok etishadi. O'qituvchi faolligi o'quvchi faolligini va, o'z navbatida, o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi.

O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari tasnifi.

Og'zaki bayon metodlari. hikoya, tasvir, suhbat, ma'ruza ta'limning bilimlarni Og'zaki baen qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o'quvchilarning xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. hurilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Hikoya. Ta'limning turli bo'g'inlarida qo'llaniladigan universal metodlardan biri hikoyadir. hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi- o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, Yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya- Yangi o'quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materialini mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya-undan darsning oxirida o'rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, texnikum va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materialini xajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z Nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan omillar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida ko'rgazma qurolidagi omillarni tahlil etishga bolalar dihuququhuquqatini tortish, o'qituvchi aytgan qoida, ta'rif, aniqliklarni dars materiallariga chog'ishtirish yo'llari bilan bolalar faolligi oshiriladi. Shuningdek, o'quv materialiga oid terminlarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarador amal qilishini ta'minlaydi.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri diolog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: evristik suhbat; katoxezistik suhbat. Evristik suhbat o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Sokrat mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbatini» ham deb yuritaladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi. Bu metodning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya vaqtini tejash nuqtai nazaridan eng masalador metodlar sanalsa, vaqtini ko'p olishi, evristik suhbatning kamchiligidir.

Evristik suhbatning o'ziga xos tashkiliy hurilishi mavjud. Buni «Ko'chirma gap» mavzusi misolida oydinlashtiramiz:

-darsning mavzusi, maqsadini e'lon qilish (bolalar, hozir siz darak, so'roq, buyruq gaplarning ta'rifini aytib berdingiz. Bugun «ko'chirma gap»ni o'rganamiz. Agar mening savollarimni diqqat bilan tinglab, javob qaytara olsangaz, bugungi mavzuni mustaqil o'rganasiz.);-kuzatish uchun omillar (o'qituvchi bolalarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi; bugun qanday gapni o'rganamiz O'rtog'ingizning men bergan savolga javobini yozing).

Doskaga o'quvchilardan biri «Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz» jumlasini

yozadi. O'qituvchi «Katta bo'lganda kim bo'lmoqchisizhuquq» savolni o'rta tashlaydi. «Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman» gapi ham doskaga yoziladi. Kuzatish uchun Nutqdan quyidagicha gaplar tanlab olinadi:

-Biz bugun ko'chirma gapni o'rganamiz (dedi Odil).

-Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman (dedi Anvar).

Mustaqil xulosalar chiqarish uchun savollar; Kimlarning gapi o'zgarishsiz ishlatiladi, daftarlarga (doskaga) yoziladi? qanday gap deyiladihuquq

-Odil, Anvarning gaplari o'zgarishsiz yoziladi. O'zgarishsiz ishlatilgan gaplarga ko'chirma gap deyiladi.

-o'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosani to'ldiradi, ko'chirma va muallif gaplarining farqlarini, ularning o'rinlari, ishlatiladigan tinish belgilarini izohlaydi. Doskaga yozilgan gaplarni quyidagi shaklga keltiradi:

«Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz», -dedi Odil.

«Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman», -dedi Anvar.

-Chiqarilgan xulosalarni turli o'quv- sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan bilimlar mustahkamlanadi.

Katoxezistik suhbat o'quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo'ljallab o'tkaziladi. O'tkazish maqsadiga ko'ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

Yakunlash suhbat. Bunday suhbatda mashg'ulotda qilingan ishlar bo'yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash suhbat. Yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o'tkaziladi, so'ngra Yangi mavzu intellektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

Takrorlash suhbat. Ikki yoki undan ortiq mavzu bo'yicha o'tkaziladi. Takrorlash yo'li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat. Katta bo'lim o'tilgandan so'ng, o'quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

Kirish suhbat. Yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'tkaziladi. Nazorat suhbat. Bilimlarni sinab ko'rish maqsadida tashkil etiladi.

Bilimlarni Og'zaki bayon etish metodlari, evristik suhbatni hisobga olganda, asosan, xotiraga, binobarin, o'quvchilarning qayta eslash faoliyatiga mo'ljallab tashkil etiladi. hikoya, tasvir, ma'ruza, suhbat metodlarining zaif tomoni ham shunda. Ularning zaif tomonlarini bartaraf etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish uchun quyidagi rag'batlantiruvchi metodlardan foydalaniladi:

1. Qiziqarli o'quv holatlari yaratish-qiziqarli o'quv holatlari bolalarda turli emotsiyalarni uyg'otadi. Fizikadan «Fizika va hayot», «Ertaklarda fizika», kimyoda «Mo'jizasiz mo'jizalar», matematikadan «qiziqarli matematika», «Ajoyib raqamlar», «Sirli raqamlar»ga oid omillarni, hodisalarni ta'limga olib kirish bolalarda bilimlarning qiziqishlarini oshiradi.

2. Badiiy, ilmiy-ommabop, tarixiy asarlardan olingan omillarni keltirish, ularni tahlil etish ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi.

3. Ma'ruza, hikoya, tasvir, suhbat jarayonida analogiya metodidan foydalanish. Masalan, fizikadan ultra binafsha nurlar (quyosh nurining yetti xil elementdan iboratligi), lokatsiya hodisasini ko'rshapalak misolida izohlash, bolalarda o'quv faniga, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

4. Fan tarixida ekskursiya ham bolalarning o'quv-biluv faoliyati

samaradorligini oshirish vositasi sanaladi. Ona tilidan utyug, karandash kabi so'zlarning o'zbek tilidan rus tiliga o'g'ganligi, tomosha (tomdan oshib qarash), kengash (katta osh) so'zlarining ma'nosini izohlash, bolalar faolligini oshiradi.

5. Kundalik turmushda ishtirok etish yo'li bilan hosil qilingan tajriba va ilmiy bilimlarni o'zaro taqqoslash ham bolalarda o'quv biluv faoliyatiga havasni oshiradi. Shunday qilib, bilimlarni Og'zaki bayon qilish, metodlari bilan rag'batlantiruvchi metodardan parallel foydalanish o'quv tarbiya ishlarining samaradorligini oshiradi.

Ko'rgazmali metodlar.

Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illyustratsiya metodi Og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga dihuququhuqatni tortish.

Demonstratsiya metodi-kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor eshittirishlaridan, videotasvirdardan foydalanib, kinolentalarni, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar-narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshittish va ko'rish o'quvlarini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni Og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanshp ta'limning samaradorligini oshiradi.

Muammoli izlanish metodlari.

Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
- turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;	- muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
- farazlarni aytishni taklif etish;	- muammoni hal etishga oid farazlarni aytish;
- farazlardan tanlangan muammoni mosini bajarishga tatbiq etishni so'rash;	- tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish;
- xulosalar chiqarishga ko'maklashish;	- xulosalar chiqarish;
- chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish;	-xulosalarni amaliyotga tatbiq etish;

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazma qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli-izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya-o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya

davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'lidir.

Muammoli ma'ruza-ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishishdir. O'quv materialining asosiy qismini ma'ruza vositasida, nisbatan oson qismini topshiriqlarni bajarish, muammolarni qo'yish yo'li bilan ham o'rgansa bo'ladi.

Keyingi paytlarda maktablarda muammoli amaliy ishlar, masalan, optikadan laboratoriya ishi, ilmiy tadqiqot ishlari (tarixiy materiallarni tasnif etish, u yoki bu geografik tumanga tabiiy va iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan tasnif yozish) keng o'rin olmoqda. Bular bolalarbop eksperimental (sinov) tadqiqot metodlaridir. Ko'rinadiki, muammoli-izlanish metodlari bilimlarni Og'zaki bayon etish, ko'rgazmali metodlar bilan birga qo'shib olib borilganda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Mustaqil ishlash metodlari

Mustaqilishlar ta'limning turli guruhleri, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. hozirgi paytda mustaqilishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi qoidalar va ta'riflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid omillarni ajratish; o'qituvchi bergan, o'qituvchi topshiriqiga ko'ra to'plagan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim betlarini tanlab o'qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'llari to'g'risida qisqacha xisobot tayyorlash; qoida, ta'riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga izoh yozish; darslik, o'quv qo'llanmalarni va qo'shimcha adabiyotlardan o'rganilgan mavzu doirasida omil to'plash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'rif aniqliklariga solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlar asosida musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diogramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish rejasini tuzish.

Mashg'ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo'lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik o'yinlar metodi.

Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni Og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo'llaniladi. Shu xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Stimulyativ o'yin-ta'limni hayotda bo'lib o'tgani ijtimoiy voqealarga

tenglashtirish, ularga muqoyasa qilib tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o'yindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir o'qituvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar rovida ishtirok etadi, shu yo'l bilan ta'lim bo'lib o'tgan tarixiy voqeaga muqoyasa qilib tashkil etiladi.

Stimulyativ o'yinlarning bir ko'rinishi instsenirovka (rollarga ajratib o'qish) metodidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy mantlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o'qtish an'anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot o'qituvchilari «Tuya bilan bo'taloq» asarini o'qitganda bir o'quvchi yozuvchi ikkinchi o'quvchi tuya, uchinchi esa bo'taloq so'zlarini o'qib ta'limda ishtirok etishadi.

Stimulyativ o'yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o'z o'rnini olib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi.

Amaliy metodlar.

Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Laboratoriya tajribasi amaliy metod bo'lib, ular turli ko'rinishlarga ega: kimyodan va boshqa tabiiy o'quv fanlaridan yoppasiga laboratoriya mashg'uloti, fizikadan o'quv praktikumi, yoppasiga kuzatish kabi ish turlari mashg'ulotning bir qismini oladi, ba'zan ularga bir necha o'quv soatlari ajratiladi.

O'quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg'ich, sirkul va sh.j.dan foydalanib qirqish, o'lchash kabi ishlarni bajaradi.

Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o'quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari sanaladi.

Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq-o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar-inteluktual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo'yicha) va umumiy (masalan, barcha o'quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

Mashq o'quv topshiriqlari asosida o'tkaziladi. Uni bajarishda quyidagicha bosqichlarga rioya qilinadi.

1-bosqich: mashqni bajarishda foydalaniladigan bilim, faoliyat metodlarini esga tushirish. Bilimlarni esga tushirish bu xotiraning oddiygina ishi emas. Bu jarayon topshiriqni bajarishga oid bilimni esga tushirish, uni bilimlar orasidan ajratib olish, ajratilgan bilimni tahlil etish, uni o'quv sharoitiga tatbiq etishni tasavvur qilish kabi aqliy ishlarni taqazo etadi.

2-bosqich: Ajratilgan bilimni, faoliyat metodini mashqda berilgan holatga tatbiq etish. Bilimni, faoliyat metodini tatbiq etish jarayonida o'rganilgan bilimlar ongda mustahkamlanadi, malakalar takomillashadi.

3-bosqich: Bu bosqichda topshiriqning bajarilishi tekshiriladi, mashq qilish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar baholanadi, mashq qilish asosida xulosalar chiqariladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan to'g'ri ta'lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.


Ta'limning ko'rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foy-dalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan iJmiy bilim-larni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tav-sifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollan-tirishda muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya metodi o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha turlarga va shakllarga bo'linadi (1-shakl):



1-shakl. Laboratoriya mashg'ulotlarining turlari va shakllari.

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O'qitishning asosiy vositalari - bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari. O'qitishning qo'shimcha vositalari - bu ta'lim

oluvchilardagi bilim, ko'nikma va raalakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalari; tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalar. O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari — bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

6.4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari

Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta'lim metodlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari, amal qilgan ta'lim yo'nalishlarida yaqqol sezish mumkin. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'zigacha boigan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Barcha mutafakkirlar kabi u ham ko'rgazma-tajriba metodlari, savol-javob metodlari, mala-ka va ko'nikmalarai shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalanilgan. Al-Xorazmiy matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara oldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri - «0» (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- * bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak - bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri;
- uzviylik va izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- takrorlash;
- materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'ymaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanil-masin-u og'zaki ifodalash,

bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinishdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boigan.

6.5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'liashning o'ziga xos xususiyatiari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yoilari. Mustaqil ish va uning turlari

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materi-alini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi. Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasi-ni bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qoiga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi.

Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-rnunuzara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni arna-liyotga joriy etish va hokazo. Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

• Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi;

• Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni.

Bu qonunbo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirishjarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish, faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish

kabi qobiliyatlar hisobga olinadi;

Ta'limda ematsion sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi;

•Ta'limni axborotlashtirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

•o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;

•ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar orttiriladi;

•ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi;

•ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish;

• axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishini hisobga olish;

•zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning muntazam ravishda ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa, bashoratli, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;

•beshta muhim masalalarni hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish asosida ta'lim olishni engillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash; mamlakatning iqtisodiy imkoniyati (quvvati) o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash;

•Ta'limda mustaqillik qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish asosida ularda ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlarini ishlab chiqiladi. Professorlar R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unovlarning qayd etilgan shicha mustaqil ta'lim - bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati aso-siy rol o'ynaydi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-

hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlar-ni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatadi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim — bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

6. 6. O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Pedagogik mahorat — ta'lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukam-mal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va zarur bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;
- dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tez da dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;
- o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;
- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Bunga sabab ta'limda mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri va ta'lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta'lim jarayonning holatiga mos ular uyg'unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi:

Ta'lim tamoyillari.

Bu o'qish va o'qitish jarayonida obyektivmavjud bo'lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan vata'lim jarayonida amal qilishga tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir. Pedagogik yondashuv bu ta'lim-tarbiyadagi o'zaro bog'liqlik. Tarkibiy va

tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi pedagogik faoliyatdir. Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo'llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo'ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyada keng qo'llanilishi bilan texnologik yondashuvga e'tibor kuchaymoqda.

Texnologik yondashuv - bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash; o'quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta'lim oluvchilarni ularning xatti-harakatlari asosida o'qitish; teskari (qaytma) aloqa; bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlash; o'qitishning samaradorligi-ga erishish.

Pedagogik qobiliyat - bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos boigan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan darajadir.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim metodlarini va usullarini zamonaviylashtirish haqidagi fikrlaringiz bo'yicha referat tayyorlang.
2. «Didaktika»ni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida takomillashtirish qanday hal etiladi?
3. Zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishdagi ta'limiy afzalliklarni sanab bering.
4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlarining qaysilaridan hozirda ham samarali foydalanilganligini asoslab berishga harakat qiling.
5. Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga nima uchun e'tibor beramiz va bu ularning intellektual salohiyatini yuksalib borishidagi ahamiyati bormi? Agar bo'lsa, aniq dalillar asosida bayon qilib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
8. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

Barkamollikka erishgan odam barcha jonzotlardan
yuqori turadi, ammo agar u qonunlar va adolatga
bo'y-sunmay yashasa, hammasidan tubandir.

Arastu

TA'LIMNI TASHXIS ETISH

Reja:

1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar.
2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoiyatini baholashning uyg'unligi.
3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli.
4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar.
5. O'quvchilar bilimni tashxis qilish didaktik tushuncha sifatida
6. O'quv faoliyatini nazorat qilish va baholashda o'quvchilarning ruhiy holatini hisobga olish

Mavzuning maqsadi: ta'lim oluvchilarni o'z bilimlarini tashxis qilish orqali o'z intellektual salohiyatlarini bashorat qilish va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish.

Mavzuning vazifalari:

1. Ta'limni o'zlashtirish natijasi nima uchun kerakligini asoslash va u orqali ta'limda rejalashtirishning zaruriyligini bayon qilish.
2. Baholash mezonlari va ulardan amaliyotda foydalanishning ahamiyatini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
3. Ta'lim natijalarini rasmiylashtirish jarayonidagi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining uyg'unligini yoritish.
4. Ta'lim natijalarini hisobga olishda reyting tizimining joriy etilishini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

5. Ta'lim natijalarini baholash mezonlari va ularning amaliy ahamiyatlarini baholashni ta'lim oluvchilarga o'rgatish.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: bilim, o'zlashtirilgan bilimlar, baholash, mezon, test, boshqarish, ta'lim natijalari.

7.1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga quyilgan talablar

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqti-da belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning *maqsadi* o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlar-ni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Nazorat -(ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa *tekshirish* deb ataladi. O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida talabalar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Baholash va uning o'ziga xosliklari

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifa-tida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. *Baholash* deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lcha-gich)lar bilan solishtirishni aytamiz. *Baho* deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bi-lan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashti-rish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi $B'A/T*100\%$ nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Hisobga olish va uning o'ziga xosliklari

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda talabalarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisob-ga olib borishi kerak. *Hisobga olish* – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, talaba ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish talabalarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. SHuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari

Xolislik (ob'ektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagog-ning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta'lim jarayoni-ning barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish o'ta muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida egallanishi lozim bo'lgan nazariy materiallar bo'yicha olinayotgan bilimlarni yanada mukammallashtirish va eng asosiysi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirish uchun turli vositalarni tanlash imkoni vujudga keladi.

Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari - o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) top-shiriqlar, savollar, test-savollar va shu kabilar va ulardan foydalanish vositalaridir. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalarni o'zlashtirish - bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan, ya'ni iste'mol uchun tayyorlash-dan iboratdir. Bunda ta'lim beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyalarga ega:

1. **Nazoratning diagnostik funksiyasi.** Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.
2. Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga boigan ishtiyoqini o'stirish funksiyasi.
3. Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi, rivojlantiriladi. '
4. Ta'lim funksiyasi.
5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi.
6. **Nazoratning baholash funksiyasi.**
7. Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni uyg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi, ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor. Nazorat testlar, yozma ishlar va og'zaki savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash;
- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish;
- hamma ta'lim oluvchilarda bir xil sharoit yaratish;
- test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan (operativ) tekshirish;
- turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish;
- ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va boshqalar.

Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda keng foydalanilmoqda.

Test — biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir. Test to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. Umuman olganda, test so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildiradi, ya'ni «sinalayotgan shaxsning psixo-xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar», demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni

tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;

• real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

1. Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.

a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin). Bu holatlarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi: marketing-moliya; menejment; soliqlar kabi integrativ bilimlar va hokazo.

2. Me'yoriy test tuzishning umumiy yo'nalishi bo'yicha maqsadli yoki kriterial (mezonli) xarakterdagi testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra, bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa bir-biri bilan solishtirish mumkin. Mezonli testlarda esa har bir ta'lim oluvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini yechish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni mezonli testlar va unga mos topshiriqlar ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Me'yoriy testlarning kamchiligi ta'lim oluvchi keyingi bos-qichga o'tishga qay darajada tayyor ekanligini belgilab bermasligida ko'zga tashlanadi.

Mezonlarga ko'ra testdan o'tkazishda natijalar o'zgarmas, *do-miy standartlar* bilan solishtiriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini berish uchun talabgoming bilimi mavjud standart bilan solishtirilishi kerak. Uni boshqa soha xodimining qobiliyatlari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Standartlashtirilgan testlar ma'lum standart talablari qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi. Ularning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi hamda tashxislovchi turlari mavjud.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'chaydigan standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimi qo'llanilishi mumkin.

Tashxislovchi testlar ta'limdagi muammolarni belgilab olish uchun individual ravishda qo'llaniladi.

3) Testlarning didaktik-psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi:

a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;

b) berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;

d) o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning sikli bo'yicha o'quv

imkoniyatlarning diagnostikasi).

4)Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:

- a)kirish nazorati (oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan bo'limini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);
- b)kundalik Ooriy) nazorat - bu har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha o'tkaziladigan nazorat;
- d)oralik nazorat — bu muayyan fanning alohida bo'lishi tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat;
- e)yakuniy nazorat - bu ma'lum kurs (fan)ning tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat.

5) Testlashtirishning diagnostik (tashxislanganlik) darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad:

- a) simptomatik diagnostikaga, ya'ni bilim va o'zlashtirishning «yuqori qatlamlariga» qaratilishi (ya'ni, ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar);
- b) etilologiya diagnostikaga, tekshiruv-alloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi)ga qaratilishi;
- d) tipologiya diagnostikada esa ta'lim oluvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o'zlashtirish va uddalay olishida qanday g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

6)Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishga esa yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma va og'zaki javoblarni qo'llash. Masalan, harakat testlarida, ayniqsa, kompyuter tugmachalarini bosishdan tortib, dasturlar yoki qism dasturlarni chiqarishgacha hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihashtirish kabilarda.

Testning gomogenlik darajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan:

- a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlar ichidan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) asosiy omillarni hisobga olish;
- b) shakllantirilgan testda topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishi.

8)Vaqt omili — testning tezkor bo'lishi, topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligi: qaysi yoi bilan, nimaga asoslanib vaqtni, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishi.

9)Testlashtirishni tashkii etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma-yuz, xolis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

7.2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirii-gining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlan-gan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'rsida»gi Nizomda shunday deb ta'kidlanadi: «Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
- talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;
- fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkii etish va tahlil qilish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalarida samarali foydalanishni tashkii etish;
- talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natija-larini vaqtida ma'lum qilish;
- talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzJuksiz tayyorgarligini ta'minlash;
- o'quv jarayonining tashkiliyishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish».

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida 'ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash; mavzuni o'zlashtirishni joriy tekshirish; bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganJigi-ning takroriy tekshirish; yaxlit bo'lib yoki kursning alohida mavzu-si bo'yicha davriy tekshirish; ta'lim jarayonining barcha bosqichla-rida egatlangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olish.

7.3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxissiz didaktik jarayonni samara-li boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Bunga sabab ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Tashxislash, nazorat, tekshirish, baholash, statistikma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni (an'analarni) aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat boimasligi lozim.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari

Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolis (obyektiv)lik, tizimli (sistemali)lik, ko'rgazmali (oshkora)lik sanaladi. *Xolis (obyektivlik)* tashxis test (topshiriq, savol)lari, tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimli (sistemali)lik tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha boigan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko'rgazmali (oshkora)lik tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir ta'lim oluvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalash-ni talab etadi. Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda.

Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash (tizimlashtirish, sinflash), bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati ta'lim oluvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Reyting nazoratida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- bilim natijalarining ta'lim beruvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- barcha ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

7.4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida)ni ham oladi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan eta-Ion (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni ayta-miz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchanishiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlana-di. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmazlik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholash harflarda (A, B, C, D va hokazo) ifodalanadi. Bahoni

amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi $B = \frac{B}{T} \cdot 100\%$ — 100% T - nisbat asosida hisoblanadi. Bunda: B - o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi; A - amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi; T - o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi. Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 % - axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 % - uning umuman mav-jud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho - pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxs-ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, ta'lim oluvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois baho-ning ahamiyati, vazifalarining xilmailligi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi. To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

- * har bir yakunlangan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;

- o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

- ta'lim oluvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda ta'lim beruvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi.

O'qitish vazifasi ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda ta'lim oluvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki, guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar javob berayotgan ta'lim oluvchining fikrini diqqat bilan tinglashadi va avval egallagan bilimlarini mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning tarbiyaviy vazifasi shundan iboratki, ta'lim oluvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh

vaqtlaridan umumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarni tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'zo'zidan nazoratning *rivojlantiruvchi vazifasi* sanaladi. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholash turlari va mezonlari. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mav-zu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhda-gi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasigatayangan holda belgilanadi. Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom»ga oid nazorat turlari quyidagicha: Joriy nazorat (JN);Oraliq nazorat (ON);Yakuniy nazorat (YaN). Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Joriy nazorat - talabani fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat - semestr davomida o'quv dasturining tegish-li (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugullangan-dan keyin talabani bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat, asosan, tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiy oliy ta'lim muassasalarida uchun «Yozma ish» yoki OTKS (obyektiv tizimlashtirilgan klinika sinov) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususi-yatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40 % faniardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin. Talabani fan bo'yicha mustaqil ishi JN, ON hamda YaN turlarida baholanadi. Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. Har bir fan bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: YaN - 30 ball; JN va ON - 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlari-ga taqsimlanadi). Talabani fan

bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish-da quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- * mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qoilyay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

-<

Quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi (qoniqarsiz) 0—54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Shuningdek, 86-100 ball - «a'lo», 71-85 ball - «yaxshi», 55-70 ball - «qoniqarli», 0-54 ball - «qoniqarsiz» baho deb baholanadi.

Talabanning fan bo'yicha bir semestrdaqi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yerda:

V— semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlar-da);

O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi, aksincha, 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi. Biz barcha uchun umumiy bo'lgan quyidagi amallarni talabalar bilan bajarishni tavsiya etamiz:

- fan o'qituvchisi semestr davomida o'qitiladigan fanni soatlar taqsimotini aniq bilish lozim;
- talabalarga birinchi mashg'ulotdayoq baholash turlariga daxldor ballar miqdorini berishi shart;
- JN har bir juftligiga beriladigan ball miqdori talabanning quyidagi harakatlari uchun beriladi: mashg'ulotga qatnashish va faol ishti-roki; topshirilgan topshiriqni bajarilganlik darajasi; daftar tutishi va imloviy xatolarga e'tibor qaratilishi, olingan natijalarni ilmiy va izchil asoslay olishi, hozirjavobligi, topqirligi va ijodiy fikrlar bilan qatna-shishi;
- Oraliq nazoratga ajratilgan ball miqdorini talaba darsga doimiy

faol qatnashishi hamda bosqichlarda bajaradigan ishlarning natijasiga ko'ra to'playdi. ONda bajariladigan ishlar: savolnomalarga yozma javob berish, test savollarini yechish, alohida bob yoki mavzularni mustaqil ish tarzida test savollari, boshqotirmalari yoki rebuslar tuzish, ayrim mavzulardan referatlar yozish yoki mavzulardan og'zaki savol-javob qilish kabilardir.

• YaNga Nizom bo'yicha ajratilgan 30 ballga moslab, semestr oxirida mustaqil ish topshiradi hamda tayanch tushunchalarga asoslangan variantlar tuzilib, talaba o'z variantiga javob tarzida «yozma ish» yozadi. YaNdagi ballar miqdori yozma ishning quyidagi holatlari uchun beriladi: variant savollariga yozilgan javobning mukammalligi, talabaning savodli va ilmiy tilda bayon etishdagi e'tibori, fikr-mulohazalarining asosli va mantiqli ekanligi, daftarni tutish va jihozlash tartibiga rioya qilinganligi, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlarni keltirilishi kabilardir. Umuman, reyting tizimi quyidagicha vazifalarni bajarishga qara-tilganligini unutmashimiz lozim:

- fanning talaba tomonidan tizimli tarzda belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil qilish;
- talaba o'zlashtirishini muntazam baholab borish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;
- talabaning bilimni adolatli va aniq baholash;
- baholash natijalarini muntazam ma'lum qilish va tahlil qilish;
- professor-o'qituvchilarning bir darsga va baholash jarayoniga mas'uliyatini oshirish;
- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Yuqorida keltirganlirimizdan ko'rinadiki, bilimga baho qo'yish bitta mashg'ulotning barcha qismlariga singib ketishi bilan birga, butun fanning mazmunidan ham xabardor bo'lishni taqozo etadi. Bu esa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy ijodiy munosabatni amalga oshirishni talab etadi. Ular o'tilgan materiallarni qaytarish, yangi materiallarni tushunish uchun zamin ekanligini tushunib yetadilar, barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga faollik ko'rsata boshlaydilar. Talabalarni JN, ON va YaNlar bilan baholar ekanmiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki, fan ta'lim beruvchisi talabalarning semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq hisobga olib bormasa va natijaviy bahoni chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, ulardir qo'yilgan bahoning to'g'riligiga shubha tug'ilishi mumkin.

Ko'rinadiki, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari nig'oyatda rang-barangdir. hozirgi paytda testlar, dasturlashtirilgan materiallar vositasida nazorat qilish respublikamiz o'qituvchilar tajribasida keng o'rin olmoqda.

Test nima? Test berilgan alternativ javoblardan to'g'risini tanlashga oid nazorat topshiriqidir. O'quv fani bo'yicha tuziladigan nazorat testlari, boshqa o'quv topshiriqlariga o'xshab, to'rt xil elementlardan tarkib topadi; mazmun, maqsad, funktsiya, metod. Boshqacha aytganda, test ma'lum o'quv materiali

asosida tuziladi, bilimlarni nazorat qilish maqsadiga qaratiladi, faoliyatda bilimlarni tekshirish vazifasini bajaradi, berilgan javoblardan to'g'risini yoki eng to'g'risini ajratish metodi bilan bajariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida»gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro'yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog'lanish mavjud: testlarni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

Testshunoslik batafsil bayon etilishi zarur bo'lgan alohida soha ekanligi va shu bilan birga test topshiriqlari pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalangan tashhislanuvchi o'quv jarayonini amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini ham e'tiborga olib, bu bo'limda testshunoslik tarixi (J. Fisher, F. Gamelton, CH. Grim, CH. Rassel), test usulining afzalliklari, test shakllari va ularni tuzishga oid didaktik talablar haqida ixcham ma'lumot beriladi.

1. Test shakllari va ulardan foydalanish.

Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari

Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog e. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik uslublar ham qo'llashni taqozo qildi. Bunday uslublar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalarini rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda ta'sirga javob berish vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Talabalar bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruxlarga ajratishga ham urinib ko'rilgan. CH.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi [6]:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;
- talabalarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;
- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'ri-ligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;
- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

CH.Rassel test sinovlarining natijalarini o'rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi to'g'risidagi savolga javob berishga erishdi. Rasselning fikricha, test sinovlarining maqsadi talabalarning bilimlarini baholash yoki ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi va testlarni quyidagi xollarda: qaysi materialdan boshlab o'rganish zarurligini ta'minlashda; talabalarni guruxlarga taqsimlashda; o'qitish jarayonida sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni oldindan aniqlashda; shuningdek, mamlakatning turli hududlaridagi o'quv yurtlarida muayyan yosh davridagi yoshdagi talabalarning yutuqlarini taqqoslashda qo'llash mumkin.

SHuni ta'kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assotsiatsiyasining test sinovi o'tkazmasdan ta'lim berish mantiqsizlikdir, faqat testni qo'llash natijasidagina nazoratdan ta'limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va so'ngra qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin, degan fikrlari ma'lumdir. Frantsiya parlamenti 1989 yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda xususan, talabalar bilimini xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992 yildan boshlab Frantsiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. SHunisi qiziqki, Frantsiya to'qson yillik test an'analariga ega bo'lgan davlatdir.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida Pitterburgdagi Karnegi-Melon universitetining bir guruh sotsial-psixologlari AQSHda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi o'quv yurtlaridagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi. Bu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: test sinovi Amerika hayotida chuqur ildiz otgan, hech kim Amerika maktablarida turli

xildagi standartlashtirilgan test bo'yicha sinovdan o'tmasdan, boshqacha yo'l bilan bilim olishni davom ettira olmaydi, ishga joylashish, keyinchalik esa yuqori lavozimga ko'tarilish yoki malaka oshirish test bilan chambarchas bog'lanib ketganligi alohida qayd qilindi. Tadqiqotda amerikaliklarni testlarga bu qadar moyilliklarining uchta sabablari keltirildi:

a) inson omilidan imkon boricha samarali tarzda xizmat manfaatlari nuqtai nazaridan foydalanish;

b) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar iste'dodlarni taqdirlashga intilish;

v) amerikaliklarni milliy ta'lim standartlarni joriy etish uchun intilishlari.

Inson erishgan yutuqlarni xolisona baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorini vujudga keltirdi.

AQSHda to'rt yuzdan ortiq markaz o'zaro raqobat ostida turli-tuman testlarni ishlab chiqmoqdalar. SHuningdek, testlarni tuzish va ularni qo'llash bo'yicha yaxshi mutaxassisliklar yuqori darajada qadr topganlar. 1992 yilda ular AQSHdagi eng nufuzli 20 ta faoliyat yo'nalishlari ro'yxatida 8-o'rinni egallaganlar. O'ta qadrlanadigan tizimlar bo'yicha tahlil, marketing, sog'liqni saqlash, ekologiya, oziq-ovqat maxsulotlarini taqsimlash va komp'yuter texnologiyasi ixtisosliklari esa, tegishli tarzda 15-20-o'rinlarga joylashtirilgan.

Sobiq Ittifoq davrida testlarga asoslangan fan pedagogiya deb yuritildi va testlardan foydalanishning dastlabki davrida jiddiy xatoliklarga hamda buzilishlarga yo'l qo'yildi. 1936 yildagi VKP(b) MKning «Xalq maorif komissarligi tizimidagi pedagogik buzilishlar to'g'risida»gi qarorida testlar «burjua» pedagogikasiga xos deb hisoblandi. Bu qaror fanni mafkuraviylashtirishga va uni majburan siyosiyashtirishga qaratilgan bo'lib, unda jahon psixologiyasi va pedagogikasi tajribasidan foydalanish inkor qilingan edi. Bu qarorga binoan, 1936 yildan testshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davlat miqyosida to'xtatildi. Pedagogiyaning «idealistik va mexanistik» ko'rsatmalari, ularni «ilmiy asoslanmagan» «test»larga berilib ketganligi qoralandi. Pedagogiyani soxta fan sifatida qoralash jarayonida sovet pedagoglari va psixologlarining talabalar bilim-ko'nikmalarini baholashga qaratilgan ijobiy yutuqlari ham inkor etildi. SHuning uchun test sinovlari muammosi pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda uzoq vaqt aks ettirilmadi. YUqorida ta'kidlaganidek, mustaqil O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, 1993 yildan testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berildi. Pedagogik testlar keng miqyosda, dastlab o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanila boshlandi. Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, o'lchovlar nazariyasi, matematik statistika, matematika, axborot nazariyasi; kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. SHuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida etirof etilmoqda. Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. SHuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me'yor bo'lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileti o'zida nazorat qilinadigan o'quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);
- hamma talabalar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;
- talabalar bilimiga haqqoniy baho berish mezoni oshadi;
- test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida, talabalar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi (reyting);
- o'qituvchi talabalar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;
- boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lchashga sharoit yaratiladi;

• test nazorati komp'terlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda, test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o'qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQSHda munosib baholangan. Abiturient (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llash bo'yicha AQSH tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan.

Sifatli test topshiriqlarini tuzishning qiyinligi, testni keng joriy etishni murakkablashtiradi. Bu ish yuqori pedagogik malaka va tajriba talab etadi. SHuning uchun ham, AQSHda testning yuqori sifatini ta'minlash uchun pedagogik testlashning maxsus xizmati (PTX) tashkil kilingan [2; 3.] Bu tashkilot test o'tkazish amaliyotini umumlashtirish va ommalashtirish, standartlashtirilgan testlar yaratish, test o'tkazishning yagona qoidalari va test ishlab chiqish usullarini takomillashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogik testlash xizmati (PTX) Prinстон universitetida joylashgan, unda 2300 nafar kishi, shu jumladan, 250 nafar falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistik va psixologik uslublar, kasb tanlash bo'yicha fan doktorlari, shuningdek, turli fanlar bo'yicha fan doktorlari, 200 nafar magistr, har xil fanlar bo'yicha o'qituvchilar xizmat qiladi. Testlar eHMda ishlanadi va sinaladi. Mamlakatda pedagogik testlash xizmatiga bo'ysunadigan 5000 test shaxobchalari mavjud. Test o'tkazish uchun Prinстон markazi 53 ishonchli shaxslarga (odatda test o'tkaziladigan o'quv yurtlari pedagoglariga) test materiallari va test o'tkazish bo'yicha yo'llanmalar yuboradi.

Bu misoldan ma'lumki, testlashni samarali o'tkazish pedagogik testlarning maxsus rivojlangan xizmati, keng quloch yoyilgan tarmoq punktlari, testlar bo'yicha nazariya va amaliyotni o'zida aks ettiradigan katta hajmdagi adabiyotlar mavjudligiga bog'liq.

Ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy metodlarini tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgartishlar kiritadi. O'quvchi-yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq kamchiliklarini rag'batlantirish, tuzatish tarbiya mazmun metodlari va tashkiliy shakllarini

yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish . O'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga egadir. SHu bilan birga, nazorat v baholash jarayonini o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday tassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim va muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba'zan-ba'zan tasodifan tekshirishlarni oldini oladi va tartibli, doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligini nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki rux, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. SHuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, metod va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. SHu boisdan ham, «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamalari qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

Vaqtga ko'ra nazorat metodlari

O'zaro ta'sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtai nazaridan uch turli bo'ladi. Joriy nazorat-har bir darsda uzoq va yaqindan o'tilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini tekshirish demakdir.

Unda nazorat savollar berish, qoidalar, ta'riflarga oid ma'lumotlar keltirish, berilgan materiallarni tahlil etish, mavzularning mazmunini ochib berish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish kabi metodlardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi.

Oraliq nazorat-o'quv fanining bir bo'limi, katta qismi o'tib bo'lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o'quv soati ajratiladi. Oraliq nazoratda o'rganilgan bo'lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o'quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o'tkaziladi. Savollar, o'quv topshiriqlar tizimi, uzoq muddatli munozara, og'zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi.

YAkuniy - nazorat - o'quv fani to'liq o'rganilgach, chorak oxirida, o'quv yili so'ngida tashkil etiladi. Unda o'quv fani mazmunini o'ziga to'liq qamrab

oladigan metodlardan foydalaniladi. O'quv fani doirasida qo'llangan termin va tushunchalarga (og'zaki yoki yozma) izoh yozish, o'quv faniga oid etakchi g'oyalarni hayotga, ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq etish, o'quv fanining inson hayotida tutgan o'rnini baholash, o'quv fani doirasida o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlariga o'z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

O'quvchilar miqdoriga ko'ra nazorat metodlari

O'quvchilar miqoriga ko'ra nazoratning uch xil ko'rinishi farqlanadi: individual tekshirish-alohida o'quvchiga mo'ljallangan nazoratdir. A'lochi o'quvchiga mo'ljallangan o'quv topshirig'i o'rtacha tayyogarlikka ega bo'lgan bola uchun qiyin bo'lganidek, o'rta o'zlashtiradigan o'quvchi uchun tuzilgan o'quv topshirig'i a'lochi o'quvchi uchun juda ko'p sanaladi. Ko'rinadiki, individual nazorat har bir o'quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayerlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg'uloti va shu kabilarning bajaruvchisi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

Tabaqalashgan nazorat-sinf jamoasini bilim, malakalarni o'zlashtirish darajasi, real bilish imkoniyatlariga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o'tkazishdir. Sinf o'quvchilari, ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori o'zlashtiruvchi bolalar o'ta murakkab, yaxshi o'qiydigan o'quvchilar jamoasi nisbatan oson, past o'zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajaradi.

Yalpi nazorat- sinf jamoasining barchasiga mo'ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant Shunday metodlar sirasiga kiradi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim jarayonlarini tekshirishning baholash jarayonlariga ta'siri haqidagi amaliy-ta'limiy faoliyatlardan misollar keltiring va ular orasidagi uyg'unlikka e'tibor berishning ta'limiy afzalliklaridan sanab bering.
2. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha referat tayyorlang.
3. Nazorat funksiyalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha tavsifnomalar tayyorlang.
4. Didaktik testlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida referat tayyorlang.
5. Me'yoriy va mezonli testlarning qollanilish sohalari to'g'risida referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "SHarq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y

O'RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quv rejalari. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'lanmalar tavsiflari va ularni yaratishga yangicha yondashuv
2. Elektron o'quv adabiyotlari va ularni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar.
3. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo'lash
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish

Mavzuning maqsadi: ta'lim mazmuni va unga qo'yilgan zamonaviy talablar hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT)da ularga e'tibor, shuningdek, O'MKHT tizimining me'yoriy va metodologik asoslarini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

Mavzuning vazifalari:

1. Ixtisoslashgan ilmiy tashkilotlar va yangi nomdagi fanlarning paydo bo'lishi hamda ular mazmuniga qo'yilgan talablarni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
 2. Ta'lim oluvchilarga kompyuterning ikki muhim xususiyati to'g'risida ma'lumot berish.
 3. Nazariya va amaliyot integratsiyasida ta'lim mazmunining roli va o'rnini yoritish.
 4. Zamonaviy ta'lim mazmunining me'yoriy va huquqiy asoslari haqida ta'lim oluvchilarga ma'lumot berish.
 5. Ta'lim mazmuni tamoyillari va ulardan amaliyo faoliyatda foydalanish mexanizmini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
 6. Ta'limni insonparvarlashtirishda «o'z-o'zingni angla» tamoyiliga amal qilinishining mazmun-mohiyatini yoritish.
 7. Bo'ijak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda o'quv rejadagi fanlar bloklari aloqadorligining ahamiyati.
 8. O'quv rejalari va dasturlari hamda o'quv adabiyotlarni yaratishga yangicha yondashuv qilish ahamiyati.
 9. Elektron o'quv adabiyotlar avlodini yaratish texnologiyasini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
 10. O'quv-me'yoriy hujjatlar va o'quv adabiyotlaridan ijodiy foydalanishga yo'lanma berish.
 11. Zamonaviy darsliklarning asosiy funksiyalari ta'lim oluvchilar ongiga singirish.
- Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Ilmiy-texnika, ta'lim mazmuni, ixtisoslashgan ilmiy kengashlar, kibernetika, informatika, geofizika, bionetika, matematik mingvistika, ehtimollar nazariyasi, ergonomika, texnik estetika, kompyuter-lashtirish, kompyuterli tizimlar, «Fan—>ta'lim—>amaliyot», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», DTS, Kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar kollejlari, ta'lim mazmuni

tamoyilla-ri, ta'limni insonparvarlashtirish, ijtimoiy tajribalar, umumta'lim fan-lari, ijtimoiy fanlar, mutaxassislik fanlari, o'quv fanlari bloki, ixti-soslik (mutaxassislik) fanlari bloki, o'quv amaliyoti bloki, kollej ixti-yoridagi soatlar bloki, o'quv reja, o'quv fani dasturi, darslik, o'quv qo'llanma, elektron kitoblar, darslikning asosiy funksiyalari, xalqaro standart tasniflash, ta'limning tarmoq standarti.

8.1. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quv rejalari. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar tavsiflari va ularni yaratishga yangicha yondashuv

O'quv reja - har bir mutaxassislik bo'yicha malaka va DTSda keltirilgan talablarni ta'minlovchi muayyan ta'im yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semestr davomida o'rganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishini belgilaydigan hujjat. O'quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o'quv dasturlari va mavzular rejasi tashkil etadi. O'quv rejasi o'quv shakllarini, o'quv predmetlarining ro'yxatini va hajmini, ularning o'quv haftalari, yarim yilliklari bo'yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo'lajak mutaxassislarni o'quv predmetlari, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani dasturi ham xuddi o'quv rejasi kabi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur boigan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. O'quv fani dasturi ta'lim mazmuni, uning ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat. O'quv fani dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir. Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur material mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

O'quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatiga egaligi.
2. Dastur mazmunining ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatga egaligi.
3. Nazariy g'oyalarning amaliyot bilan birligi.
4. Dastur mazmunining ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egaligi va aniq g'oyaga asoslanganligi.
5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo'lishi.
6. O'quv predmetlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'lanishlarning mavjudligi.
7. O'quv dasturini tayyorlashdagi ta'lim oluvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olish.

Demak, o'quv rejasi va dasturi ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim oluvchilar jaraoalarining so'zsiz amal qilishlari lozim bo'lgan davlat hujjatlaridir. Ta'lim jarayonini samarali olib borish uchun bularga mos darsliklar tayyorlanadi.

Darslik—DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Demak, darslik bu - muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida

ko'satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo'lib, uning xarakterli xususiyati darslik mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikdagi material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o'rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bogliqligi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar, fanga tegishli soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti ham-da talabaning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni — bu ta'lim oluvchi tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirishi majburiy bo'lgan o'quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi. Darslikdagi qo'shimcha materiallar. Bu matnlar asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallarini o'z ichiga oladi. Qo'shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma'lumotlar kiradi. Darslikdagi mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar matniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim oluvchilar tomonidan o'qilgan mavzularning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarni bilim olishga qiziqtirishni rivojlantirish;
- fikrlash faoliyatini rivojlantirish, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarning amaliy topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlarini inobatga olish;
- tasdiqlarning aniqligi va tushunarliligi, yagona namunaga mos kelishi.

Darslikdagi bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish materiallari matnidagi nazorat savollari ta'lim oluvchilarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Darslikdagi informatsion-uslubiy ta'minot - bu ushbu fanga oid asosiy va qo'shimcha o'quv manbalari, elektron ta'lim resurslari hamda uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Darslikdagi qo'shimcha ma'lumotlar matniga mazkur darslik-dan foydalanish tartibi, o'quv materialini o'rganishga tegishli elektron vosita (multimedia, virtual stend, animatsiya va h.k.)lar va ulardan foydalanish tartiblari kiradi.

O'quv qo'llanma - bu darslikni qisman todiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashqqa mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

8.2. Elektron o'quv adabiyotlar va ularni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar

Keyingi paytlarda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga yangicha yondashuvlar paydo bo'lmog'da. Bu borada elektron o'quv adabiyotlarini yaratish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini bermog'da. Bunda elektron kitob (multimedia kitob, yarim media kitob, gipremedia kitob, intellektual kitob, telemedia kitob, kibernetik kitob)lar, elektron nashr, elektron ta'lim resurslari, elektron uslubiy qo'llanma, elektron forumlar, elektron shakldagi o'quv-uslubiy materiallar, elektron o'quv nashri va shu kabilarning ahamiyati beqiyos. Quyida ular tavsiflarini keltiramiz.

Elektron darslik - bu an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, giper murojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud dasturlashtirilgan darsliklar. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomon-lama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot. Shuning-dek, u muayyan fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofa-viy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan bo'lib, unda materiallar (o'quv va ilmiy materiallar faqat virtual (matn) shaklida, o'quv materiallari esa virtual (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida) multimedia elementlari, ya'ni ma'lumot ikkiuch o'lchamli grafik ko'rinishida, video, animatsiya va qisman virtual (matn) shaklida, obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvuri-ni ifodalaydigan shaklda yaratiladi.

Elektron kitoblarni yaratish ta'lim tizimiga CD-ROM va multimedia texnologiyalarining keng joriy qilinishi, elektron o'quv adabiyotlarining ishlab chiqilishiga va ularning ta'lim-tarbiyada samarali qo'llanishiga katta imkoniyatlar yaratish jarayonidan iborat bo'ladi.

Elektron kitoblar to'rtta yo'nalishdan iborat bo'ladi. Ular: qomusiy; ma'lumot beruvchi; o'qituvchi; imtihon oluvchi.

Elektron kitoblar axborot turlari va ularni foydalanuvchiga yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Bunda multimediali kitoblar — bu axborotlarni bitta axborot tashuvchi vositasiga jamlagan bo'lib, u matnli, ovozli, statik, dinamik va videotasvirli ma'lumotlardan tashkil topgan bo'ladi.

Yarimmedia kitoblar - bu multimedia kitoblardan farqli ravishda ma'lumotlarni yetkazib berishda turli vositalarning kombinatsiyasidan foydalanuvchi kitoblar.

Gipermedia kitoblar- bu multimediali kitoblarning takomillash-gan shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo'shirmcha manbalarga ham (sharhlarga, atamalarning izohlariga, tuzatishlariga) murojaat qilishi mumkin.

Intellektual kitoblar - bu imtihon oluvchi kitoblarga o'xshash bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim darajalari maxsus testlar yordamida ularning kompyuter bilan muloqot jarayonida aniqlanadi va baholanadi.

Telemedia kitoblar — bu telekommunikatsiya vositalari yordamida masofadan o'qitishga xizmat qiluvchi kitobdir.

Kibernetik kitoblar - bu matematik modellashtirish vositalari yordamida hodisalarni va obyektlarni har tomonlama o'rganish va tadqiq qilishga yordam beruvchi kitobdir.

Elektron ta'lim resurslari - bu muayyan fan bo'yicha yaratilgan elektron o'quv qo'llanma, elektron ko'rsatmalar, elektron ma'lumotnomalar, lug'atlar, virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir.

Elektron nashr - bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, mustaqil, video-foto va boshqa axborot obyektlari majmuasidan iborat bo'lib, ular elektron axborot tashuv vositalari yoki kompyuter tarmog'i orqali taqdim etishga mo'ljallangan.

Elektron o'quv nashri - bu ta'lim oluvchilar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni ijodiy va faol ravishda o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi nashr bo'lib, u ilmiy-amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialini o'z ichiga oladi.

Elektron uslubiy qo'llanma - bu ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik tajriba (amaliyot)ni umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo'ljallangan nashr.

Elektron o'quv qo'llanma — bu muayyan fanning o'quv rejasidagi vaqt va o'quv dasturidagi ma'lumot hajmini qisman yoki to'liq qamragan va fanni o'rganishga tegishli ma'lumotni to'liq adaptatsiya qila olgan masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun moijallab tayyorlangan nashr.

Elektron o'quv qo'llanmalar

Multimediali elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanishning quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Ichma – ich joylashgan turli bo'g'inlar va rangli bezaklarda gipermurojaatlardan foydalanish.
2. Ma'lumotlarni tasvirlashda turli xil rangli bezaklardan foydalanish.
3. Audio va video effektlar va ularni boshqarishning samarali metodlaridan foydalanish.

Multimedia muhitida elektron o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish uzoq muddatli va katta mablag'larni talab qiluvchi jarayondir. Shu-ning uchun ham multimedia muhitida elektron o'quv qo'llanmalarni yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Bunda quyidagi bosqichlarni bajarish zarur bo'ladi:

- tanlash bosqichida multimedia muhitida ko'rsatilishi kerak bo'lgan o'quv fani tanlanadi;
- tayyorgarlik bosqichida kurs matni yozish, ko'rgazmali va ma'lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o'quv dasturining ssenariylarini yaratish moijallanadi;
- asosiy bosqichda elektron o'quv qo'llanmani bevosita yaratish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi;
- yakunlovchi bosqichda elektron o'quv qo'llanmani testdan o'tkazish va maqomiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'quv materialining qurilmasi yoki tuzilmasi ishlab chiqiladi, shuningdek, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa mexanizmi loyihalashtiriladi. Asosiy va qo'shimcha elementlar ajratiladi, axborotli bloklarning ierarxik tuzilmasi yaratiladi. Foydalanuvchi interfeysi, alohida bloklar va ekranlar o'rtasidagi asosiy aloqalar ishlab chiqiladi.

Multimediali materiallarni tayyorlashda odatda ikki o'ichamli grafikadan va «Macromedia Flash» dasturiga joylashtirilgan interaktiv tizim Web-sahifalar yaratish uchun ham qulay vosita hisoblanadi.

Multimediali elektron o'quv qo'llanmani yaratishda giperment, giperko'rsatgich va ularga tasvir, kod nomi elementlarini kiritish hamda ularni o'zaro bog'lash maqsadida HTML - giperment tahrirlagichdan foydalaniladi.

Multimediali elektron-o'quv qo'llanma quyidagi afzalliklarga ega:

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada o'quv materialining multimedia, giperment, ovoz, elektron doska shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi, o'quvchilarga berilayotgan o'quv materialini chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish, dars mavzusi bo'yicha to'Hq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada berilayotgan ma'lumotlarning harakati, rang, tovush va jonli tasvirlar bilan uyg'unligi mavzuni o'rganishda monoton (bir xil)likka chek qo'yadi;

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv tizim vujudga kelib, bevosita aloqa o'rnatilishi natijasida o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faolligiga qarab ularni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada o'qish darajasi va sur'atini o'rganuvchining o'zi tanlash imkoniyati o'qitishni individuallashtirish imkonini beradi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmaga kiritilgan test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish uchun savollar o'quvchini o'z-o'zini tez va samarali baholashga va zaruriyatga qarab, tuzatishlar kiritishga imkon beradi;

- olingan bilimlar o'quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Elektron pochta - bu axborot almashish xizmatini ko'rsatish vositasidir. Undan foydalanuvchi har qanday o'quv muassasasi va hatto-ki o'z uyida terminal orqali kerakii manzilni ko'rsatgan holda axborot jo'natish mumkin yoki qabul qilib olish mumkin. Buning uchun axborot kompyuterda yuboriladi, u yerda esa tegishli manzilning elektron qutisiga fayl jo'natiladi.

Elektron forumlar bu Internet tarmog'i va elektron pochtalardan foydalanib o'tkaziladigan seminarlardir. Seminarining moderizatori ishtirokchilarga materiallarni beradi. Uning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, so'ng savol beradi yoki mavzu mazmunini muhokama etadi. Seminar ishtirokchilarini material bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi, o'z xulosalarini chiqaradi. Har bir ishtirokchi muhokamada ishtirok etadi. Muhokama natijalari asosida xulosalar chiqariladi. Xulosalar asosida seminar qatnashchisi to'g'ri, yakuniy javobni oladi. Bu esa olgan bilimlarni mustahkamlashga ta'sir etadi.

Elektron shaklidagi o'quv-uslubiy materiallar - bular elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalari, elektron kutubxonalar, mos (CD, Flash va h.k.) sig'imdagi audiovizual materiallar, interaktiv o'quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o'tkazish bo'yicha tizimlar.

8.3. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo'llash

O'qituvchi - bu ta'lim oluvchilarni hayotga, ongli mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida, jamiyat oldida javob bera oladigan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan va pedagogik faoliyat bilan kasbiy jihatdan shug'ullanuvchi shaxsdir.

O'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati - bu o'quv jarayonida ahamiyatsiz harakatlarni yo'qotish, samarali o'zaro aloqani ta'minlash va rejalashtirilgan natijalarga o'z vaqtida erishish jarayonidan iboratdir. Bunda o'qituvchi texnolog-nazoratchi sifatida qatnashadi. Ushbu jarayonda ta'lim maqsadini aniq ifodalab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini olib borishdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanishda doimo ularda quyidagi savollarga javoblar bo'lishi kerak:

1. Ta'lim oluvchilar qanday konsepsiya (qarash)ni talqin qilishi va unga amal qilishi kerak?

2. Konsepsiya bilan tanishish uchun ta'lim oluvchilar qanday faoliyatni amalga oshirishi kerak?

3. Ta'lim oluvchilar nimalarni kuzatishlari va yozib borishlari kerak?

4. Ta'lim oluvchilarga qanday ko'rsatmalar berish kerak?

5. Ta'lim oluvchilar axborot yoki kashfiyotlarning qanday turlari to'g'risida fikr yuritishlari kerak?

6. Ularning «kashfiyotlari»ni umumlashtirish uchun men ta'lim oluvchilarga qanday yordam bera olaman?

7. Men ta'lim oluvchilarni qanday boshqarishim va hatto, ularning tushunishlari yetarlicha bo'lmasa-da, ular aniqlashi mumkin bo'lgan narsalarni ularga yetkazishdan o'zimni to'xtatib turishim mumkin. Ular konsepsiyani to'g'ri shakllantirish (ifodalash)lari uchun ulardagi mavjud axborotdan foydalanishda Men ularga qanday yordam bera olaman?

8. Agar ta'lim oluvchilar «nima uchun ana shu konsepsiya muhim bo'lib hisoblanadi?» deb mendan so'rashsa, men ta'lim oluvchilarga qanday javoblarni keltirishim mumkin?

9. Ta'lim oluvchilar ushbu konsepsiyaga daxldor bo'lgan avvalgi tajribalarga egadir! Men ushbu konsepsiyani ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyati va tajribasi bilan qanday bog'lay olaman?

10. Ushbu konsepsiya ta'lim oluvchilarga muayyan fandan o'zlari uchun foydani ko'rishda yordam berishiga qanday misollar bor? Fan, texnika-texnologiya va jamiyatning o'zaro munosabatlarini tushunishda yordam berishigachi? Fan tarixi va mohiyatiga oid axborot olish uchun ularga yordam berishigachi?

Zamonaviy darslikka muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi savollar, masalalar va topshiriqlarni kiritish orqali talabalarda zaruriy bilimni mustaqil izlash va topishga ehtiyoj hamda qiziqish uyg'otish lozim.

Zamonaviy darslik quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi kerak:

1. Axborotni uzatish funksiyasi. Bu funksiya talaba muayyan fan bo'yicha egallashi majburiy bo'lgan bilim va ko'nikmalar mazmunini qamrab olinishini ta'minlaydi.

2. Muvofiqlashtiruvchi funksiya. Darslikning bu funksiyasi o'quv materialini loyihalash jarayonida boshqa o'quv manbalarida keltirilgan materiallarni o'rganish, ular orasidagi uzviylikni ta'minlash, talabalarga axborot oqimini tez o'zlashtirish va olgan bilimlarni chuqurlashtirish hamda amaliy faoliyat jarayonida qo'llash yo'llarini topishni qamrab oladi.

3. Tizimlovchi funksiya. O'quv fani mazmunini tizimlangan shaklda qat'iy ketma-ketlikda oddiydan murakkabga qarab bayon qilinishini ta'minlaydi. Darslikning ushbu funksiyasi, birinchidan, o'quv materiali kasbiy faoliyatga bog'liq bo'lgan asosiy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zida qamrab olishi; ikkinchidan, darslikda bironir faoliyatni bajarish ketma-ketligining ta'minlanishi; uchinchidan, darslikda alohida harakatlar va jarayonlarni bajarishga talabalarning individual ehtiyojlariga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar berilishi; to'rtinchidan, o'quv materiallari o'zida reproduktiv faoliyat usullarini va unga mos holda produktiv jihatlarni o'zida qamrob olishi; beshinchidan, tushunchalar va terminlar aniq bir tartibda saqlanishini ta'minlashi kerak.

4. Mutaxassislikka yo'naltirilganlik funksiyasi. Darslikning mazmuni talabaning mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari, obyektlari, texnika va texnologiyalari to'g'risidagi asosiy fundamental tushuncha va bilimga ega bo'lishini ta'minlashi hamda kelajakda ularga tayanib yangi ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish va o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak.

5. Didaktik funksiyasi. Talabalarning qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishga hamda asosiy mazmunini ajratish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

6. O'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish funksiyasi.

7. Mustaqil bilim olishga qiziqtirish va ijodkorlikka undovchi funksiyasi. Ushbu funksiya talabalarga mustaqil tarzda ta'lim olishga boigan ishtiyoq, ehtiyoj va zaruriyatni uyg'otishi, qiziqtirishi, yetishmaydigan bilimlarni mustaqil tarzda to'ldirishga yordam berishga yo'naltirilgan.

8. Rivojlantiruvchi — tarbiyalovchi funksiya. Ushbu funksiya o'quv materiallari asosida shaxsning vatani va xalqiga e'tiqodi, ma'naviy-insoniy xislatlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy xislatlarning faol shakllanishiga ko'mak berishdan iborat.

1. Bosma shaklda

Kirish. Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o'rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar, fanga tegishli soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti yoritilishi talab qilinadi. Kirishning oxirida fan bo'yicha umumiy o'quv maqsadlari keltirilishi kerak. O'quv maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy ta'lim natijalari tavsifidir.

Darslikning ikkinchi qismi quyidagi afzalliklar va imkoniyatlariga ega:

- darslikning ikkinchi qismi ochiq tizim bo'lib, o'qituvchi istalgan paytda yangi o'quv materialini va so'nggi yutuqlar haqida yangiliklarni kiritish imkoniyatiga ega;
- ta'lim oluvchining mustaqil bilim olish, izlanish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z-o'zini baholashga imkoniyat yaratiladi;
- murakkab obyektlar, jarayonlar va hodisalar haqida animatsiyalar orqali real tasuvvur hosil qildiradi;
- elektron topshiriqlar va testlarining ko'p variantlilik, ko'p darajalilik va xilma-xilligini ta'minlaydi;
- o'rganilayotgan materialni ko'rish, eshitish va emotsional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari tushunishni yengillashtiradi;

Kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalanib, o'quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy masalalar yechishga va topshiriqlarni bajarishga imkon yaratadi.

Darsliklar yangi avlodining yaratilishi, o'quv jarayonigajoriy etilishi — talaba va o'qituvchi faoliyatini uyg'unlashtiruvchi model sifatida namoyon bo'lishi lozim.

8.4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va hayotga uni tadbiiq etish

Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faolyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullari va shaxsiy fazatlarni shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmun haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

Ta'lim — ilm berish va tarbiyalashni o'ziga qamrab olib, respublikaning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan, har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi va shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi, shu jumladan kasb-hunar ta'lim tizimi pedagogikasining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

Shuningdek, buyuk mutafakkirlar va olimlarning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari, hukumat qarorlari, farmon va farmoyishlar kabi Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi ilk Qonuni 1992-yil 2-iyuldan amalga joriy etilgan bo'lib, u VII bolim 44-moddadan iborat edi.

Amaldagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, u 34 ta moddadan iborat. Bu qonunga bino-an respublikamizda shu paytgacha hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilindi.

Amaldagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari

kasblar va ixtisosliklar umumiy davlat tasniflagichi (2006-y.) O'zbekiston Respublikasida texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli Qarori asosida ishlab chiqilgan. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichini joriy etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi standartlari bilan birga tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibiga «O'zDSt. 6.01.02.95.»ga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida Davlat ta'lim standartlari o'quv rejalari, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqaruvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlarining mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar uchun mo'ljallangandir. Tasniflagich kasb-hunar kollejlari va boshqa tashkilot hamda muassasalarning qaysi vazirlikka qarashliligidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aynan qo'llanilishi shart.

Kichik mutaxassis - bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kichik mutaxassis:

- nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga;
- mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyat, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar va shaxsiy fazilatlarga ega bo'ladi. Kasbiy faoliyat sohasi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalar nomlari bilan moslashtirilgan. Kasb-hunar ta'lim davlat standartlari yaqin kelajakda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi majmuaviy belgilab beruvchi yechim sifatida xizmat qiladi. Pedagogik manbalarda kasb-hunar ta'limi davlat standarti quyidagicha talqin etiladi: bo'lajak kichik mutaxassislar egallashi zarur va yetarli bo'lgan mazmun darajasi va ko'lami; o'quvchilarning maksimal o'quv yuklamasi hajmi, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar va hokazo. Stereotip kasb-hunar darajasida mahsulli va mahsulsiz faoliyatlarning o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat ta'lim (tarmoq) standarti mutaxassisliklarning yozma modeli bo'lib, kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarni hatnda shaxsiy talablarni o'ziga qamrab oladi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Ta'lim mazmunini tavsiflovchi asoslar nimalardan iborat?*
2. *Uzluksiz ta'lim mazmunini belgilashda integratsiya jarayonlarining ahamiyati bormi?*
3. *DTS qanday shakllantiriladi?*
4. *Tamoyilning vazifasi nimadan iborat va uning ta'lim mazmunini belgilashdagi ahamiyati qanday?*

5. Fanlar bloklari va.ularning funksional vazifalari nimalardan iborat?

6. O'quv me'yoriy hujjatlar nimalar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
8. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. (*Abdulla Avloniy*)

TARBIYA JARAYONI MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA TAMOYILLARI

Reja:

1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi.
2. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
4. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari.
5. Zamonaviy milliy tarbiya mazmuni xalq pedagogikasi asosida

Mavzuning maqsadi:

Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi, tarbiya jarayoni mohiyati, tizimi hamda uning qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari va unga qo'yiladigan talablar tasnifi to'g'risida ilmiy bilim berish orqali yoshlarda kasbiy malakalarni va sifatlarni rivojlantirish.

Mavzuning vazifalari:

- tarbiya jarayonining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- tarbiya jarayoni tizimi va uning qonuniyatlarini o'rganish;
- tarbiya tamoyillari va tasnifini ochib berish;
- tarbiya jarayonida har bir o'quvchi shaxsining shaxsiy munosabat hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish va ta'sir ko'rsatish.

Tayanch ibora va atamalar:

milliy va umuminsoniy qadriyatlar, izchillik va tizimlilik, talab va ta'sir, ijtimoiy hayot, jamoa, Individ, Shaxs, Komil inson, Barkamol inson, tarbiyalanganlik, komil inson, ixtiyoriylik, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya qoidalari, obyektiv va subyektiv omillar, demokratik tamoyil, ehtiyoj, ijtimoiy munosabat, faoliyat.


9.1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o'rgatadi. Hayotga yangicha

siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «AI hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yonajot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan. Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni -o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki histuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi (5.1.1-shakl).

Tarbiya jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy shakli

5.1.1-shakl



9.2. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yet-kazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va h.k.), muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchilarda fuqarolik tuyg'usini, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

j) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, ornomusi, qadrimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va boshqalar.

Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada

amalgaga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsada aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat.

2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O'qituvchining bolalar bilan ma'naviy madaniyatining eng yaxshi namunasi izlashi, shu asosida tarbiyachi insonning hayotiy me'yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi, o'qituvchining tarbiya jarayonida faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim jihatlaridan biri - bu insonning hayotida o'z-o'zini anglashi, inson o'z shaxsiy hayoti va baxtining subyekt sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotda fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash g'oyalariga tayanib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

4. Tarbiyaning yo'naltiruvchanligi. Mazkur g'oya maktab (ta'lim muassasalari) amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki o'qituvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos tavsifi o'z qadr-qimmatini ang-lash tuyg'ulari rivojlantirib borishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'qituvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglashi, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'rib va anglay olsagina uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatda samaraga erishadi.

6. Jamoat yo'nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, unda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi amalga oshiriladi, g'oyalari yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

9.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv ta'biatlari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi. Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi,

o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir. Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi. Tarbiyaning to'rtinchi qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi sanaladi.

TARBIYA JARAYONI QONUNIYATLARI:

1. Tarbiyaning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillarga bog'liqligi
2. Tarbiyaning shaxs taraqqiyoti bilan birligi o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.
3. Faoliyat va munosabat birligining ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirish negizi va asosiy manba ekanligi.
4. Tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siriga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanish.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari bo'lib, ular quyidagilar:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa deb bilish;
- shaxsning jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lishi va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi)ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq.

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi — o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash - ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis, komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur. Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustunligi — tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har birbola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu — tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi — xalqning ko'p

asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf-odatlar, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart. Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining o'zgarishga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jamoadan va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini

o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim. Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o'z o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish, uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarbiyada tizimlilik va izchillikka amal qilmaslik qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
2. Ikki yoqlama faoliyat deganda nimani tushunasiz?
3. Demokratiya qoidasini izohlang.
4. Shaxsning shakllanishida milliy qadriyatlarining o'rnini tushintiring.
5. Tarbiyani insonparvarlashtirish deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakterlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

Nafing agar xalqqa beshak durur, Bilki, bu naf o'zunga ko'prakdurur.
Alisher Navoiy

-MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Reja:

1. Ta'lim metodlari va usullari haqida ma'lumot.
2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar.
7. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi.
8. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari.
9. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va ularning turlari.
10. O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Mavzuning maqsadi: Ta'lim oluvchilarni ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish.

Mavzuning vazifalari:

5. Ta'lim metodlari va ularning turlari hamda ularni o'zlashtirishga bo'lgan turlicha yondashuvlarni bayon qilish.
6. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning o'qitish metodlari haqidagi qarashlarini yoritish.
7. Ta'lim metodlarini joriy qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish tamoyillarini bayon qilish.
8. Ta'lim metodlarini takomillashtirishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar berish.

5. Mustaqil ta'lim va uning vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: ta'lim metodlari, usullar, bilish faoliyati usullari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ilm-fan, texnika-texnologiya, o'quv material, didaktik xarakter, pedagogik nazariya, samarali, zamonaviy, pedagogik qarashlar, irodaviy sifat-lar, ilmiy dalillar, sezgi organlari, bilimlarni o'zlashtirish, so'z orqali, ko'rgazmali uzatish, amaliy mehnat, ta'lim metodlari, mashq qildirish metodi, topshiriq berish, didaktik asos, laboratoriya meto-di, ta'lim vositalari, o'qitishning asosiy va qo'shimcha vositalari, o'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Beruniy, ibn Sino, Forobiy ta'lim metodlarini faollashtirish haqida, mustaqil ta'lim, faol ta'lim, o'zaro bog'liqlik qonuni, mashq qonuni, intensivlik qonuni, assimlyatsiya qonuni, ta'limni axborotlashtirish qonuni, pedagogik mahorat.

6.1. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'lanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

«Metod» — yunoncha «metodos» - «yoi» degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qara-tilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday boiishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yolidir.

6.2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini vatamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan boisa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijo-diy ravishda izlab topishga yordam beradi.


Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshanva aniq asoslangan bo'lishi lozim.
3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.
6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'ziashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mojailangan natijani berishi kerak.

6.3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisob-ga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va

boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchinchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (1-shakl).



1-shakl. Ta'lim metodlari.

Ta'lim metodlari tarkibi.

Ta'lim metodlari tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qituvchi bilimlarni Og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; o'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. Bilimlarni Og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o'qitish metodlari bo'lib, ular vositasida didaktik vazifalar (bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash va sh.k) hal etiladi. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi. Masalan, ma'ruza metodi tarkiban o'qituvshining o'rganilayotgan mavzuni mantiqiy izchillikka, Og'zaki bayon qilishi, o'quvchilarning esa o'quv materiallarini izchil tinglashi kabi metodlardan iborat. Ma'ruza metodidan shu yo'sinda foydalanish o'qituvchining, o'quvchining ham faolligi talablariga, binobarin, ta'limning samaradorligini oshirish ehtiyojlariqa mos kelmaydi. Zero, ma'ruzaning yuqoridagi ko'rinishi faqat bolalar xotirasiga mo'ljallangan. Ma'ruza ham bolalar xotirasiga, ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi. tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

1-variant. Ma'ruzada oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish. Muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish. Ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lim jarayonining faol

sub'ektiga aylanadi. 1-variantda ma'ruza quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: .

O'qitish-metodlari O'qish metodlari

Mavzuga oid muammoni tanlash -muammoni qabul qilish va qo'yish; tahlil qilish; muammoning bajarilishini-muammoni bajarishga oid tahlil qilish; tahlilda faol qatnashish;

muammoning bajarilishi asosida -o'qituvchi tushuntirishlarini o'quv materialini izchil bayon etish

2-variant. Ma'ruzadan oldin bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, odatdagi muloqot yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni tahlil etish. Bu variantda ma'ruza bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

3-variant. Oldin o'rganilgan bilimlar bilan bugungi Yangi o'quv materiali o'zaro daxldor bo'lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat yo'li bilan o'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasida tabiiy bog'lanish hosil qilinadi. Ma'ruza shu bog'lanishning davomi sifatida o'tkaziladi.

O'quvchi faoliyati -ko'rgazma qurolni tahlil etish;

-qo'yilgan muammo to'g'risida o'ylash;

-o'qituvchi tushuntirishlarini tinglash;

-xulosalarni esda olib qolish;

- bilimlarni o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq qilish.

4-variant. Ko'rsatma qurollarda berilgan omillarni tahlil qilish asosida ma'ruza tashkil etilganda, quyidagicha ko'rinishni oladi.

- O'qituvchi faoliyati ko'rgazma qurolni tahlil ettirish;

- bolalar oldiga muammolar qo'yish;

- qo'yilgan muammo asosida bilim-larni izchil bayon etish;

- xulosalar chiqarish;

- bilimlarni o'quv sharoitlariga tatbiq qilishni tashkil etish;

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'limda hech bir metod sof holda qo'llanilmaydi. har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qitish va o'qish metodlarining bir-biriga mosligi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida didaktik ta'sirning o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sirining samarali amal qilishiga olib keladi.

O'qitish metodlari va o'qish metodlarining bir-biriga muvofiqlashuvi ta'limning ijtimoiy instinktning alohida turi-o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishni ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib, ta'lim metodlarini ikki guruhga ajratamiz; o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari.

Ta'lim metodlarining har bir guruhida o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri qatnashadi. O'zaro ta'sir ishtirok etmaydigan metod ta'lim metodi sanalmaydi. Masalan, o'qituvchi evristik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o'rta tashlay olish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari ta'limda faol ishtirok etishadi. O'qituvchi faolligi o'quvchi faolligini va, o'z navbatida,

o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi.

O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari tasnifi.

Og'zaki bayon metodlari. hikoya, tasvir, suhbat, ma'ruza ta'limning bilimlarni Og'zaki baen qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o'quvchilarning xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. hurilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Hikoya. Ta'limning turli bo'g'inlarida qo'llaniladigan universal metodlardan biri hikoyadir. hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi- o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayarlash maqsadida o'tkaziladi. kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, Yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya- Yangi o'quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materialini mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya-undan darsning oxirida o'rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, texnikum va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materialini xajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z Nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan omillar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida ko'rgazma qurolidagi omillarni tahlil etishga bolalar dihuququhuquqatini tortish, o'qituvchi aytgan qoida, ta'rif, aniqliklarni dars materiallariga chog'ishtirish yo'llari bilan bolalar faolligi oshiriladi. Shuningdek, o'quv materialiga oid terminlarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarador amal qilishini ta'minlaydi.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: evristik suhbat; katoxezistik suhbat. Evristik suhbat o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Sokrat mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbatini» ham deb yuritaladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi. Bu metodning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya vaqtni tejash nuqtai nazaridan eng masalador metodlar sanalsa, vaqtni ko'p olishi, evristik suhbatning kamchiligidir.

Evristik suhbatning o'ziga xos tashkiliy hurilishi mavjud. Buni «Ko'chirma gap» mavzusi misolida oydinlashtiramiz:

-darsning mavzusi, maqsadini e'lon qilish (bolalar, hozir siz darak, so'roq,

buyruq gaplarning ta'rifini aytib berdingiz. Bugun «ko'chirma gap»ni o'rganamiz. Agar mening savollarimni diqqat bilan tinglab, javob qaytara olsangaz, bugungi mavzuni mustaqil o'rganasiz.);-kuzatish uchun omillar (o'qituvchi bolalarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi; bugun qanday gapni o'rganamiz O'rtog'ingizning men bergan savolga javobini yozing).

Doskaga o'quvchilardan biri «Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz» jumlasini yozadi. O'qituvchi «Katta bo'lganda kim bo'lmoqchisizhuquq» savolni o'rta tashlaydi. «Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman» gapi ham doskaga yoziladi. Kuzatish uchun Nutqdan quyidagicha gaplar tanlab olinadi:

-Biz bugun ko'chirma gapni o'rganamiz (dedi Odil).

-Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman (dedi Anvar).

Mustaqil xulosalar chiqarish uchun savollar; Kimlarning gapi o'zgarishsiz ishlatiladi, daftarlarga (doskaga) yoziladi? qanday gap deyiladihuquq

-Odil, Anvarning gaplari o'zgarishsiz yoziladi. O'zgarishsiz ishlatilgan gaplarga ko'chirma gap deyiladi.

-o'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosani to'ldiradi, ko'chirma va muallif gaplarining farqlarini, ularning o'rinlari, ishlatiladigan tinish belgilarini izohlaydi. Doskaga yozilgan gaplarni quyidagi shaklga keltiradi:

«Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz»,-dedi Odil.

«Katta bo'lganimda o'qituvchi bo'laman»,-dedi Anvar.

-Chiqarilgan xulosalarni turli o'quv- sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan bilimlar mustahkamlanadi.

Katoxezistik suhbat o'quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo'ljallab o'tkaziladi. O'tkazish maqsadiga ko'ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

Yakunlash suhbat. Bunday suhbatda mashg'ulotda qilingan ishlar bo'yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash suhbat-Yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o'tkaziladi, so'ngra Yangi mavzu intellektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

Takrorlash suhbat-ikki yoki undan ortiq mavzu bo'yicha o'tkaziladi. Takrorlash yo'li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat-katta bo'lim o'tilgandan so'ng, o'quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

Kirish suhbat-yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'tkaziladi. Nazorat suhbat-bilimlarni sinab ko'rish maqsadida tashkil etiladi.

Bilimlarni Og'zaki bayon etish metodlari, evristik suhbatni hisobga olganda, asosan, xotiraga, binobarin, o'quvchilarning qayta eslash faoliyatiga mo'ljallab tashkil etiladi. hikoya, tasvir, ma'ruza, suhbat metodlarining zaif tomoni ham shunda. Ularning zaif tomonlarini bartaraf etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish uchun quyidagi rag'batlantiruvchi metodlardan foydalaniladi:

1. Qiziqarli o'quv holatlari yaratish-qiziqarli o'quv holatlari bolalarda turli emotsiyalarni uyg'otadi. Fizikadan «Fizika va hayot», «Ertaklarda fizika», kimyoda «Mo'jizasiz mo'jizalar», matematikadan «qiziqarli matematika», «Ajoyib raqamlar», «Sirli raqamlar»ga oid omillarni, hodisalarni ta'limga olib kirish bolalarda bilimlarning qiziqishlarini oshiradi.

2. Badiiy, ilmiy-ommabop, tarixiy asarlardan olingan omillarni keltirish, ularni

tahlil etish ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi.

3. Ma'ruza, hikoya, tasvir, suhbat jarayonida analogiya metodidan foydalanish. Masalan, fizikadan ultra binafsha nurlar (quyosh nurining yetti xil elementdan iboratligi), lokatsiya hodisasini ko'rshapalak misolida izohlash, bolalarda o'quv faniga, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

4. Fan tarixida ekskursiya ham bolalarning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sanaladi. Ona tilidan utyug, karandash kabi so'zlarning o'zbek tilidan rus tiliga o'rganligi, tomosha (tomdan oshib qarash), kengash (katta osh) so'zlarining ma'nosini izohlash, bolalar faolligini oshiradi.

5. Kundalik turmushda ishtirok etish yo'li bilan hosil qilingan tajriba va ilmiy bilimlarni o'zaro taqqoslash ham bolalarda o'quv biluv faoliyatiga havasni oshiradi. Shunday qilib, bilimlarni Og'zaki bayon qilish, metodlari bilan rag'batlantiruvchi metodardan parallel foydalanish o'quv tarbiya ishlarining samaradorligini oshiradi.

Ko'rgazmali metodlar.

Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illyustratsiya metodi Og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga dihuququhuqatni tortish.

Demonstratsiya metodi-kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor eshittirishlaridan, videotasvirdardan foydalanib, kinolentalarni, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar-narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rish o'quvlarini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni Og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanshp ta'limning samaradorligini oshiradi.

Muammoli izlanish metodlari.

Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
- turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;	- muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
- farazlarni aytishni taklif etish;	- muammoni hal etishga oid farazlarni aytish;
- farazlardan tanlangan muammoni mosini bajarishga tatbiq etishni so'rash;	- tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish;
- xulosalar chiqarishga ko'maklashish;	- xulosalar chiqarish;
- chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish;	-xulosalarni amaliyotga tatbiq etish;

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi.

Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazma qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli-izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya-o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'lidir.

Muammoli ma'ruza-ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishishdir. O'quv materialining asosiy qismini ma'ruza vositasida, nisbatan oson qismini topshiriqlarni bajarish, muammolarni qo'yish yo'li bilan ham o'rgansa bo'ladi.

Keyingi paytlarda maktablarda muammoli amaliy ishlar, masalan, optikadan laboratoriya ishi, ilmiy tadqiqot ishlari (tarixiy materiallarni tasnif etish, u yoki bu geografik tumanga tabiiy va iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan tasnif yozish) keng o'rin olmoqda. Bular bolalarbop eksperimental (sinov) tadqiqot metodlaridir. Ko'rinadiki, muammoli-izlanish metodlari bilimlarni Og'zaki bayon etish, ko'rgazmali metodlar bilan birga qo'shib olib borilganda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Mustaqil ishlash metodlari

Mustaqilishlar ta'limning turli guruhlari, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. hozirgi paytda mustaqilishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi qoidalar va ta'riflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid omillarni ajratish; o'qituvchi bergan, o'qituvchi topshiriqiga ko'ra to'plagan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim betlarini tanlab o'qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'llari to'g'risida qisqacha xisobot tayyorlash; qoida, ta'riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga izoh yozish; darslik, o'quv qo'llanmalarni va qo'shimcha adabiyotlardan o'rganilgan mavzu doirasida omil to'plash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'rif aniqliklariga solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlar asosida musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diogramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish rejasiii tuzish.

Mashg'ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo'lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik o'yinlar metodi.

Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o'yinlarning

samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni Og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo'llaniladi. Shu xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Stimulyativ o'yin-ta'limni hayotda bo'lib o'tgani ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularga muqoyasa qilib tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o'yindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir o'qituvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar rolida ishtirok etadi, shu yo'l bilan ta'lim bo'lib o'tgan tarixiy voqeaga muqoyasa qilib tashkil etiladi.

Stimulyativ o'yinlarning bir ko'rinishi instsenirovka (rollarga ajratib o'qish) metodidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy mantlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o'qtish an'anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot o'qituvchilari «Tuya bilan bo'taloq» asarini o'qitganda bir o'quvchi yozuvchi ikkinchi o'quvchi tuya, uchinchisi esa bo'taloq so'zlarini o'qib ta'limda ishtirok etishadi.

Stimulyativ o'yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o'z o'rnini olib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi.

Amaliy metodlar.

Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Laboratoriya tajribasi amaliy metod bo'lib, ular turli ko'rinishlarga ega: kimyodan va boshqa tabiiy o'quv fanlaridan yoppasiga laboratoriya mashg'uloti, fizikadan o'quv praktikumi, yoppasiga kuzatish kabi ish turlari mashg'ulotning bir qismini oladi, ba'zan ularga bir necha o'quv soatlari ajratiladi.

O'quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg'ich, sirkul va sh.j.dan foydalanib qirqish, o'lchash kabi ishlarni bajaradi.

Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o'quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari sanaladi.

Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq-o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar-inteluktual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo'yicha) va umumiy (masalan, barcha o'quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

Mashq o'quv topshiriqlari asosida o'tkaziladi. Uni bajarishda quyidagicha bosqichlarga rioya qilinadi.

1-bosqich: mashqni bajarishda foydalaniladigan bilim, faoliyat metodllarini esga tushirish. Bilimlarni esga tushirish bu xotiraning oddiygina ishi emas. Bu jarayon topshiriqni bajarishga oid bilimni esga tushirish, uni bilimlar orasidan ajratib olish, ajratilgan bilimni tahlil etish, uni o'quv sharoitiga tatbiq etishni tasavvur qilish kabi aqliy ishlarni taqazo etadi.

2-bosqich: Ajratilgan bilimni, faoliyat metodini mashqda berilgan holatga tatbiq etish. Bilimni, faoliyat metodini tatbiq etish jarayonida o'rganilgan bilimlar ongda mustahkamlanadi, malakalar takomillashadi.

3-bosqich: Bu bosqichda topshiriqning bajarilishi tekshiriladi, mashq qilish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar baholanadi, mashq qilish asosida xulosalar chiqariladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan to'g'ri ta'lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.


Ta'limning ko'rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foy-dalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollan-tirishda muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya metodi o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha turlarga va shakllarga bo'linadi (1-shakl):



1-shakl. Laboratoriya mashg'ulotlarining turlari va shakllari.

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O'qitishning asosiy vositalari - bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari. O'qitishning qo'shimcha vositalari - bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va raalakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalari; tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalar. O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari — bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

6.4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari

Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta'lim metodlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari, amal qilgan ta'lim yo'nalishlarida yaqqol sezish mumkin. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'zigacha bo'lgan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Barcha mutafakkirlar kabi u ham ko'rgazma-tajriba metodlari, savol-javob metodlari, mala-ka va ko'nikmalarai shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metod-laridan keng foydalanilgan. Al-Xorazmiy matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara oldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri - «0» (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar

tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshi-rishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodla-ridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- * bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak - bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri;
- uzviylik va izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- takrorlash;
- materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'ymaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanil-masin-u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinishdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boigan.

6.5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'liashning o'ziga xos xususiyatiari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yoilari. Mustaqil ish va uning turlari

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materi-alini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi. Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasi-ni bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qoiga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi.

Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqa-rish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-rnunuzara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni arna-liyotga joriy etish va hokazo. Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

• Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi;

• Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni.

Bu qonunbo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirishjarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish, faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar hisobga olinadi;

Ta'limda ematsion sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi;

• Ta'limni axborotlashtirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;

• ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar orttiriladi;

• ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi;

• ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish;

• axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishini hisobga olish;

• zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning muntazam ravishda

ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa, bashoratli, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;

- beshta muhim masalalarni hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish asosida ta'lim olishni engillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash; mamlakatning iqtisodiy imkoniyati (quvvati) o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashtirishini ta'minlash;

- Ta'limda mustaqillik qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish asosida ularda ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlarini ishlab chiqiladi. Professorlar R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unovlarning qayd etishicha mustaqil ta'lim - bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlar-ni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatadi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim — bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

6. 6. O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Pedagogik mahorat — ta'lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukam-mal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va zarur bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;
- dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tez da dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;
- o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;
- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Bunga sabab ta'limda mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri va ta'lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta'lim jarayonning holatiga mos ular uyg'unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi:

Ta'lim tamoyillari.

Bu o'qish va o'qitish jarayonida obyektiv mavjud bo'lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan vata'lim jarayonida amal qilishga tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir. Pedagogik yondashuv bu ta'lim-tarbiyadagi o'zaro bog'liqlik. Tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi pedagogik faoliyatdir. Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo'llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo'ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyada keng qo'llanilishi bilan texnologik yondashuvga e'tibor kuchaymoqda.

Texnologik yondashuv - bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash; o'quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta'lim oluvchilarni ularning xatti-harakatlari asosida o'qitish; teskari (qaytma) aloqa; bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlash; o'qitishning samaradorligi-ga erishish.

Pedagogik qobiliyat - bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos boigan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan darajadir.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

6. Ta'lim metodlarini va usullarini zamonaviylashtirish haqidagi fikrlaringiz bo'yicha referat tayyorlang.

7. «Didaktika»ni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida takomillashtirish qanday hal etiladi?

8. Zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishdagi ta'limiy afzalliklarni sanab bering.

9. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari-

ning qaysilaridan hozirda ham samarali foydalanilganligini asoslab berishga harakat qiling.

10. Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga nima uchun e'tibor beramiz va bu ularning intellektual salohiyatini yuksalib borishidagi ahamiyati bormi? Agar bo'lsa, aniq dalillar asosida bayon qilib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Высшая образования, 2008г
8. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

11-MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI

Reja:

1. Tarbiya metodlari tushunchasining mohiyati va mazmuni
2. Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari
3. Tarbiya metodlari tasnifi
4. Tarbiya metodlarining tarbiyaning maqsadi, qoidalari va vositalariga bog'liqligi.
5. Tarbiya metodlarini o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasiga ko'ra tanlanishi

Mavzuning maqsadi:

Tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari, tamoyillari hamda xususiyatlari, tarbiya metodlarining turlari va shakllari haqida ilmiy tushuncha berish orqali o'quvchi-yoshlarda jamoaga uyushish va shakllanganlik darajasini belgilash.

Mavzuning vazifalari:

- tarbiya metodlari va ularning maqsad-vazifalari hamda turlari haqida tushunchalar berish;
- tarbiya metodlarini qo'llashda o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligini aniqlash;
- tarbiya metodlarining shaxsni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash va boshqalar.

Tayanch ibora va atamalar: tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish vajazolash metodlari.

11.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Ularning maqsadi, mazmuni va tasnifi

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish

maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yoilaridir. Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayonigataalluqli ko'pginatar-biyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifa-lari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlar-ni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qara-tilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanish-ning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin (7.1.1-shakl).

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni hohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim.

O'qituvchi-do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar.

YUqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar-bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilim o'rganma olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlarini tarbiya usullari, deb ham yuritiladi.

Ta'lim metodlari, o'qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. Bolalarga ish bo'lib berishdan oldin u lattani qanday qilib xo'llash, partalarni va polni artish haqida gapirib, ko'rsatib beradi. O'qituvchining so'zi bu erda uslub bo'lib hisoblanadi. Metod va uslub bir-biri bilan o'zaro bog'liq va pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.

O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig'ilishi, ertalabki saflanish, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Yana o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Kinofilmlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat

turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga maqbul metodni, tanlab olishlari, uning Shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllarini majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekcha axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xima-xil tarbiya metodlari quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak- istak bildirish, ma'qullash, raxmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
4. qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlantirish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'giti orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga etadigan bo'lishadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'ngi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari) sayllar, turli nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, yigitlar bazmi, qizlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar o'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan o'n yillar o'tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak.

Tarbiya metodlarini o'rganish, tahlil qilish, bu metodlardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish metodlari, o'z-o'zini tarbiyalash metodlari hamda rag'batlantirish usullari, jazolash metodlari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar

Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani etkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ishlatiladi.

O'quvchilarda siyosiy onglik va ijtimoiy faollik, Ya'ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish-bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o'quvchiga qo'yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o'quvchilarga duvoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni, milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi, u yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya qilishi, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy etuklik haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o'quvchilarga bayroq, madhiya, konstitutsiya haqida tegishli ma'lumotlar beriladi.

O'quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, Ya'ni o'zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat'iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me'yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish tushuniladi.

Suhbat va hikoya. O'quvchi Shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat jonli, ommaviy, ishonarli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o'quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-estetika va boshqa

sohalardagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o'quvchilarning ijobiy yoki salbiy javoblariga qarab bilish mumkin.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi, Shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o'quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg'otish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, Ya'ni o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo'yicha o'z bilimlarini tahlil qilishga, tortish va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli manba bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqliligi ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. O'qituvchi suhbat mavzusini oldindan e'lon qilib, masalan: mehnatsevarlik yoki rostgo'ylik, halollik mavzularida suhbat o'tkazish uchun mavzuga oid maqolalar, matallar va maqolalar to'plashni topshiradi, bunda o'quvchilarning o'tkaziladigan tadbirda faolliklari yanada ortadi.

Na'muna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari, o'qituvchilari, ota-onalari, oilaning katta yoshli a'zolari va boshqalarning fe'l-atvor, yurish-turishida bolalarga etarli darajada namuna ko'rsatishlari nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining Shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar yaqin kishilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak, chunki qaerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Katta yoshdagi kishilarning, o'qituvchi va tarbiyachilarning bolalarga yaqin bo'lishlari, ularni o'zlariga moyil kila bilishlari, ular bilan yaqin aloqa ko'nikay olishlari ham ularning o'rnak bo'lishdagi kuchini oshirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma'lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofilmlardagi va spektakllardagi

qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamma yaxshilardan, donolardan, Ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: "qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi. Bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi, demoqchi.

Bunga o'xshash fikrlarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish metodlari

Bola rivojlanishining, uning o'zligini belgilashning asosiy omili-bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai-nazaridan yondoshish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida-ta'lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mustaqilliklarini oshiradi.

O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab qo'llaridan kelgan ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko'pchilik, jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o'rgatish metodlari

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O'qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular orqali hosil qiladi. Odat ehtiyojga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o'xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O'rgatish-ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim (sinfdan navbatchilik qilish).

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish: kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z

istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko'nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umumishga sarflashga, jamoa uchun ma'suliyatni his etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakteri va irodasini o'stiradi.

-Bola faoliyatining shakllanishida burchga ma'suliyat hissini tarbiyalash lozim.

-O'quvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilishi zarur, qiziqarli, to'laqonli, bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-fodali, ijodiy, ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimpligi, natijada o'quvchilar o'zlari yoqtirgan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsinlar. Sinf dan tashqari ishlarda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini jamoa foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida shakllari va uslublari orqali tashkil etish mumkin. To'garak, klub ishlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, yigit va qizlarning Shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, u yoki bu faoliyatda bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj, Ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'quvchilarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'llash kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi, pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo'lsagina o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrihohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z bilan ish birga saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash sifatleri bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini Shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. o'z-o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim. Bunda o'quvchilarning o'zlariga xatti-harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhimdir. O'quvchilar o'zlari muayyan vaqtda belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo'yadilar.

SHundan keyin vaqti-vaqti bilan o'zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o'z xatti-harakatlari uchun javob berishga, ma'suliyatlarni his etishlari uchun yordam beradi.

O'z-o'zini tahlil qilish. O'z Shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarini ortib borish va aksincha, salbiy odatlarni kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Buning uchun irodali bo'lishi, o'zining o'quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o'qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi, Ya'ni tahsil va tarbiyalanishni hohlashi, o'zini o'rtoqlarining, yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o'ziga chetdan turib holisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash metodlari

O'qituvchi bolalarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z-o'ziga, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishoniladi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o'qituvchini qiziqtiradi, ular bir-birlariga ishonadilar. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llanadi:

1. O'quvchining kuchi etadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovgasi (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
4. Maqtov yorlig'i berish; 5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosuratni qo'yish;
7. Ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi; 8. Safda birinchi o'rinda turish;
9. Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
11. Gazeta-jurnal va radio-televidiniyalarda e'lon berish.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Ya'ni rag'batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi, xaddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqoslab, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik va hokazo.

Jazolash-bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralari qo'llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qurqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llashi mumkin bo'lgan jazo choralari quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish-eng engil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish-noma'kul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish-agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka xarakterli, Ya'ni bitta bo'lsin, o'quvchilarning aybiga mos, muvofiq bo'lsin, tez-tez qo'llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqoniy ekanligi aniq bo'lsin va ular o'z ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha'nini bukmasligi kerak.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, Shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning metodining muvaffaqiyatli qo'llanishiga, bu metod mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, qo'llanilayotgan tarbiya vositalari qanchalik javob berishiga bog'liqdir.


Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongi-ga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy maz-munga oid odatlar hosil qilinadi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zamini-da tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy



munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib, bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin. Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoiyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim. Bevosita va bilvosita talab o'rtasidagi asosiy farq quyidagi chizmada ko'rsatilgan (7.1.2-shakl).

7.1.2-shakl



O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan talablar bora-bora jamoat talabiga aylanadi. Jamoat talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon bo'ladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri o'zida jamoaning muayyan faoliyati, voqea-hodisaga nisbatan beriladigan bahona yoki muhokama natijasini ifodalaydi va faol ta'sir kuchi bo'lib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi. O'rgatish bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qan-day faoliyat darajasiga yetishi kerak? Inson ongi uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir. Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir. Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning histuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

11.2. Tarbiyada ibrat-na'muna ko'rsatishning tutgan o'rni

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, mashhur yunon mutafakkirlari - Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mam-lakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarini egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, deydi Arastu, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiya-lamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'z g'alalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?»

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Ro'shnoi noma», «Qobusnoma» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, Ubayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari al-

Kindiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi. Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat namunaning o'zni beqiyosdir. Bu, o'z navbatida, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolatlaydi.

11.3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

Rag'batlantirish metodlari - o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zdatutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga rnas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilmaxil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi. Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldi-dagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketmakt bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'zni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mebnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari — bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qaramaqarshi faoliyatvaxatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'lab quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlatish va boshqalar kiradi. Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim. Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak. Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'lash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular birbiridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi. O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali o'quv qurollari,

badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, histuyg'u, xulqatvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlod-ni. har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlari ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlar ahamiyatini kuchaytirish-ga xizmat qiladi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Tarbiyaning qanday metodlari bor?*
3. *Rag 'batlantirish metodi nima va uning qanday turlari mavjud?*
4. *Jazolash metodi va uning turlarini tmhuntirib bering.*
5. *Tarbiya jarayonida metodlar nima uchun qo 'llaniladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

Mol-mulkni behuda isrof qilish - aqlsizlik, boylikni o'ylamasdan sarflash tanazzul alomatidir. *Hikmat*

O'QUVCHILAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY VA EKOLOGIK TARBIYANING O'RNI

Reja:

1. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari.
2. Iqtisodiy tarbiyada oila budjeti tushunchalari.
3. Iqtisodiy tarbiyada - ma'naviy qadriyatlar.
4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati.
5. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari.
6. Talaba-yoshlar ekologik tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish.
7. Ekologik tarbiya yo'nalishlari.

Mavzuning maqsadi:

Iqtisodiy va ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmuni va shakllari, yoshlar tarbiyasida ularning tutgan o'rni haqida ilmiy bilim berish orqali ularda bozor

iqtisodiyoti hamda atrof-muhitni saqlash ko'nikmalarini tarbiyalash.

Mavzuning vazifalari:

- iqtisodiy va ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmun va shakllarini yoritish;
- yoshlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlikni ko'rsatish;
- atrof-muhitni saqlashda ekologik ong va madaniyatni tarkib toptirish va boshqalar.

Tayanch ibora va atama!ar: iqtisod, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, iqtisodiy tarbiyaning vazifalari, tejamkorlik, moddiy ne'matlar, ma'naviy ne'matlar, oila budjeti, oilada iqtisodiy tarbiya, moddiy boylik, ma'naviy boylik, ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiyaning maqsadi, ekologik tarbiyaning vazifasi, tabiiy boylik, atrofuhit, iqlim, ekologik muvozanat, ekologik madaniyat.

Dunyoqarash. Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi, boshqa narsa, buyumlar va mavjudot uchun bu hol yotdir, ularda ham dunyoqarash bo'ladi, deb o'ylash bema'nilik bo'lur edi.

Avvalo ta'kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turli kishilarda, kasb egalarida turlicha-to'laroq, mukammolroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo'lishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdodlardan meros bo'lgan ma'naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni o'zlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi sharoitda kishilarning ongi, dunyoqarashida yangicha fikrlash, yashashni tarbiyalanmasa, mustaqillikning g'oyasi, mazmuni va mohiyatini tushuntirilmasa, ko'zda tutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun hozirgi eng muhim dolzarb masala xalqning ongidagi eskicha dunyoqarashni o'zgartirish iqtisod, siyosat, madaniyat jabhalarida yangicha fikrlashni o'rgatish, mustaqillikni mustahkamlash sharoitida o'z haq-huquqlarini anglash va noxush holatlarni hayotga kirib qolmasligiga, unga qarshi kurashishga tayyor turadigan ilmiy dunyoqarashli Shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Oddiy kuzatish uy hayvonlariga, xatto yaxshiy hayvonlarga ham xos bo'lib, ular ham ovqat topib eyishni, egasini tanishni, xavf-xatardan qo'rqishni biladilar. Bu hol shartli reflekslar yoki birinchi signal tizimlari deyilib, bunday holat jonli kuzatish bo'lib, odamlarga hayvonlarga ham bir xil ta'sir qiladi. Tafakkur, fikrlash esa insonga xos bo'lib-bu ikkinchi signal tizimidir.

Aql har bir insonga xos tug'ma xususiyat bo'lib, miya sog' bo'lsa, aql ham yaxshi ishlaydi, aksincha miya kasallangan bo'lsa aql past, zaif bo'lib aqli rivojlanmagan odamning yoshi katta bo'lsa ham aqli yoshidan orqada qolib ketishi, tevarak-atrofn, dunyoni bilish, oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan ilmlarni va mavjud bilimlarni o'zinikiga aylantirib o'zlashtira olishga qiynaladi. Chunki ilm va bilim bir xil narsa emas. Ilm mavjud bor, yaratilgan narsa, bilim esa kishi tomonidan bilib olinadigan, o'ziniki qilib olinadigan narsadir. Aql, did va ilm nazariyaga-farosat, ta'miz, bilim amaliyotga, tajribaga talluqlidir.

Shuni anglamoq zarurki tafakkur va til haqidagi muammo bilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib tasavvur, tushuncha, aql, idrok, tafakkur jami bir bo'lib, ong degan pedagogik tushunchani beradi.

Dunyoni bilishda ijtimoiy-tarixiy amaliyot, tafakkur va u bilan bog'liq bo'lgan til materialistik dialektikaning bilish nazariyasi uchun asosdir.

Dunyoni bilish, idrok qilish tashqi dunyoni inson sezgilari orqali aks ettirishdan boshlanadi.

Sezgi-kishini o'rab olgan moddiy dunyo predmet va hodisalarining ongimizda aks etishidir.

Hissiy bilish sezgidan tashqari, hissiy qabul qilish va tasavvur kabi shakllarga ega bo'lib, ular ham voqea - hodisalarni chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bilish, ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga utish orqali amalga oshadi.

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr dunyoqarashining ildizini tashkil etib, uni kerakli hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi.

Har bir tarixiy davrning dunyoqarashi o'ziga xos bo'lib, mavjud tarixiy davrda u yoki bu ta'limotni nima uchun hukmron bo'lganligini bilish uchun oldingi davr dunyoqarashini, tarixini, rivojlanishini va uning o'sha ta'limot qanday qilib shu holatga kelib qolganligini o'rganmok zarur. Demak, jamiyatda yangicha tafakkur yuritmoq yangicha dunyoqarash, fikrlash uchun albatta o'tmishni bilish zarur, chunki yangicha tafakkur osmondan emas, balki ajdodlardan meros qolgan vorislik asosida vujudga keladi.

Yoshlarni tarbiyalashda, axloq-odobli, tartib-intizomli, ota-onaga mehribon bo'lishlarida, matonatli, chidamli, mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar bo'lishida, dunyoqarashning shakllanishida har bir ota-ona ularni yoshlik chog'idan sabr-toqatli, bardoshli, quntli, qanoatli bo'lishga o'rgatmoqlari shartdir.

Kishining dunyoqarashini, fe'l-atvorini mavjud muhit belgilar ekan, demak yaxshi odamni kutish uchun shu muhitni yaxshi odam shakllanadigan yaxshi muhitga aylantirish kerak.

Ilmiy dunyoqarash xususida gap borganda avvalo, o'quvchilar, yoshlar, unga zid, qarama-karshi turgan diniy, fantastik, mifologik, ateistik va boshqa g'ayri ilmiy dunyoqarashlar borligi uchun ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini tushunmoqlari, bu haqda to'g'ri fikr yuritishni o'rganmoqlari kerak.

Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi.

Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, Huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy g'ururning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki g'ururning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u muayyan tarixiy davrda insoniyat erishgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarashning har bir turi o'ziga xos xususiyatga egadir. Mifologiya qadimgi jamiyatda keng avj olgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavalantirilgan voqelikning fantastik in'ikosidir.

Mifologik dunyoqarash tabiat kuchlarini jonlantirib xudolar, afsonaviy kaxramonlar tarzida, bir xil buyumlar sifatini ikkinchisiga kuchirish, ularni hissiy obrazlar, alohida vujudlar shaklida tasvirlashga asoslanadi.

Mifologik tarzda fikrlovchi kishi har kandy o'zgarishlar va jasoratlar ko'rsatishi, o'zi uchun keng shakl maydoniga ega bo'lishi mumkin va g'ayri tabiiy kuch haqida tasavvur borligi uchun unda din elementlari ham mavjud bo'ladi.

Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki tabiatdan tashqarida xudoning qudratiga ko'nikib hamma narsada va har erda iloxiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuch bor deb tushuntiradi.

Din va diniy dunyoqarashga yaqin o'tmishimizda bir tomonlama yondoshilib, uning axloqiy munosabatlarni takomillashtirishdagi rolini to'g'ri tushinilmay kelindi. Dinga karshi kurashish paytida u bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusumlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy tarbiyadagi eng nozik va muhim tomonlarimizni va boshqa milliy qadriyatlarimizni ham inkor qilib yuborildi.

Endi bu sohadagi xatoliklar tuzatilmokda. Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi haqiqatligi anglanmokda.

Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati u dunyoni qanday bo'lsa, Shundayligicha, hech bir yot narsani aralashtirmay, uydirmalashtirmay, mubolag'asiz tushuntiriladi.

U kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari haqida bir butun yaxlit ma'lumot berib, mifologiyadan farqli ravishda insonni qurshab olgan moddiy olamni hech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiylikni, insoniyat jamiyati taraqqiyoti sabablari va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini to'g'ri, ilmiy asosda tushuntirib beradi.

Dunyoqarash pedagogik jarayon sifatida

Bilimni egallash murakkab ziddiyatli jarayon bo'lib, u insondan eng avvalo fiziologik jihatdan barkamollikni, Ya'ni 5 asosiy sezgi organlarini but-butun bo'lishini, hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni, kunt bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Dunyoning va butun borliqning ko'rki insondir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan er yuzidagi barcha mavjudotlardan afzaldir. Insonning tafakkuri, aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi. Ilm tufayli dunyoni biladi va uni boshqaradi. Hayvonlar tabiatga u qanday bo'lsa, Shundayligicha moslashib yashayveradilar. Inson esa tabiatni o'ziga moslashtiradi, o'zgartiradi.

Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar tula bo'lmagan bilimlardan tula bilimlarga qarab borishligini unutmaslik zarur. Masalan, qayta qurish munosabati bilan dunyo o'zgardi, oldingi tushunchalar ham o'zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatdagi hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham

o'zgarimas emas. Shu bois ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar oddiy tomoshabin bo'lib turaverishi kerak emasligini, bu o'zgarishlarning faol ishtirokchilari bo'lishlik, tahlil yo'li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi.

Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan Shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak. Kishilarning ongi ularning borligini emas, aksincha moddiy hayot sharoitlari, Ya'ni borligi ularning ongini belgilashligi, shundan dalolat beradi. Shu bois ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilaveradigan oddiy hodisa bo'lmay, kishining nazariy va amaliy bilim darajasiga bog'liqdir.

Biroq, aqliy jihatdan sog'lom odam agar kam bilsa ham ko'p o'qishi, o'rganishi natijasida o'z bilimini oshirishi, bilimlilarga etib olishi va ma'lum darajada ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi mumkin. Aql va bilim tajriba orqali qo'lga kiradi. Demak, bilimli odam aqlli, mulohazali ham bo'ladi.

Biroq, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda gen (zot) ning ham juda ahamiyati katta. Oldingi evropalashtirilgan ta'lim va tarbiya uslubimizda qilingan xatolardan eng buyugi, bizningcha zotga e'tibor bermaslik bo'lib, biz ta'lim oluvchining qobiliyatiga, uning zotiga e'tibor berib o'tirmay, agar etarli bilimni bersak kutilgan Shaxs shakllanaveradi, deb o'ylashimiz kerak edi.

Tabiat, jamiyat va tafakkur sohasidagi fanning barcha jabhalarida insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan va to'plangan bilimlardan hech bo'lmaganda boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, chinakam ilmiy dunyoqarash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Kishi dunyoni qay darajadagi bilim asosida bilsa, dunyoqarashining chuqur va sayozligi ham shu darajada bo'ladi.

12.1. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsadvazifalari

Inson o'z kamoloti davomida turli yo'nalishda tarbiyalanadi. Ular ma'naviy, ma'rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo'nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo'lajak mutaxassislarni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Iqtisodiy tarbiya — ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko'nikma hosil qilish. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Ular quyidagilar:

- iqtisodiyotning mohiyatini anglatish orqali inson iqtisodiy qudratining oila va

davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirishdagi ahamiyatini yoritish;

- inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylash;

- tejamkorlik, ishbilarmonlikka muhabbatni uyg'otish;

- oila budjeti va moddiy boyliklarni sarflash haqidagi bilimlarni yuksaltirish;

- tejamkorlik va boylikni ijtimoiy burch sifatida qarash;

- moddiy va ma'naviy boyliklar haqida muntazam ravishda tasavvurlar shakllantirish;

- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga ongli munosabatni tarbiyalash;

- iqtisodiyotni ilmiy asosda tashkil etish;

- mehnat samaraligidan faxrlanish.

12.2. Iqtisodiy tarbiyada oila budjeti tushunchasi

Har qanday tarbiyada ham o'sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to'liq anglab yetish o'sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas. Bu borada o'quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

- Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik samarani qoiga kiritish mumkin bo'ladi. Iqtisodiyotda, dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

- Oila budjeti.

Inson shaxs sifatida shakllandimi, endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini o'ylab sa'yharakatlarni qilishi lozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila iqtisodiy qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak. Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

- oilaviy ehtiyoj;

- oilaviy orzu-havas;

- oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak. Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozim. Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan imkoniyat hamda ne'matlarning qadrdimmatiga etishga erishiladi.

12.3. Iqtisodiy tarbiyada ma'naviy qadriyatlar

Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan. Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob-Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad bn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun

jalb etilgan. Bu borada Forobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o'rinlidir. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi. Talaba-yoshiarga iqtisodiy tarbiya berish yo'Haridan yana biri -bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir. Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o'gitlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi.

12.4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati

«**Ekologiya** (yunoncha **oikos** — **uy, turar joy** va **logos** — **ta'limot**) - organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: popul-yatsiyalar; biosenozlar; biogeosenozlar (ekotizimlar) va biosfera-ning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biolo-gik fanlar majmuyi. Ekologiyani organizmlar va ular atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham tal-qin qilinadi». «Ekologiya - yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir». Ekologiya termini 1866-yilda nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritildi. Olim tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosa-batlarini belgilash uchun shu atamani taklif etdi. Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII-XIX asrlarni qamrab oladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tadqiqotchi — olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning kishi organizmiga ta'sirini o'rganish natijasida bu fanga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Shu sababli, bu masala yechimiga bir, ikki davlat emas, balki o'z atrofimizdagi olam muvozanatini o'ylayotgan ko'pgina davlatlar e'tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer usti va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash, qo'riqlash hamda bu moddiy boyliklardan mamlakatimiz taraqqiyotini o'ylagan holda oqilona foydalanish, ob-havoning toza va musaffo bo'lishiga doimo harakat qilish, tabiiy (yer usti va osti) boyliklarni uzluksiz yuksaltirib borishni ta'minlash, atrofimizdagi olamni yaxshilash uchun doimo chora-tadbirlar ko'rib borishimiz ta'kidlangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, o'shayili «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi»ning ishiab chiqili-shi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rligidan dalolatdir. Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar boigan. Ayniqsa, «Avesto»da, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan. Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va

yaslilardanoq boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shu-lar asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi — yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir. Ekologik joy - ekomuhit - tabiatda tur yashashi mumkin bo'lgan barcha muhit omillari majmuyi.

1. Ekologik krizis — ekoSogik tanglik - ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkinishi; vulqon otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

2. Ekologik muvozanat — inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

3. Ekologik omillar - atrof-muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmuyi.

4. Ekologik madaniyat - kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat rnuhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarlik va boshqalar.

5. Ekologik tanglik xavfi - XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.

«Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolar-ga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salo-matligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Ekologik tarbiya - talaba-yoshlarning atrofimizdagi olamga, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashdan iborat. Demak, bundan ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni umumiy ta'lim-tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning yordamida talaba-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari yechimlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdir.

12.5. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi talaba-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Talaba-yoshlarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni

ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma'lumot keltirildi. Talaba-yoshlardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilib borilmog'i lozim:

- atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;
- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;
- «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da'vatning mazmun-mohiyatini bilishlikka;
- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabilarga.

3. Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunga talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida talaba-yoshlar ongida tasavvurlarni shakllantirish;
- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan muhosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini talaba-yoshlar ongiga singdirish;
- zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini talaba-yoshlar ongiga singdirishning axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;
- bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish;
- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;
- fanlarni o'qitishda talaba-yoshlarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish,

4. Talaba-yoshlarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, talaba-yoshlar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri — bir tomondan - muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan — musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida talaba-yoshlarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular talaba-yoshlarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular

orasidagi bog'lanish;

- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;

- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday boisa, o'shandayligicha qoldirishga intiiish va shu kabilar.

12.6. Talabayoshlar ekologik tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan boisak, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisob-ianadi va ular jahon ilmfaniga, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz. «Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv say!i» o'tkazgan. Ota-bobolarimiz «Suv - tabiat in'omi, hayot manbayi», deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfl paydo bo'ldi».Demak, talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urfodatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalik-ka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lom turmush tarzi hamda muhiti-ni tashkil eta olishga o'rgatiladi.

Ekologik tarbiya yo'nalishlari

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu bora-da o'ziga xos global va raintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar ham-da shu kabilar misol bo'la olsa, mintaqaviy muamraolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi Va shu kabilarni misol qilib olish mumkin. Shu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ladi. Quyida ularning ba'zilar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

- 1.Talaba-yoshlarni yashab turgan joyi'dagi tabiatimiz boyliklarini tejab tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.

- 2.Talaba-yoshlarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarakatrolarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.

- 3.Talaba-yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

- 4.Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.

- 5.Ekologik madaniyatni shakllantirish.

- 6.Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.

- 7.Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

8. Talaba-yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasalari va oila o'rtasidagi umumiylik va xususiylik.
10. Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.
11. Talaba-yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-ona ibrat na'munasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.
12. Talaba-yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.
13. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf-odatlarini tiklashga e'tiborni qaratish.
14. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Tabiatni e'zozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik» va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota-bobolari-mizning azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatish-ganligini talaba-yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *(Iqtisodiy tarbiya) deganda nimani tushunasiz?*
2. *Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*
3. *Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.*
4. *«Oila budjeti» deganda nimani tushunasiz?*
5. *Iqtisodiy bo'ylik tushunchasiga izoh bering.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

Barkamollikka erishgan odam barcha jonzotlardan yuqori turadi,
ammo agar u qonunlar va adolatga bo'y-sunmay yashasa,
hammadan tubandir. (*Arastu*)

O'QUVCHILARDA FUQAROLIK TARBIYASI

Reja:

1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari.
2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish.
3. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish
4. Huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan mushtarakligi.

Mavzuning maqsadi: Fuqarolik tarbiyasining mohiyati, mazmuni va maqsad-vazifalari hamda metodlari, huquqiy ong va fuqarolik madaniyati haqida tushuncha berish, yoshlarda davlat ramzlariga (bayroq, madhiya, tamg'a) hurmatni shakllantirish orqali fuqarolik va huquqiy madaniyatni tarbiyalash.

Mavzuning vazifalari:

- fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalarini ochish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan bog'liqligini ko'rsatish;
- davlat ramziari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish;
- yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda huquqiy tarbiyaning rolini belgilash.

Tayanch ibora va atamalar: fuqarolik, fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik madaniyati, fuqarolik mas'uliyati, fuqarolikni tan olish, fuqaro-siz shaxslar, fuqarolik tarbiyasining maqsadi, davlat ramzlari, davlat madhiyasi, davlat bayrog'i, davlat gerbi, fuqarolik burch, fuqarolik tuyg'usi, Vatanga sodiqlik, ma'rifatparvarlik.

13.1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari

Mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagogikada fikrlashga to'liq imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Natijada pedagogikada sog'lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat, fuqarolik madaniyati va an'analar, marosimlar, urfodatlariga mos tarzda ta'lim-tarbiya olib borish itnko-niyati yaratildi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy maf-kura fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan inson-parvarlik, dernokratik davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaro-ning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish - fuqarolik jamiyatning asosiy talabi sanaladi. Ushbu talab mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi huku-mati tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari mazmuni-da o'zining yorqin ifodasini topdi. Ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik madaniyatini shakllanti-rish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir. Bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy tarbiyasini keng

ko'lamda fuqarolik tarbiyasi bilan uyg'un holda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur talabni ijobiy hal etish «Davlat-ta'lim muassasalari jamiyat jamoatchilik» uyg'unligini yaratish asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga ongli ravishda rioya etishga o'rgatib borish;

2. Talaba-yoshlarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;

3. Vatanni himoya qilish borasida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;

4. Talaba-yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;

5. Talaba-yoshlarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini, shuningdek, adolatli, diyonatli, mehr-muruvvatli, ezgulikni himoya qiluvchi, va'daga vafoli shaxslarni shakllantirishga erishish;

6. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

7. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi va yurt mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga qodir fidoyi fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish;

8. Umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qilish hissini shakllantirish;

9. Yoshlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarini bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iborat:

- Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, shuningdek, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr qimmatini hurmat qilishga majburdir;

- * Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga m'ajburdirlar;

- Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;

- Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar;

- O'zbekiston Respublikasini har tomonlama himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

Zamonaviy milliy pedagogikada millat ruhiyatining va fuqarolik madaniyatining nozik jihatlariga kirib borish va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarni ham hisobga olish imkoniyati yaratildi. Fuqarolik madaniyati

deganda har bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonun-larni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi, huquqiy va demok-ratik davlat barpo etishning muhim sharti hamda fuqarolik jami-yatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi. Ayni paytda, barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonining obyekti emas, balki subyek-ti, ya'ni ijrochisi ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashlarini ta'minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi yoshlarda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga, jonli sifatda maydon-ga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holatiga fuqarolik deyiladi. Ya'ni, fuqarolik - bu shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lishi, shu davlatga mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansubligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi. Shu o'rinda fuqaro va unga tegishli tushunchalarni talabaoshlar ongiga singdirish ham o'ta muhim.

Fuqaro - huquqiy asoslar orqali ma'him davlatga mansub shaxs. Shaxs fuqaro hisoblansa, ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Fuqaroning huquqiy holati tegishli mamiakatda fuqaroliksiz shaxslarning yoki xorijiy mamlakatlar fuqarolarining huquqiy hola-tidan farq qiladi. Masalan, siyosiy huquqlar faqat fuqarolarga taal-luqli bo'ladi.

Fuqarolik mas'uliyati - jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan g'alaba, yutuq va muvaffaqiyatlarga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

Fuqarolikni tan olish - bu fuqarolikka ega bo'lish usullaridan biri bo'lib, u davlatning o'z hududida doimiy yashab kelayotgan yoki tegishli qonunda belgilangan tartibda mazkur davlat fuqaroligiga qabul qilingan shaxslarning mavjud huquqiy holatini yuridik mustahkamlaydigan, o'z ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan xatti-harakati.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holati-dan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi, saviyasidan qat'i nazar ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari deb tan olinadi.

Fuqaroliksiz shaxslar - biron-bir mamlakatga huquqiy mansub bo'lmagan shaxslardir. Bunday shaxslar har qanday mamiakatda, jumladan, O'zbekistonda ham mavjud. Ular siyosiy huquqlardan foy-dalanmaydi, o'zlarining xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligiga o'tishi mumkin. Fuqaroliksiz shaxslarning manfaati, huquq-erkinliklari qonun bilan himoya qilinadi.

Xalq - konstitutsiyaviy huquq fanida odatda muayyan davlatning barcha aholisi tushunilib, u yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy umumiylikni vujudga keltiradi (gajchi u bir necha milliy umumiylikka ega bo'lgan bo'lsa-da). Shu

ma'noda, zamonaviy Konstitutsiyalarda xalq to'g'risidagi «suverenitet egasi» va «hokimiyatning birdan bir manbai» degan iboralar ko'p ishlatiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir (7-modda). Shuningdek, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublika Oliy Majlisi qabul qilgan tegishli qoidalarda belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

- muayyan davlat a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy chambarchas bog'liq ekanligini tushunib etish;

- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;

- o'z xalqi va davlatining o'tmishi va hoziriga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlaridan davlat manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi istiqboli uchun kurashishga tayyor turish;

- davlat ramzlari (madhiya, gerb, bayroq)ga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ular muhofazasi uchun tayyorgarlik, davlat ramzlarining millat, xalq ornomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ekanligini anglash;

- ijtimoiy-siyosiy onglik ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash;

- huquq me'yorlarining buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish kabilar kiradi.

13.2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish

Davlatimiz ramzlari - bu Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (5-modda), bayroq, tamg'a, madhiya hisoblanadi va ular O'zbekiston xalqlarining shonharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat ramzlari muayyan millat, elat etnopsixologik xususiyatlarini, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuyidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerb (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuyini ifodalaydi. Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmun ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerb) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalarini ifodalashga xizmat etadi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi va bu borada ishlar amalga oshirildi.

Madhiya — bu biror shaxs, voqea yoki narsaning maqtoviga bag'ishlangan badiiy asar. Ba'zan asarning bir qismi ham madhiyadan iborat bo'lishi mumkin. Arab, fors va o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi an'analarga ko'ra, har bir yirik epik asarning bosh qismida maxsus maqtovlar berilgan.

Davlat madhiyasi - har bir davlatning bosh va asosiy qo'shig'i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o'ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi - bu O'zbekiston Respublikasining Davlat suverenitetining ramzi bo'lib, Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash mamlakat har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir. Madhiya musiqa va she'r vositasida ifodalanadi liamda davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasida jonajon mamla-katimiz O'zbekistonning asosiy jihatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag'ri kengligi, mustahkam imoni jo'shqin misralarda kuylanadi. Ushbu madhiyaga laniqli bas-takor Mutal Burhonov musiqa bastalagan. «Davlat madhiyasi haqi-da»gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi.

Davlat bayrog'i - bu davlat ramzlaridan biri bo'lib, uni boshqa mamlakatlardan farqlovchi bel-gidir. U mamlakat hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublika tabiati xususiyatlarini, xalqining milliy va madaniy sohalaridagi o'zligini aks ettiradi. Bayroq maxsus qonun bilan tasdiqlanadi va qayerda, qachon o'rnatilib qo'yilishi belgila-nadi. Bayroqning ko'rinishi, rangi, undagi belgilarning chuqur ma'nosi bor. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi (yangi oy) tasvirining beriiishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o'ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir, yulduzlar sonining 12 taligi yi! oylariga, muchal hisobiga nisbatidir. Umuman, yulduzlar qadimdan oq abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan, XVIII asrdan boshlab esa buyuk intilish hamda ulug' g'oyalarning ifodasi sifatida tal-qin etila boshlagan. Milliy bayrog'imizning huquqiy maqomi - O'zbekiston Respubli-kasining Davlat bayrogi to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalarga yetkazish mustaqillik darslari soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi. Bayroq mamlakatimizning o'tmishi, buguni va kelajagining yorqin ramzidir. «O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan. Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo' Imay, u respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog'i Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va hukumati, xalq deputatlari mahai-liy Kengashlari, O'zbekistonning doimiy vakolatxonalarini binolarida doim ko'tariladi.

Davlat razmlarining yana biri - bu davlat gerbidii. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbining qabul qilinishi «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun g'oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasi asosida amalga oshirildi.

Davlat gerbi — bu davlat ramz-laridan biri, davlatning tamg'asi bo'lib, muhrlarda, turli hujjat nus-xalarida, pul birligida aks ettirila-di. Uning ko'rinishi maxsus qonun bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog`lar, daryolar, bug`doy boshloqlari (chap tomonda), ochilgan g'o'za shoxlarining (o'ng tomonda) gulchambar holidagi tas-viri aks ettirilgan. Gerb o'rtasida serquyosh yurt ramzi bo'lgan quyosh o'zining zarrin nurlarini soc-hib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy (yangi oy — yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtirilgan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lgan kumush rangli Humo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Humo

qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodida keng talqin eti-lib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida davlat bayrog'i rang-laridagi chambar jiyak o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak ijtimoiy hayotning barcha jihat-larini ma'lum bir g'oya, kuch biriashtiradi, degan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshloqlarining tasviri rizqu ro'zimiz nishonasidir. Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo'riqlanadi. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hoki-rniyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvning mahalliy idoralari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va kon-sullik vakolatxonalarini kiradi. Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlar, hujjatlarning blankalari, ulardan foydalanish va saqlash, yo'qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solinadi. Davlat gerbi, shuningdek, fuqarolik pasportida, korxonalar, tashkilot, muassasalarning ish qog'ozlarda o'z ifodasini topgan. Inson shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim.

13.3. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkam-lash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari, huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiyhuquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir. Buning uchun O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, hayo-timizning asosiy qonuni - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning har bir moddasini puxta o'rganishi lozim. Boy o'tmish merosimizga murojaat qilganimizda milliy-ma'na-viy qadriyatlarga asoslanish zarur. Bunga sabab, talaba-yoshlarda bu orqali milliy g'umrni yuksaltirish samarali kechadi va bu yoshlar fuqarolik madaiyatining yuksalishiga olib keladi. Talaba-yoshlar fuqarolik ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishni quyidagi ketma-ketlikda olib borgan ma'qul. Qomusiy olimlar hayoti va ijodi milliy g'ururni yuksaltirishda muhim asos bo'lib, yoshlarning fuqarolik burchiga sadoqatni yuk-saltiradi. Bunda ko'proq al-Beruniy, al-Farg'oniy, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ismoil Jurjoni, Qozizoda Rumi, al-Koshiy, Ali Qushchi kabi buyuk siymolar haqi-dagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq;.Fuqarolik tarbiyasi negizidaxalq o'tmishi, tarixini o'rganish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga talaba-yoshlarni jalb etish pedagogika fani, tarbiyada ko'zlangan maqsadga eltuvchi yoi sanaladi. Talaba-yoshlarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, fidoyi fuqaro sifatida shakllantirish bilan yakunlanadi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlar taqozo etiladi. Bular:

1. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati talabalar vao'qituvchilar jamoasining saviyasiga va undagi fuqarolik tuyg'usining nechog'liq yuksakligiga bog'liq bo'ladi;

3. Oila, maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi;

4. Talaba-yoshlarning axloqiy va huquqiy me'yorlarga hamda umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish va boshqalardir.

Fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burch va mas'uliyatiga egalik (o'z vatani, xalqi, otaonasi oldidagi qarzini his eta olishi);

- milliy g'urur, Vatanga sodiqlik, ma'naviy yetuklik va ma'rifatparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;

- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;

- fidoyilik, ya'ni Vatan tuyg'usi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik hissini shakllanganligi;

- ijtimoiy-huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;

- mamlakat milliy va ma'naviy boyliklariga nisbatan hurmat bilan qarash va ularni asrash borasidagi fuqarolik burchi nimalardan iborat ekanligini anglash;

- milliy davlat tili, madaniyati va an'analariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish va ularni asrab, boyitib takomillashtirib borishda jonbozlik ko'rsatish;

- ijtimoiy faollik, mamlakat taqdiri, taraqqiyotiga bog'liq har qanday xattiarakatda jonbozlik ko'rsatish;

- demokratik tamoyillarga amal qilish va fuqarolar tengligi hamda ularning o'zaro munosabatlari mazrnundorligiga e'tiborli bo'lish;

- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish va bu boradagi davlat hujjatlarini chuqur o'rganishga erishish;

- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lishda huquqiy ong hamda burchlar to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lish;

- o'z faoliyati va xatti-harakati borasida to'g'riso'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lish va boshqalar.

13.4. Huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan mushtarakligi

Milliy mafkuraning mazmun-mohiyatida «asosiy maqsad - demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish», deb belgilangan. Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy bilimi va madaniyati hamda ma'naviyatini yuksaltirish g'oyat muhim va dol-zarb muammodir. Fuqarolarning huquqiy bilimi, madaniyati va ma'naviyati qancha yuksak bo'lsa, huquqiy davlat shuncha kuchli bo'ladi, mustaqilligi-miz mustahkamlanib, barqarorlashib boraveradi. Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, xalq ommasi qonun-qoidalar va huquqiy me'yorlarga, qonuniy aktlarga, 'eng muhimi O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga ishonch-ixtiyor, ixlos, imyon-e'tiqodli munosa-batda bo'lish va rioya qilishiga odatlanmasa, huquqiy davlatni tasav-vur etib boimaydi. Huquqiy davlat ommaning siyosiy ongliligi, uyushqoqligi, siyosiy hushyor va ziyrakligi, hayotimizda ro'y berib turadigan har bir nar-sa va hodisaga ko'r-ko'rona emas, balki aql-idrok, bilim va tafakkur, fahm-farosatli yondashganligi bilan kuchii. Huquqiy bilim va mada-niyat millat o'zligi va inson barkamolligining eng muhim omillaridan biridir. Har qanday bilim va ma'rifat singari huquqiy bilim va madaniyat ham jamiyat taraqqiyotiga mos paydo bo'lgan talab va ehtiyojlar, mavjud shartsharoit va imkoniyatlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Bolalarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda oilaning roli va ahamiyati katta. Shuning uchun Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvaio oilada shakllanadi», - degan edi Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tabrik so'zida.

Bilim olish huquqi - O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblanadi. Unga asosan, har kim bilim olish huquqiga ega. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim olish bepul, ya'ni umu-miy ta'lim olish uchun haq to'lanmaydi. Umumiy ta'lim bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan har bir kishi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish huquqiga ega. Bu ta'lim belgilangan sinovdan o'tganlar uchun bepul, qolgan shaxslar pul to'lash bilan bilim olishni davom ettirishlari mumkin.

Bilim olish huquqi umumiy maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurt-laridagi faoliyatlar orqali ta'minlanadi. Bundan tashqari, aspirantura va doktoranturada ham bilim olish mumkin (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi).

Konstitutsiyaviy huquq - har bir mamlakatning huquq tizimidagi yetakchi huquq. Uning yetakchiligi shundaki, boshqa har qanday huquqlar tartibga solinadigan huquqlar tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosi Konstitutsiyaviy huquqda belgilanadi (masalan, bilim olish huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq va h.k.). Konstitutsiyaviy huquq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tuzilishning asoslarini, saylov tizimini, insonning aso-siy huquq, erkinliklarini va burchlarini o'rnatuvchi, tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Milliy teng huquqlilik - shaxsning huquqiy holati tamoyillaridan. Barcha fuqarolar, millatidan qat'i nazar, qonun oldida, davlatni boshqarishda va barcha huquqlardan foydalanishda tengdir. Bu masa-lalarda hech bir millatga imtiyoz berilmaydi. Ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilinadi va ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Milliy g'urur - xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli o'zbek xalqning milliy g'urur tuyg'usi jahon bo'ylab qad ko'tardi. Jahon xalqlari mehnatkash, shon-shuhrati yuksak bo'lgan o'zbek xalqini tan oldi. O'zbekiston fuqarolarining hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini muqaddas sanalib, ular davlattomo-nidan himoyalaniadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi - insonning asosiy konstitutsiyaviy shaxsiy huquqfaridan biri bo'lib, shaxsiy va oilaviy sirlarni qonun bilan himoya qilishni anglatadi. Dunyodagi eng yaxshi konstitutsiyalar shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz to'plash, saqlash, foydalanish va tarqatishni ta'qiqlab, bu qoidani shaxsiy hayot daxlsizligining kafolati sifatida belgilaydi.

Huquq — ushbu so'zning bir necha ma'nosi bo'lib, birinchidan, u davlat tomonidan bajarilishi majbur qilingan yurish-turish qoidalari, xatti-harakatlar yig'indisi. Ikkinchidan, huquq tushunchasi fuqarolarga berilgan imkoniyat. Huquq konstitutsiyaviy va oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy normalar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan belgilanadi. Uchinchidan, huquq o'z navbatida tarmoqlarga bo'linadi.

Ular: konstitutsiyaviy huquq;

ma'muriy huquq;

fuqarolik huquqi;

jinoyat huquqi va boshqa-lar.

Ular alohida hujjatlar bilan mustahkamlanib qo'yiladi.

Huquqiy davlat - davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi huquqiy davlatda quyidagi shartlar, albatta, bo'lishi shart: xalq hokimiyatining amalga oshishi; shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi; konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linish tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi.

Huquqiy madaniyat - fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'yi singari unsurlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qiimasa, jamiyat uchun katta zarardir. Huquqiy madaniyat - har bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi. Huquqiy ong - kishilarning huquqqa, qonunga odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi. U hur-matda bo'iish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik kuchli bo'lsa, bu huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi. Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Fuqarolik tarbiyasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
2. *Fuqarolik madaniyatini izohlab bering.*
3. *«Fuqarolik» deganda nimani tushunasiz?*
4. *Fuqarolik mas'uliyatini tushuntirib bering.*
4. *Fuqarolik tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?*
5. *Fuqarolarning burchlarini tushuntirib bering.*
6. *«Davlat ramzlari» deganda nimani tushunasiz?*

1. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi” T., “Sharq” 1999 y
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
3. O‘. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y
4. A. To‘xtaboev, A. Eraliev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon., “Xayot” 2001 y
5. O. Musurmonova “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” T., “O‘qituvchi” 1990 y
6. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y
7. M. To‘xtaxo‘jayeva “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2010 y

SHAXSNI MA’NAVIY -AXLOQIY RUHDA TARBIYALASH

Tarbiyaning tarkibiy qismlari :

1. Aqliy tarbiya
2. Ahloqiy tarbiya 6. Nafosat tarbiyasi
3. Ekologik tarbiya 7. Xuquqiy tarbiya
4. Jismoniy tarbiya 8. Mehnat tarbiyasi
5. Iqtisodiy tarbiya 9. Siyosiy tarbiya



Ахлоқ - kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bolishlikni talab qiladi. SHunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish-turishiga axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: «Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qilado'rgan kitobni axloq deyilur»!.

Axloq - inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yolarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Ibn Sino: «Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilshi ilmidur», deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me'yori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy

zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Demak, axloqning rivojlanishi ob'ektiv shart-sharoitlari bilan sub'ektiv omillarning o'zaro munosabati qay darajada ekanligi bilan bog'liqdir.

Zotan, dunyodagi barcha mamlakatlar, millat yoki elatlar uchun odatlar, rasm-rusumlar, axloqiy qoidalar bir xil bo'lishi mumkin emas. Bu qoidalar tarixan tarkib topgan bo'lib, iqlim va joy, an'ana va sharoit ta'sirida o'zgarib, rivojlanib boradi. Ana shularning hammasini bilib, ularni o'z o'rnida to'g'ri tushunish ham tarbiyalanganlik belgisi hisoblanadi.

Ayni vaqtda, mintaqaviy hududni o'z ichiga oladigan bir qator xalqlarning turmush tarzidan, yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan qoidalar ham mavjuddir. Masalan, shu ma'noda sharqona yohud o'zbekona degan iborani ishlatamiz.

O'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doimo madad bo'lib to'rgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda. Chunki bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirinib kelinar edi. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish milliy tarbiyamiz uchun obektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. SHuning uchun ham Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon SHarqi axloqi bir qator asarlarni yaratgan. CHunonchi, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar «Avesto» kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. SHuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongni, o'zini o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab - quvvatlash,

birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch - qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

MA'naviy –axlokiy tarbiyaning tub mohiyati hozirgi ijtimoiy shart-sharoitda mamlakatimiz istikboli va istikloli tugrisida gamgurlik kilish,uzligini anglash,Vatani va xalkining nimaga kodirligini ,uz kadr kimmatini bilish,bor imkoniyatini Vatan,xalk ravnaki yulida xalol mexnat kilish,yuksak goya va kashfiyotlarni tugri yunaltir ылish,bu yulda fidoyi bulishdan iboratdir,Yurtboshimizning “Yuksak ma'naviyat -engilmas kuch” asarining xar bir satrlari aynana ma'naviy axlokiy tarbiyaning butun mazmun va mohiyatini ifoda etgan desak ayni xakikatdir. Prezidentimiz mustakillikning dastlabki iyllaridayok ma'naviy-axlokiy tarbiyaning tub ildizlari va mazmuni xakida “Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan kuroli ekan,undan okilona foydalanish,bolalarimizni vatanparvarlik,rostguylik,xaksevarlikka urgatish kerak buladi. Aslini olganda,axlok -ma'naviyatning uzagi.Inson axloki shunchaki salom-alik,xushmuomaladangina iborat emas.Axlok-bu avvalo insof va adolat tuygusi ,iymon,xalollik degani” purma'no fikrlari bilan barcha madaniyatli va ma'rifatli insonlarga kelajak vazifalarning tub mohiyatini kursatib utgan edilar.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenti ,Akademik Islom Karimovning ilgari surgan fikr va goyalari asosida ma'naviyatning kuyidagi tarkibiy kismlari aniklandi:

- madaniy-ma'rifiy yuksaklik;
- ijtimoiy-didaktik tarakkiyot;
- falsafiy-pedagogik usish;
- iymon-e'tikodning butligi;
- milliy odob-axlok normalariga tula rioya kilish;
- ilm-ma'rifatli bulish;
- insonparvarlik,xalkparvarlik,vatanparvarlik,adolatparvarlik;
- milliy kadriyatlarga muxabbat;
- fidoiylk,jasurlk,mardlik,tashabbuskorlik;

-poklanish;

-islom diniga e'tikodlilik;

-Vatan va xalk mustakilligini doimiy ravishda ximoya kilish va unga xizmat etish;

-Ajodlar va ularning merosiga chukur xurmat.

Yukorida kayd etilayotganlarning mazmun moxiyatini xar bir talaba-yoshlar ongida, xar bir Uzbekiston fukorosining ongida rivojlantirish,xayotining mazmuniga aylantirish bugunning doimiy dolzarb vazifasiga aylanishi shart va zarurdir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsatga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va xatti – xarakatni asta – sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarining maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga aval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifasi.

Tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

Tarbiya maqsadi – talaba – yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Ma'naviyat – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, ahloqiy qiyofa tushunchasi bo'lib ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi umumam hayotdir.

Ahloq – inson hayotida o'z – o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish ma'daniyatini, halol ishlab, to'g'ri xayot kechirish me'zonlarini o'rgatadi.

Ma'naviy ahloqiy tarbiya – ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq – atvor ko'nikmalari va odatlarini xosil qilishdan iborat.

Nazorat savollari:

1. Tarbiya printsipi deb nimaga aytiladi ?

2. Tarbiya printsiplarining har birini tafsiflang.
3. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganlik printsiipi;
4. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqlik printsiipi;
5. SHaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash printsiipi;
6. Tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;

Adabiyotlar:

1. Y.I.Tursunov, U.N.Nishonaliev "Pedagogika kursi".T. "O'qituvchi"1997.
2. A.K.Munavvarov "Pedagogika". T. "O'qituvchi". 1996.
3. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi".T. "O'qituvchi".1995.
4. "Pedagogika tarixi". Xoshimov va boshqalar.Toshkent.1995.
5. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova " Pedagogika nazariyasi va tarixi" Toshkent " Fan va texnologiya " nashriyoti 2010.
6. Safo Ochil. Mustakillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.T.,»Ukituvchi«, 1995 yil.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.

Reja:

1. O'zbekiston ta'lim tizimi haqida umumiy tushuncha.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi modellari.
3. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi turlari.

Ta'limiy maqsad: Xalq ta'limi tizimi haqida tushuncha berish, uning tuzilishi va printsiplari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'qitishning inson xayotidagi o'rni va ahamiyatini asoslashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston va jahon ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qilish.

Xalq ta'limi tizimi deb, muayyan mamlakatning ichki va tashqi kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

O'zbekiston xalq ta'limi tizimi respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustivor sohasi hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim sohasidagi Davlat siyosatini, umuminsoniy qadriyatlarini, xalqning tarixiy tajribasini,

madaniy va fan sohasidagi ko'p asrlik an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini hisobga olgan holda ish yurgizadi.

Xalq ta'limi tizimi respublikamizning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini angelaydigan har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41-moddalarida ta'kidlanganidek, Respublikamizda yashovchi barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga ega. Shuningdek, bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu huquq ilm olishning hamma turlari tekinligidir. Yoshlarga umumiy majburiy o'rta ta'lim berishning amalga oshirilishi, o'qitishni hayot bilan, unumli mehnat bilan bog'lash asosida rivojlantirish bilan, o'quvchilarga va talabalarga Davlat stipendiyalari va imtiyozlar berish bilan, maktab darsliklarini tekin berish bilan (qisman), maktabda davlat tilida (o'zbek tili) o'qitish imkoniyatlarini yaratib berish bilan kafolatlanadi.

1991 yilning 1 sentyabr respublikamiz hayotida tarixiy voqea-respublikamiz mustaqilligi e'lon qilindi. Shu munosabat bilan dunyo tajribalaridan kelib chiqib, eng birinchi navbatda mustaqil respublikamizning xalq ta'limini qayta hurish masalasi ko'tarildi.

Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillarida, ya'ni 1992 yil 2 iyulda Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi birinchi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun avvalo, O'zbekiston ta'limida ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Aniqrog'i, eski tuzumdan yangisiga o'tishga ko'prik vazifasini o'tadi. Shu bilan birga 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun yaratgan imkoniyatlarga sabab, ta'lim tizimiga qator Yangiliklar kirib keldi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga test tizimi joriy qilinishi, kasb-hunar bilim berishga e'tiborni kuchaytirilishi kabilar shular jumlasidandir.

Yangi tuzum talablariga javob beradigan, xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qiladigan qonun qabul qilish ehtiyoji qondirilib, 1997 yil 29 avgustda O'zbekistonning Yangi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi va ta'lim tizimini jiddiy yangilanishiga sabab bo'ldi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, ta'lim ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustivor deb e'lon qilindi va xalq ta'limi tizimi tuzilishining quyidagi yangi qoidalari joriy qilindi:

1- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakter ekanligi.

Buning mohiyati shundaki, bizdagi barcha xalq ta'limi tizimiga kiruvchi muassasalarda berilayotgan ta'lim va tarbiya insonlarni moddiy va ma'naviy kamolotini, aql-zakovatining o'sishi, insoniy faoliyatining barq urishi va nig'oyat, o'zligini bilish va haq-xuquqlari uchun kurashadigan chin vatanparvar bo'lib yetishishlarini maqsad qilib qo'yadi.

2- Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.

Mustaqil O'zbekistonimizning xalq ta'limi muassasalarida berilayotgan ta'lim va tarbiya uzluksiz (ya'ni bir-birini to'ldiradi) o'zaro bog'liq. har bir boshlang'ich ta'lim o'quv reja va dasturlari asosida keyingi ta'lim turlariga

moslangan, shu sababli keyingi bosqichlar oldingilarining davomi sifatida faoliyatda bo'ladi. Bu o'z navbatida bir maktabdan ikkinchisiga, bir oliy o'quv yurtidan ikkinchi oliy o'quv yurtiga ko'chib o'tish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim esa o'quv yurtiga ko'chib o'tish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim o'quv rejasi va dasturi, davlat ta'lim standartlari asosida tizimli, izchil faotiyatda bo'ladi.

3- Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi. 1930 yilda boshlang'ich, 1949 yilda yetti yillik, 1958 yilda sakkiz yillik, 1970 yilda o'rta umumiy majburiy ta'limga asos solindi. 1984-1988 yillardan boshlab, o'n bir yillik majburiy ta'limga o'tildi. Mustaqillik sharofati bilan mazkur masalada ham o'zgarish sodir bo'ldi. Yangi qonun umumiy o'rta (I-IX sinf) ta'lim, ya'ni IX sinf va keyingi uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar (litsey yoki kollej) ta'limini majburiy deb tasdiqladi.

4- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.

Yangi qonun yosh avlodni qiziqishlari, iste'dodi, imkoniyatlarni hisobga olgan holda hayotda o'z yo'lini tanlashiga keng imkoniyat beradi. Oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladigan, o'zlari hohlagan yo'nalishda chuqur bilim oladigan akademik litseyda o'qish yoki kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiradigan, tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiradigan, tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonni beradigan kasb-hunar kollejlarda o'qishni tanlash ixtiyoriydir.

5- Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi.

Respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. U ilmiy asoslarga ega bo'lib, fan, texnika, madaniyat va ma'rifatning eng yangi muvaffaqiyatlari va inson aql-zakovati tufayli takomillashib boradi. Ular o'quvchilarni ob'yektiv dunyoni bevosita bilish, ular haqida haqqoniy fikrlash, tegishli xulosalar chiqarish, dunyoni bilish, o'zining jamiyatda tutgan o'rni va vazifalarini aniqlab olishga, biron bir kasbni ongli egallashlariga yo'naltirilgan.

6- Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham ta'lim-tarbiya masalasiga alohida o'rin ajratilgan. Chunonchi, qomusning 41-moddasida shunday deyilgan: «har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish Davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari Davlat nazoratidadir. Bu sermazmun va purma'no qonun 42-moddada yanada rivojlantiriladi». «har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutug'laridan foydalanish xuquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.»

7- Ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan o'quv reja va dasturlarini tasdiqlaydi. Ularning bajarilishi yuzasidan nazorat qiladi. Davlat ta'lim standartlari asosida fanlararo bog'lanishni hisobga olib, ularni o'qitish soatlarini aniqlab beradi va ularga javob beruvchi darsliklar tuzilishi, nashr etilishini ta'minlaydi. Shuningdek o'quvchilarning iste'dodi, qobiliyatini hisobga olgan holda Tabaqalashtiradi (biror bir fanga chuqurlashtirilgan yoki ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan dastur). Olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar yosh

avlodni ma'naviy boy, ruxan tetik, jismonan baquvvat, axloqan pok, tafakkuri keng va mehnatsevar bo'lib voyaga yetishi uchun barcha moddiy va ma'naviy sharoit hozirlaydi.

8- Bilimli bo'lishni va iste'dodlarni rag'batlantirish.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan bilimdon va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Respublikamiz tajribasida bilimdon, iste'dodli o'quvchilar uchun stipendiya, turli ko'rinishdagi maqtov yorliqlari, moddiy yordam shaklida tashkil etilgan. O'quvchilar turli tanlov, konkursarga qatnashadilar va bilimlarni ko'rsatadilar. G'oliblar taqdirlanadi va xatto oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirish, biror kasb bo'yicha guvoxnomalarga ega bo'lish huquqlariga egadirlar.

9- Ta'lim tizimida Davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs bo'lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab, yuridik shaxs huquqini qo'lga kiritadi.

Ta'lim muassasalariga muayyan maqom (gimnaziya, litsey, kollej, oliygoh, akademiya va shu kabilar) berilishi, ta'limni boshqarishga tegishli idoralar tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalari o'zaro bitim tuzishga, o'quv tarbiya komplekslari va o'quv ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishga haqlidirlar.

Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarning vazifalari, xuquqlari va majburiyatlari o'z ustavlarida belgilanadi.

Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim-tarbiya muassasalariga tavsif.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning yagona tizimi (11-18 modda) amal qilib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim.
2. Umumiy o'rta ta'lim.
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.
4. Oliy ta'lim.
5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
7. Maktabdan tashqari ta'lim.
8. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish.

Ta'lim tizimida o'quv rejaları va dasturlari muvofiqlashtiriladi. Ta'lim bosqichlari va shakllarining izchilligi, ta'limning standartlariga mos kelishi ta'minlanadi.

1. Maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bundan ko'zlangan maqsad, bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uni bilimga qiziqishini ta'minlashdan, ma'naviy-axloqiy extiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muxabbat qo'yishni o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan, milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

2. Umumiy o'rta ta'lim.

bosqichlari quyidagicha:

boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (V-IX sinflar);

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqilfikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, o'quvchilar tanlovi bo'yicha kurslar joriy etilishi va fanlar chuqur o'rgatilishi mumkin. Bunday kurslarning dasturlari umumta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.

O'rta maxsus. Kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qitishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallagan kasb-hunar bo'yicha ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.

Akademik litseylar o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, Tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

4. Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassilar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki huquqga: Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi Bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan extiyojini ta'minlashga qaratilgandir. Ta'limning bu turi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqti-vaqti bilan attestatsiya va akkreditizatsiyadan o'tkazib turiladi.

6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish. Ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, san'at maktablari, musiqa maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqalar kiradi.

Turli xildagi maktabdan tashqari muassasalar faoliyatiga davlat tomonidan ko'mak beriladi va nazorat qilinadi.

8. Oiladagi va mustaqilravishda ta'lim olish.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli muassasalarning dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

9. Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish.

Oktyabr inqilobidan keyin xalq komissarlari Sovetining 1918 yil yanvar oyidagi qarori bilan maktab cherkovdan, din davlatdan ajratildi. Maktablarda diniy bilimlar berish bekor qilindi.

Din va din homiylari ta'qib ostiga olindi. Diniy ruhda yozilgan barcha kitoblar yo'qotib yuborildi. Chet tillarini o'rganish susaydi. Milliy ta'lim-tarbiya e'tibordan chetda qoldi. Shu tariqa Respublikamiz yoshlari fan-texnika va dunyo madaniyati tarixi va yangiliklaridan xabarsiz bo'lib o'sishdi. Dunyoqarashlarida chegaralanish alomatlari ro'y berdi.

Xalq ta'limi va Yangi qonun asosida o'quvchilarning bilim va iste'dodlarini vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadida chet tillarni amalda o'rganish borasida sharoitlar yaratdi, chet tillarni chuqur o'rgatadigan maktab, litsey va gimnaziyalar ochdi. Vatan tarixini chuqur biladigan, jahon madaniyati tarixidan xabardor o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun barcha vositalar, sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo'yicha maktab rejalariga yangi fanlar kiritildi va hokazo.

10. Ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy siyosiy harakatlarning ta'siridan holi bo'lishi.

Yosh avlodga dunyoviy bilimlar berish, ularni tom ma'noda hayotga, turmushga tayyorlash, yoshlarning fikrlarini chalg'itmaslik, guruhbozlikka yo'l qo'yimaslik maqsadida ta'lim-tarbiya muassasalari siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy

harakatlaridan qoli deb topildi. O'qituvchi-tarbiyachilarga esa siyosiy va ijtimoiy harakatlarni maktab hayotiga tadbiq etishlarini qoraladi.

11. Tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni xurmatlash.

Ta'lim tizimida barcha pedagoglarni davlat talablari darajasida o'qitishni, majburiy hisoblangan fanlarning reja va o'quv dasturlari asosida olib borishlari, tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini xurmat qilish, vijdon erkinligi, axborot erkinligini, o'z qarash va e'tiqodlarini erkin ifoda etishlariga sharoit yaratib berish mas'uliyati yuklatildi.

Ta'lim oluvchilar va davlat standartlariga, yosh va individual xususiyatiga, iste'dod va qiziqishlariga muvofiq ta'lim olish tavsiya etildi. Ta'lim muassasalarining ustavi va ichki tartib qoidalariga rioya qilish mas'uliyati aniq belgilab berildi.

12. Pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini xurmatlash.

Oldingi qabul qilingan qoidalardan farqli o'laroq, yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini xurmatlash kiritildi.

O'qituvchi-tarbiyachilarini, ularning sha'ni va qadr-qimmatlarini ximoya qilish, malaka oshirish, qayta tayyorlashdan o'tish, ta'lim shakli, metodi va vositalarini tanlashda tashabbus ko'rsatish, pedagogik mehnatda tanilgan o'qituchi-tarbiyachilarni davlatimiz orden va medalari bilan mukofotlash, ularni qishloq, shahar, tuman, viloyat va respublika oliy organlariga saylash umumxalq vazifasi deb topildi.

Shu bilan birga ularning axloq-odob qoidalariga rioya qilishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini xurmatlashlarini, ma'naviy, tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xurmat ruhida, atrof muhitga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash mas'uliyati yuklatilgan va hokazo.

13. Amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shakllarida ta'lim muassasalarining teng huquqliligi, ularning mustaqilligi.

Ta'lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs bo'lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab (akkreditizatsiya) yuridik shaxs xuquqini qo'lga kiritadi.

Ta'lim muassasalari o'zaro bitim tuzishga, o'quv tarbiya komplekslari va o'quv-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishga haqlidir.

Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarning vazifalari, xuquqlari va majburiyatlari o'z ustavlarida belgilanadi.

Yangi qonunnig afzalliklari shunda ediki, xech qanday maqsadsiz o'n yillik ta'limni o'n bir yillik ta'limga aylantirilishdek xatoni to'g'rilashi edi. Vaholanki, 9-sinfni bitirgan yoki 11-sinfni bitirib, oliy o'quv yurtiga kira olmagan yoshlarimiz na bir aniq ixtisos, na bir ertangi hayotga kerak bo'ladigan malaka va bir kasb-hunarni egallay olmasliklari, shuning oqibatida 16-18 yashar yoshlar o'z qobiliyati, xavasi, intilishiga mos, hayotda o'ziga munosib o'rin topa olmayotganini oldi olindi.

Qonun asosida 9-sinfni bitirgan o'quvchilar o'z ixtiyorlari bilan tanlangan akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida bilim olishlari majburiy. Endi bu yoshlar ma'lum bir mehnat ko'nikmasiga, bir yoki bir necha kasbga ega bo'lishlari va

unumli mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari yoki o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Mustaqi Respublikamiz rahbariyati xalq ta'limi tizimini mazmunan yanada yaxshilash borasida juda katta tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'limi, xalq ta'limi tizimini vazirliklarning bevosita rahbarligida respublikamizda yangidan-yangi maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari ochilmoqda. Ularda davlat tili-o'zbek tilini o'qitish yo'lga qo'yilgan. Barcha ta'lim muassasalarida O'zbekiston xalqlari tarixi, chet tili, hisoblash texnikasi kabi fanlarga jaxon standartlari talabida e'tibor qaratilgan. AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Turkiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi rivojlangan mamlakatlarning xalq ta'limi vazirliklari bilan o'zaro kadrlar tayyorlab berish borasidagi shartnomalar tuzilgan. Bu jarayon o'z samarasini bermoqda. Milliy ta'lim tizimida yosh avlodni hayotga tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Xalq ta'limi tizimini islox qilish, kadr tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgartirishlarni kiritish maqsadida maxsus xukumat komissiyasi tuzilib, 1997 yil 29 avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Qonunda islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish printsiplari qo'yilgan. Birinchi bosqich - o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi.

Ikkinchi bosqich - 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich - 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z omillari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, asosiy yo'nalishlari va tamoyillariga ega.

Xo'sh, ta'limda davlat standarti nima?

Ta'limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va xis qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy axvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davllarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish extiyoji paydo bo'ldi. Bu holat ta'lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart-ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish. Ya'ni u o'quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, extiyoji hisobga

olinishi lozim. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari qo'lga kiritish uchun zarur bo'lga sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o'quvchiga singdirishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiy o'rta maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan G'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'limni standartlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan Frantsiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQSHda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga Davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham, mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda. DTS barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogika faoliyatidagi samaradorlikni nazorat qilish vositasidir. Hozir

yaratilayotgan barcha didaktik vositalarning ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'lim vositalari o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, ginetik va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zi o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli harakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., "Sharq" 1999 y
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
3. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
4. A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
5. O. Musurmonova "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" T., "O'qituvchi" 1990 y
6. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
7. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI

4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Mustaqillik yillarida, O'zbekiston Respublikasida, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashyirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisida IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- 1) fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar i'rgatishning huquqiy asoslari;
- 2) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- 3) har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi;
- 4) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- 5) ta'lim muassasasining huquqiy m\aqomi;
- 6) ta'lim tizimi va turlari;
- 7) ta'lim jarayonini qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- 8) ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi- jamiyatda intellektual va ilmiy potensialni revojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat;

1. Ta'lim-tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda bo'lishi,
2. Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi ;
3. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar talimining majburiyligi ;
4. Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining
5. O'zbekistonda ta'lim taraqqiyoti muammolari va istiqbollari.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Mustaqillik yillarida, O'zbekiston Respublikasida, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi

qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- 1) fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari;
- 2) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- 3) har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi;
- 4) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- 5) ta'lim muassasasining haquqiy maqomi;
- 6) ta'lim tizimi va turlari;
- 7) ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- 8) ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi – jamiyatda intellektual va ilmiy potentsialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- 1.ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi,
- 2.ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- 3.umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining majburiyligi;
- 4.umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yo'nalishlarini tanlashning ixtiyorligi;
- 5.ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- 6.davlat ta'lim standarti doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- 7.ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- 8.bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- 9.ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi ko'rsatilgan. Ta'lim va

tarbiyaning insonparvarlashuvi insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. SHuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va hiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va har kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmining kengaytirish, turli yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etish, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi.

Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi tamoyili respublikada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik asosida faoliyat yuritishlarini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

SHuningdek, davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq faoliyat olib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi mazmuniga ko'ra bir tipdagi o'quv yurtlarining biridan ikkinchisiga o'tib o'qish imkoniyati mavjud. CHunonchi, ta'lim oluvchilar bir maktabdan ikkinchi maktabga, bir akademik litseydan ikkinchi akademik litseyga bir shaharda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtidan ikkinchi shaharda joylashgan oliy o'quv yurtiga o'tib ta'limni davom ettirish huquqiga egalar.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyiligi tamoyili o'zida, birinchidan, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bililar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash va kasb tanlash ko'nikmalari shakllantirish; ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohalashtirilgan, tabahalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlash; uchinchidan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyiligi tamoyilining asosiy mohiyati o'quvchilarning yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanliklarini anglatadi. Bu iki turdagi uch yillik maxsus ta'lim yo'nalishlarini o'quvchilar o'z iqtidorlari va

xohish-istaklariga tayangan holda tanlaydilar. Ana shu tarzda o'quvchilarning biron bir shaklda bilimlarini takomillashtirish, muayyan kasb-hunar egasi bo'lib yetishishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo'lga kiritib boradi. Ta'lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga yetkazib berishni ta'minlaydi. SHu bois ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda bo'lishi talab etiladi. SHuningdek, ta'lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarib, kelajakda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ni qonunining 4-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga egalar. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan moddada, yana shuningdek, chet ellik fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanligi bu tamoyilning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishini bildiradi.

Respublikamizda ta'lim, o'zbek, rus, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bunday yo'l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida «yakshanbalik maktablari» tashkil qilingan bo'lib, har bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o'z ona tilida ta'lim olish imkoniyatiga egalar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 7-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma'nosi shuki, har bir ta'lim turi uchun alohida davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko'zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi ta'lim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta'lim standarti asosida ta'lim muassasalari o'zlarining o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu ta'lim olish maqsadi yagona bo'lgani holda, unga erishish yo'llari turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod

va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va talabalar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevralda qabul qilingan «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoniga binoan ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar (bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha) hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi (texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi uchun tanlovlar tashkil etilmoqda. SHuningdek, iqtidorli talabalar uchun «Beruniy», «Ulug'bek» hamda «Navoiy» nomidagi stipendiyalar joriy etilgan bo'lib, ularning sovrindorlari bo'lgan talabalarning faoliyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bundan tashqari iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek» va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan. Ayni vaqtda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2000 nafardan ortiq talabalar xorijiy mamlakatlarda tahsil olib, o'z bilimlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlar respublikada bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish tamoyilining to'laqonli ravishda amaliyotga tatbiq etilayotganligining yorqin isbotidir.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Ta'lim tizimi va turlari. Ta'lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Respublikaning ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Respublika «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

- 1) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar);
- 2) umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish¹ bosqichi. Umumiy o'rta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilib, o'quvchilarga I-IX sinflar hajmida davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq fan asoslari bo'yicha majburiy ta'lim beriladi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi esa ularning istiqbollari ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi amalga oshiriladi. Mazkur ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mustaqil tur hisoblanadi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi – umumiy o'rta ta'lim negizida majburiy-ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, o'quvchilarga ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik asoslariga oid bilimlarni berish bosqichi. Mazkur muassasalarda ta'lim olish o'quvchilar tomonidan majburiy-ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 35-bet.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida, tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kasb-hunar kollejarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom hamda o'rta ma'lumotga ega bo'lganlik to'g'risidagi guvohnomalar beriladi. Ular bitiruvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisoslik va kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Bakalavriyat – mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrlilik dasturi tugatilgandan so'ng bitiruvchilarga «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlarida tahsil olish (aspirantura, doktorantura) muayyan ilmiy daraja (fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi)ni olishga imkon beruvchi dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli mutaxassislik yo'nalishlarida fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma va sertifikat topshiriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning

bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Maktabdan tashqari ta'lim davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida olib boriladi.

2. Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimini o'rganish maqsadida AqSH, Frantsiya, Yaponiya davlatlarining ta'lim tizimi tarkibini yoritmoqchimiz.

I. Amerika qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) maktabgacha tarbiya muassasalari – 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi;

2) boshlang'ich maktablar (1-8-sinflar) – 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar;

3) o'rta maktablar (9-12-sinflar) – 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'rta maktab quyi va yuqori bosqichdan iborat.

4) oliy ta'lim - 2 yoki 4 yil mobaynida kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi.

5) universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etiladigan aspirantura va doktoranturadir.

AqSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarruflar hamda diniy muassasalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Amerika qo'shma Shtatlarining maktablari uchun yagona o'quv rejasi yo'q. Har bir shtat o'z o'quv rejasiga ega. SHunga ko'ra Shtatlarda boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6 va 8 yillik bo'lishi mumkin.

II. Yaponiya ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich maktablar, yuqori o'rta maktablar hamda oliy ta'lim beradigan universitetlarni oladi.

Bolalar bog'chalariga bolalar 3-5 yoshlarida boradilar va 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan boradilar va 6 yil o'qiydi. Boshlang'ich maktabni tugatgandan keyin kichik o'rta maktabda 3 yil ta'lim oladilar. Yaponiyada 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladi, ular tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yuqori bosqich o'rta maktab Yaponiyada ixtiyoriy bo'lib, uning kunduzgi, kechki va sirtqi turlari mavjud. O'qish muddati 3 yil.

Oliy ta'limga yuqori bosqich o'rta maktablarni tugatgan bitiruvchilar qabul qilinadilar. Oliy ta'limni universitetlarda olish mumkin. Oliy ta'lim tizimiga kirgan

bo'lsada, o'rta maxsus ta'lim beradigan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlikdan o'tish imkonini beruvchi kollejlari ham mavjud. Yaponiyada faoliyat olib borayotgan 460 ta universitetning yarmidan ko'pi xususiydir.

III. Frantsiyada ta'lim tizimi quyidagi bosqichlar asosida shakllangan:

1. Maktabgacha tarbiya – 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni o'z ichiga oladi.

2. Boshlang'ich ta'lim – 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning 3 bosqichda ta'lim olishlariga imkon beradi. Tayyorlov bosqichi uchun 1 yil, elementar kurslar uchun 2 yil ta'lim muddati belgilangan. Boshlang'ich ta'limning 3-bosqichi 2 yillik chuqurlashtirilgan bosqichdir.

3. O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. O'rta ta'limning birinchi bosqichi 4 yillik ta'lim beruvchi kollejlari, ikkinchi bosqich esa 3 yillik ta'lim beruvchi litseylarda amalga oshiriladi. 3 yillik litseyni tugatgan bitiruvchilar «Bakalavr» darajasini olish uchun imtiqon topshiradilar.

4. Oliy ta'lim universitetlar va oliy ixtisoslik maktablarida olib boriladi.

3. Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, «menejment» va «menejer» atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasida davlat-jamoat boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamaları hozirgi talqinda korxon va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta'lim muassasasi menejmentining quyidagi vazifalari ko'rsatib berilgan:

- uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;
- barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi
- ta'limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;
- ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;
- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarning, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi.

Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;
- ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);
- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;
- ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining (1997 yil) 3-moddasida, ya'ni ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta'limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o'zini vakolatlik doirasida:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqaradi; - ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;
- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;

- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Xalq ta'limi Vazirligining mahalliy organlari quyidagilar sanaladi:

Xalq ta'limi vazirligining mahalliy organlariga xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo'limlari kiradi. Xalq ta'limi bo'limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi. Qoraqolpoqiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar va tuman bo'limlari ikki tomonlama - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga va tegishli ravishda Qoraqolpoqiston Respublikasi Vazirlar kengashiga, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga bo'ysunadilar.

Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlash ham kiradi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga yordam ko'rsatadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv-ta'lim va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi¹.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o'tkaziladigan maktab jamoasining konferentsiyasi jamoatchilik boshqaruvining yuqori organi hisoblanadi. Konferentsiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi, o'qitish qaysi tilda olib borilishi aniqlanadi va xokazo. Konferentsiyalar oraliqida o'z - o'zini boshqarishning yuqori organi vazifasini maktab kengashi bajaradi. Maktab kengashi bir yilda 4 marta chaqiriladi.

Davlat ta'lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatishi ham ta'limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

¹ «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tog'risida»gi Nizom, 1998.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom, ta'lim muassasalarining Ustavi – ta'lim muassasalarini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy hujjati. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizomda quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. Umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari.
3. Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish.
4. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
5. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
6. Umumiy o'rta ta'limni boshqarish.
7. Mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnika ta'minoti.
8. Xalqaro hamkorlik.

Nizomga asosan, umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini yoritish Nizomning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, majburiy va qo'shimcha komponentlar umumiy o'rta ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi.

Majburiy komponent davlat ta'lim standarti bilan belgilanadi va o'quvchilarni tayyorlashning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida bilimlar asoslarini yanada puxta o'rganish va kasb egallash uchun yetarli bo'lgan zarur darajasini belgilaydi.

qo'shimcha komponent o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. qo'shimcha o'quv yuklanmalarining hajmi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan normativlariga muvofiq belgilanadi. O'quvchilar bilim sifati va ta'lim natijalarining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini nazorat qilishni ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o'tkazish ham nazarda tutiladi.

Bosqichli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlandi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo'lmagan ta'lim muassasalarida esa muassis tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida, umumiy o'rta ta'limda ham xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomning sakkizinchi bo'limida qayd etilganidek, umumiy o'rta ta'limni boshqarish organlari va ularning mahalliy organlari sanalgan ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlikni pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning tajriba o'rganish va malaka oshirish maqsadida progressiv xalqaro jamg'armalar va tashkilotlarning grantlarini olish sohasidagi davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiradilar.

Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim (maktab)ni har tomonlama boshqarish mohiyatini o'zida ifoda etadi.

«Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 204-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi maslalar yoritilgan

1. Umumiy qoidalar.
2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni qabul qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish.
6. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash va moddiy-texnika ta'minoti.
7. Xalqaro hamkorlik.

Umumiy qoidalarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qitish muddati 3 yil bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga muvofiq amalga oshirilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yuridik shaxs hisoblanishi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilishi bayon etilgan.

Ikkinchi bo'limda o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish haqida gapiriladi.

Quyidagilar o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining vazifalari sifatida belgilangan:

- davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb - hunar dasturini bajarish:

- o'quvchilarning uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish, tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur va yetarli bo'lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish:

- respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Bundan tashqari ushbu bo'limda akademik litseylar qoidaga ko'ra, Oliy ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilishi, kasb - hunar kollejlari esa hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislari bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisoga olgan holda tashkil etilishi ko'rsatib berilgan.

Uchinchi bo'limda o'rta – maxsus, kasb - hunar ta'limi muassasalariga o'quvchilar qabul qilish; umumiy ta'lim va kasb - hunar dasturlarini amalga oshirilishi; nazorat turlari; kursdan – kursga, o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi muassasasining bir turidan boshqasiga o'tkazish va diplom berish tartiblari bayon etilgan.

To'rtinchi bo'limda esa akademik litseylar va kasb - hunar kollejlari kimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligi; Ushbu ta'lim muassasalariga professor - o'qituvchilarni va muxandis pedagoglarni ishga qabul qilish qay tarzda amalga oshirilishi aytib o'tilgan.

Beshinchi bo'limda o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini boshqarish tartibini o'z ichiga oladi. Unda akademik litseylar va kasb - hunar kollejlari tashkiliy, o'quv – uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv ta'lim va kasb - hunar dasturlarini birxillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi markazi), uning hududiy boqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda ta'lim muassasasi direktori tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Oltinchi bo'limda o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi, ta'lim muassasasining moliyaviy mablag'lari uning tasarrufida bo'lishi belgilab berilgan.

Ettinchi bo'limda esa o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi muassasalari belgilangan tartibda xorijiy sheriklar bilan bitimlar tuzish huquqiga egaligi, xorijiy mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlashi mumkinligi e'tirof etiladi.

Ta'lim muassasining Ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

1) davlat ta'lim standartida, belgilangan bilimlar zahirasini egallash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerakligi ;

2) bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o'rgatish).

SHuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi, o'quvchilar hamda ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan.

Masalan, o'quvchilar ta'lim standartlari asosida ta'lim olish uchun intilishlari, ta'lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta'lim berishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashlari zarur. Ta'lim muassasasi rahbari (direktori) esa o'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'min etadi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga to'laqonli rioya etilishi, ma'naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ustavda o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zaro munosabatning o'rnini kabi masalalar mohiyati ham yoritib beriladi. CHunonchi, ta'lim muassasasining direktori o'qituvchilar bilan baland ovozda, ularning nafsoniyatiga tegadigan so'zlar bilan muomala qilish huquqiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasida, amalda bo'lgan «Umumiy o'rta ta'lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Ustavi» Xalq ta'limi Vazirligining 221-sonli (1998 yil 17 dekabr), «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining Ustavi» esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-sonli (1998 yil 5 yanvar) qarorlari bilan tasdiqlangan. Mazkur Ustavlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasasi Ustavini ishlab chiqish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Ta'limni boshqarishning vakolati mas'ul davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim muassasasining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lim tili, guruh raqbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xujalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko'rsatib berilgan.

Ta'lim muassasasining Ustavi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. qisqacha ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlar.
2. Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.
3. Ta'lim muassasasini boshqarish:
 - a) ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;
 - b) pedagogik-jamoa Kengashi;
 - v) direktor, uning huquq va burchlari;
 - g) direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining huquq va burchlari;
 - d) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining huquq va burchlari.
4. O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:

- a) ta'lim mazmunining Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;
- b) o'quv jarayonini tashkil etish;
- v) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;
- g) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi;
- d) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish;
- j) kunlik ish tartibi (seminar, mashg'ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va hokazolar).

5. O'qituvchi. Huquq va burchlari.

6. O'quvchi. Huquq va burchlari.

7. O'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ma'muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.

8. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas'uliyatlari.

9. Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

4. Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari. Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham o'z vazifalarini bir qator tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim tizimini boshqarishda asos bo'lib xizmat qiluvchi tamoyillarni ular tomonidan bajariladigan vazifalar (rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish)ga tayanilgan holda belgilanishiga alohida urg'u berilgan. Mazkur o'rinda ta'lim muassasasini boshqarishning har bir tamoyiliga (Clastenin V.A. «Obhaya pedagogika» 2003 yil) o'quv qo'llanmasiga tayangan holda) alohida-alohida ta'rif berishga harakat qilamiz. Ta'lim muassasasi boshqaruv nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardi

TMB-TAMOYILLARI.

- pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish;
- boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi;
- boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan uqolatlarining ratsional uyg'unligi;
- yakka uqokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi;
- ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning ob'ektivligi va ta'liqligi

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda sub'ektning sub'ektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z iste'dodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

Boshqarishning tizimliliigi va yagonaligi. Ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinchi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integrtsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integrtsiyalana olish sifati hosil bo'ladi. To'rtinchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi.

SHuningdek, markazlashtirilmalikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko'zga tashlanadi.

Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy va jamoatchilik boshqaruvni rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zosining javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi.

O'z navbatida yakkahokimlikning o'ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi.

qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul bo'lsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish ma'quldir.

Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning ob'ektivligi va to'liqligi. Ta'lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq, to'liq yig'ilsa yoki haddan ziyod ko'p bo'lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.

Biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni yig'amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo'nalishiga e'tibor beramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.


Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. SHuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instruktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi ma'muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir (38-chizma).

Axborotlar jamg'armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi.

Maktab ichki boshqaruvining o'ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko'rinadi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.
2. Maqsad qo'yish va rejalashtirish.
3. Tashkil qilish



38 - chizma. Boshqaruv axborotining turllari

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan, avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo'lmaydi.

Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o'qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog'liq. Agar o'z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to'g'ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o'zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

- 1) kundalik tahlil;
- 2) tizimli tahlil;
- 3) yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko'tarish hamda ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o'quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.

2. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat.

Boshqaruv faoliyatining maqsadi – ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin.

Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi:

- 1) muddatli (perspektiv);
- 2) yillik;
- 3) yakuniy.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so'nggi yillarda, ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga

mo'ljallab qabul qilinadi. Ta'lim muassasasida, qabul qilinishi mumkin bo'lgan muddatli reja quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar.
2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari.
3. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.
4. Ta'lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo'yilgan talablar.
5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.
6. Ta'lim muassasasini texnika hamda o'quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko'rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko'lamini rivojlantirish.
7. O'qituvchi va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi ta'tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Yakuniy rejalashtirish o'quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko'rinishi hisoblanadi. SHu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko'rinishlari o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar qo'mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejaları bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to'la amalga oshirilishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi.

3. qabul qilingan rejalarni to'liq amalga oshirish uchun tizimli harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo'lishini tashkil etishlari kerak. «Tashkil etish» tushunchasi bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi.

Birinchiidan, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo'ladi.

Ikkinchiidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarni amalga oshiruvchi, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi.

Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta'lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis,

direktor o'rinbosarlarining majlisi, tezkor yig'ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin.

Pedagogik Kengash faoliyati demokratik va oshkoralik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol-javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlari ko'riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig'ilishlarida ta'lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doir dolzarb masallar hal qilinadi. SHuning uchun pedagogik Kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta'lim muassasalardan direktor yig'inlari tashkil etiladi. Direktor yig'ilishlarida rahbariyat va o'qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin.

Ta'lim muassasasi o'rinbosarlarining yig'ilishlarida kundalik savollar va ma'muriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta'lim muassasasi rejasi bo'yicha o'quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo'lib o'tadi. Tezkor axboriy majlislar ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarining mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o'uvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi.

4. Ichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o'rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik, ob'ektivlik, harakatlilik, to'ldiruvchilik kabilarni ko'rsatish mumkin.


Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta'lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo'yilishi.
2. Ta'lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifati.
4. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.
5. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati.
6. Darsdan tashqari tarbiya ishlarning tashkil etilish holati va sifati.

Pedagogik kadrlar bilan ishlash.

7. Ta'lim muassasasi faoliyatining o'ziga xos samaradorligi.
8. qabul qilingan qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning bajarilishi.

Ta'lim muassasasi ichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtda muammoli masala bo'lib qolmoqda. SHunga qaramasdan, ko'pgina pedagogik adabiyotlarda ichki nazoratning quyidagi turlari ajratilib ko'rsatiladi:



39 - чизма. Таълим муассасаси ички

Mavzuli nazorat qandaydir aniq masalani o'rganishda ta'lim muassasasi jamoasi, o'quvchilar guruhi yoki alohida o'qituvchining pedagogik faoliyati tizimi, ta'lim muassasasidagi ta'lim darajasi, shuningdek, o'quvchilarning ekologik va estetik tarbiyasi tizimiga e'tibor qaratiladi.

Frontal nazorat butun pedagogik jamoa, metodik kengash yoki alohida o'qituvchi faoliyatini o'rganishga qaratiladi.

Alohida nazorat biror bir o'qituvchining faoliyati, sinf (guruh) rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini mavzuli, frontal tkshirishga asoslanadi.

Sinf-muloqot nazorat shaklida sinf jamoasining dars va darsdan tashqari jarayonida shakllanishiga ta'sir etuvchi o'ziga xos omillar e'tiborga olinadi.

Predmetli nazorat shakli bitta yoki bir necha sinf (guruh)larda, butun ta'lim muassasasida ta'lim olinganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi.

Mavzuli umumlashtiruvchi nazorat shaklining bosh maqsadi turli fan o'qituvchilari va sinflarning alohida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi ishlarini o'rganishdan iborat.

Majmuaviy (kompleks) nazorat shakli bir necha o'quv fanlari bir yoki bir nacha sinf (guruh)larda turli o'quvchilarning ishlarini o'rganishni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi.

5. Tartibga solishning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilishda ta'lim muassasasining oldiga qo'yilgan maqsad va rejalarini amalga oshirish, boshqaruv ishini tashkil etish hamda nazorat qilishda yo'l qo'yilgan holatlarni tuzatishdan iborat.

Tartibga solish boshqaruv faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. U o'tgan o'quv yilida erishilgan natijalarni, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hisob qiladi. Ana shu asosdan kelib chiqib, yangi o'quv yilida ta'lim muassasasi oldiga maqsad va asosiy vazifalarni qo'yadi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Fan-texnika taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi

yangiliklar, psixologiya-pedagogika fani rivoj topayotgan bir davrda o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ravishda ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari, mustaqil izlanish ko'nikmasiga ega bo'lish va ijodkor bo'lishlarini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilab qo'yilganidek, har jihatdan barkamol, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash uchun bugungi kun o'qituvchisi siyosiy, ilmiy-metodik va umumpedagogik saviya, o'z ishiga ijodiy yondashish, o'z burchiga nisbatan fidoiy bo'lishga bog'liqdir. Bu dolzarb masalani samarali hal qilish ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbari, ularning ta'lim-tarbiyani boshqarish layoqatlari hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishni tashkil etish va nazorat qilishga bog'liqdir.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy bilimlarini takomillashtirish, natijada esa o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini keskin oshirishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya ishlarining murakkablashib borishi o'qituvchi oldida turgan vazifalarni kengaytirmoqda. SHunga ko'ra, pedagoglarning malakasini oshirish tizimida ularni ijodiy izlanishga odatlantirish, ijodkorlikdagi faolligini rag'batlantirish maqsadiga muvofiq ish olib borish muhim ahamiyatga egadir. SHu maqsadda pedagogik kadrlar malakasini oshirishning bir qancha shakllari ishlab chiqilgan. Bu shakllardan nafaqat maktab pedagoglarining malakasini oshirishdagina emas o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbarlari ham xabardor bo'lishlari va ulardan muvaffaqiyatli foydalana olishlari lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish shakllari quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1. Ta'lim muassasasi doirasida malaka oshirish yo'llari:

- ta'lim muassasasida fanlar bo'yicha tuzilgan metod birlashmalar;
- ta'lim muassasasi pedagogik kengashi;
- ta'lim muassasasida tashkil etiladigan doimiy harakatdagi seminar o'qishlar;
- maqsadli ochiq darslar;
- konferentsiya va pedagogik o'qishlar;

2. Ta'lim muassasasidan tashqari malaka oshirish yo'llari:

1. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda markaz, viloyat va tumanda o'tkaziladigan kurslar;
- murabbiylik asosidagi kurslar;
- eksternat kurinishidagi kurslar;
- qisqa muddatli kurslar;
- erkin tinglovchilar kurslari;
- sirtidan va qatnab ta'lim olinadigan kurslar;
- muammoli (maqsadli) kurslar;
- shaxsiy reja asosida tashkil etiladigan kurslar;
- mualliflik kurslari;
- doimiy harakatdagi kurslar.

2. Maktabgacha bolalar muassasalari xodimlarning malakasini oshirish respublika kurslari.

3. Tuman Metodika kabineti tomonidan pedagoglarning malakasini oshirish ishlari:

- ilmiy – metodik, pedagogik yoki amaliy konferentsiyalar, seminar, seminar – kengashlar;
- bir muammo yoki mavzu asosida tashkil etilgan doimiy harakatdagi seminarlar;
- tuman fan o'qituvchilari metodika uyushmalari;
- tayanch va ilg'or tajriba muassasasi ishlari;
- ta'lim muassasasi rahbarlari Metodika uyushmalari;
- pedagogik o'qishlar.

4. Radio va televidenie orqali beriladigan eshittirishlar, matbuot sahifalari.

Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish. Pedagog kadrlar attestatsiyasi ularning kasbiy mahoratlarining o'sishini rag'batlantirish, ta'lim-tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni qo'llash, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlardagi natijalarni xolis baholash, egallab turgan yoki da'vogarlik qilinayotgan toifa va lavozimlarga munosiblikni aniqlash, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasi 5 yilda bir marta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test Markazi tarkibidagi «Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi hamda Xalq ta'limi Vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan jadvallar asosida tashkil etiladi. Xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlar tarkibiga professor-o'qituvchi, o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktoriga, musiqa va to'garak rahbarlari kiradi.

Pedagog kadrlar attestatsiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

6) pedagog kadrlar o'z mutaxassisligi hamda me'yoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test sinovidan, suhbatdan o'tkaziladilar;

7) pedagog o'qitayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning bilim va o'zlashtirish darajasi o'rganiladi;

8) o'quvchilar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkaziladi.

Pedagogning umumiy bali test, suhbat natijalari, o'quvchilarning bilim darajasi, ilmiy, o'quv-metodik ishlari va ixtirolari, ijodiy ishlari, ish staji, pedagogning komissiya tomonidan o'rganilgan kasbiy mahorati va rahbariyat tomonidan berilgan baholar yiqindisidan iborat bo'ladi.

Maxsus maktablar, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, madaniyat, sport, san'at sohalari pedagog kadrlari, muhandis-pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ustalari o'z mutaxassisliklari bo'yicha suhbatdan o'tkaziladilar.

Pedagog kadrlar uchun me'yoriy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test savollari to'plami O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»,

Davlat ta'lim standartlari, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, yangi pedagogik texnologiyalarga oid masalalardan iborat bo'ladi.

Komissiya attestatsiya natijalariga ko'ra pedagogning ushbu jarayondagi faoliyati «Attestatsiyadan o'tdi», «Attestatsiyadan shartli o'tdi» va «Attestatsiyadan o'tmadi» tarzida baholanadi.

Mutaxassis toifaga ega pedagog «Attestatsiyadan o'tmadi» deb e'tirof etilganda, shuningdek, tayanch ma'lumoti dars berayotgan faniga mos kelmaydigan pedagog kadrlar qayta tayyorlash kurslaridan o'tmagan bo'lsa, tegishli ta'lim muassasasi rahbari pedagogga o'z mutaxassisligiga ko'ra attestatsiyadan o'tishni hamda qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursida malaka oshirishni taklif qiladi. Mazkur takliflarga rozi bo'lmagan o'qituvchilarning mehnat shartnomasi (amaldagi qonunchilik asosida) bekor qilinadi.

«Attestatsiyadan o'tmadi» deb topilgan pedagoglar hamda qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga yuborilgan pedagoglar bir yildan so'ng qayta attestatsiyadan o'tkaziladilar.

Yosh o'qituvchilar bilan ishlash. Yosh o'qituvchilarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Haqiqatan ham yosh o'qituvchi ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi)ga ishga keldi deylik: uni o'qituvchilar bilan ishlashga tayyor deb ayta olamizmi?

To'g'ri, oliy o'quv yurtida u yaxshi nazariy bilimlarga ega bo'ladi va shu bilan bir vaqtda pedagogik amaliyotdan ham o'tib keladi. Biroq, u oliy o'quv yurtini tamomlashi bilan o'qituvchi degan nomga ega bo'ladi. Tabiiyki, unda o'qituvchilar bilan ishlash tajribasi yetarli emasligi bois mehnat faoliyatining birinchi yilidayoq bir qator muammolarga duch keladi. Zero, yosh o'qituvchiga xarakteri turlicha bo'lgan o'qituvchilar guruhi bilan ishlash oson kechmaydi. U o'z o'qituvchilarining qobiliyat darajasi, o'zlashtirishdan ortda qolayotgan o'qituvchilar shaxsini o'rganishda ularning har biri o'ziga xos xotira, fikrlash layoqati va diqqatga ega bo'lishlarini hisobga olmaganligi sababli o'qituvchilarda bilimlarni hosil qilishni tartibga olish imkoniyatini qo'ldan boy beradi. Yosh o'qituvchining eng katta xatosi, u o'zini bilimi sayoz o'qituvchilar bilan ishlashdan olib qochadi. Uning uchun bilimi yuqori bo'lgan o'qituvchilar bilan ishlash oson tuyuladi. Natijada qoloq o'qituvchilarning tengdoshlaridan ortda qolishlari kuchayadi, ularning rivojlanishi ta'lim jarayonida tartibsiz kechadi.

Yosh o'qituvchilarga yordamni tashkil etishda asosiy bo'g'in – bu ular bilan bevosita ishlashni yo'lga qo'yishdir. Ularga ma'ruzalar o'qish, nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish shart emas, chunki ular oliy ta'lim muassasasida yetarli ma'lumotlarni oladilar. Yosh o'qituvchi amaliy maslahatlarga ehtiyoj sezadi. Bunday yordamni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- barcha yosh o'qituvchilarni jalb etish orqali;
- ogohlantirish orqali har bir o'qituvchining darsini kuzatish yo'li bilan;
- yosh o'qituvchining ishi bilan yaqindan tanishish orqali.

Bundan tashqari oliy o'quv yurtlarini tamomlab, maktabda ishlayotgan yosh mutaxassislar va ular olib borayotgan ta'lim-tarbiyaishlarini o'rganish, ularga tegishli metodik yordam ko'rsatish, yo'l-yo'riqlar va maslahatlar berib borish, turli

mavzularda ijodiy kechalar, tajribali hamda faxriy o'qituvchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish maqsadida tuman Metodika kabineti qoshida «Yosh mutaxassislar maktabi»ni tashkil qilish mahsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.



ТА`LIMNI BOSHQARISH ORGANLARI

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta'lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti, shuningdek xalqaro mashhur xorijiy OTMLar (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kompetentsiyasiga quyidagilar taalluqli:


- ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini olib borish;
- davlat ta`lim boshqaruv organlariga rahbarlik qilish;
- ta`limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta`lim muassasalarini yaratish, qayta tashkil etish va bekor qilish tartiblarini belgilash;
- ta`lim muassasalari akkreditatsiyasi, pedagogik va ilmiy kadrlar attestatsiyasi tartiblarini belgilash;
- boshqa davlatlar ta`lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta`lim ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonunchilikka mos ravishda xorijiy davlatlarning ta`lim haqidagi hujjatlarini tan olish tartibini belgilash va teng-kuchli kanligini o'rnatish;
- davlat ta`lim standartlarini belgilash;
- davlat namunasidagi ta`lim hujjatlarini va ularning berilish tartibini belgilash;
- ta`lim muassasalariga qabul tartibi va davlat grantlari miqdorini belgilash;
- davlat oliy ta`lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta`lim olayotganlarni bir akkreditatsiyalangan ta`lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vakolatlar.

O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvini ikki vazirlik - [Xalq Ta'limi Vazirligi](#) (XTV) va [Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi](#) (OO'MTV) - amalga oshiradi.

XTV maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar va umumiy ta'lim maktablari faoliyati uchun mas'uldir. XTV boshqaruvida o'qituvchilar malakasini oshirish 5 OTM va 16 instituti mavjud. Vazirlik joylardagi tegishli ta'lim muassasalari faoliyatini metodologik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga ega.

OzR XTV tizimi TASHKILY STRUKTURASI



OO'MTV respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.

OzR OO'MTV tizimi TASHKILY STRUKTURASI



Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta'lim muxim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonodan boshlanganidek, bolalarimiz ta'lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi.

Glossariy: Menejment- mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga taʼsir oʻtkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Nazorat-(taʼlim jarayonida)taʼlim oluvchining bilim, koʻnikma va malakalari darajasini aniqlash, oʻlchash va baholash jarayoni

Nazorat uchun savollar: Taʼlim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy tamoyillari mohiyatini izohlab bering.

Taʼlim tizimi deb nimaga aytiladi?

Uzluksiz taʼlim tizimi bosqichlarini sanab bering.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning vazifalari nimalardan iborat?

Nazorat shakli haqida ayting?

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning taʼlim tizimi Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimidan farq qiladimi? Farqli jihatlarni koʻrsating.

7. Taʼlim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarishga taʼrif berish?

Test savollari

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga asosan oʻrta maxsus taʼlim beradigan oʻquvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan. Kasbga yoʻnaltirilgan taʼlimni taʼminlaydigan, yangi tipdagi taʼlim muassasasini koʻrsating:

A) Gimnaziya;

B) Akademik litsey;

C) Universitet;

D) Kasb –hunar kolleji;

E) Oʻrta maktab;

2. Qaysi javobda oʻqituvchilarning professional malakasini oshirishning samarali shakllari koʻrsatilgan?

A) Maktab kengashi, pedagogik kengash, metodik kengash;

B) Dars praktikumlar, seminarlar, Laboratoriya va fakultativ mashgʻulotlar;

C) Metod birlashmalar, pedagogik oʻqishlar, malaka oshirish institutlari, ilmiy- amaliy anjumanlar, muammoli seminarlar;

D) Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Umumiy oʻrta taʼlim maktabi toʻgʻrisida”gi Nizom, “Umumiy Oʻrta taʼlim maktabi Ustavi”;

E) Pedagogik oiliy oʻquv yurtlari;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonuni. Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
3. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom .Xalq ta'limi j., № 6, 1999.
4. «Umumiy o'rta ta'lim maktabi Pedagogika Kengashi to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti j., № 3, 2002.
5. «Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodika Kengashi to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti j., № 3, 2002.
6. Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan Metodika birlashmalari to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti j., № 3, 2002.

TA'LIM QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

REJA:

1. Ta'lim qonuniyatlari
2. Ta'limning ilmiyligi va tushunarligi
3. Ta'lim tamoyillari
4. Mustaqillik va faollik
5. Ko'rgazmalilik va onglilik

Mavzu bo'yicha tayanch so'zlar:

Ta'lim qonuniyati, qoidasi, ta'limning ilmiyligi, ta'limning izchilligi, ta'limning mosligi, loyiqligi, ta'limda onglilik, ko'rsatmalilik, ta'limning tushunarli bo'lish qoidasi, ta'limning faollik qoidasi.

Ta'lim qonuniyatlari

Ta'lim jarayonini izchillik bilan tizimli ravishda tashkil etishga o'qituvchi tomonidan o'z faoliyatini didaktik talablar doirasida tashkil etishga ta'lim qoidalari yordam beradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim qoidalari o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar sifatida izohlanadi. Ammo, ta'lim jarayonida ham o'qituvchi ham o'quvchilar ishtirok etishadi, shu sababli ta'lim qoidalari jarayonining ikkala sub'ektiga- ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. Ta'lim qoidalari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi. SHundan kelib chiqan holda, ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan pedagogik talablar ta'lim qoidalari, deb ataladi. Ta'lim qoidalari ta'lim ishtirokchilari tomonidan so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan talablardir.

Ta'lim qoidalarining vujudga kelishi, rivojlanishi pedagogika fani tarixi bilan bog'liqdir. Ilk bor ta'lim qoidalarini O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz Abu Nosir Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchratish mumkin. Maktab tarixida shakllangan ta'lim qoidalarini izohlash, tizimga solish va pedagogik talablar sifatida asoslash esa buyuk chex pedagogi

Yan Amos Komenskiy nomi bilan bog'liqdir. U o'zining mashhur «Buyuk didaktika» asarida pedagogik amaliyotdagi qoidalarining ko'pchiligini chuqur o'rganib, tajribadan o'tkazib izohlab berdi.

Buyuk pedagog tabiatga moslab o'qitish g'oyasidan kelib chiqib ko'rsatmalilik, tushunarlik, izchillik, faollik bilim malakalarining puxtaligi. Ta'lim qoidalarini tartibga solish va ulardan amaliyotda foydalanishning mezonlarini o'rganish hali ham davom etmoqda.

U yoki bu didaktik hodisaga oid qarashlarini didaktik qoidalar qatoriga kiritishning o'ziga xos mezonlari mavjud. Shunday o'lchovlarga quyidagilar kiradi.

Umumiylik. Ta'lim qoidalari o'quv-tarbiya jarayonining barcha turlariga-ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari uchun mushtarakdir. Binobarin, bolalarning real bilish imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim mazmunini belgilashda, ta'limning turli me'yoriy modellarini (o'quv dasturi, darslik, o'quv qo'llanmalari) yaratishda, ta'limning tashkiliy shakllari, vositalari, metodlarini tanlashda ta'lim qoidalariga rioya qilinadi.

Amaliyot uchun yaroqlilik. Ta'lim qoidalari pedagogik amaliyotga yo'nalgan. Ta'limning hozirgi zamon talablari darajasida tashkil etish, boshqarish va nazorat etish ehtiyojlariga mos bo'lmagan qarashlarni, ta'lim qoidalari qatoriga kiritish mumkin emas.

Ta'limning samaradorligini oshirishga yo'nalganlik
Ta'lim qoidalarining barchasiga rioya qilish va ularni amalga oshirish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi oshiriladi.

Ta'limning samaradorligini oshirishga oid tadbirlar va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'li bilan qo'lga kiritiladigan yutuqlar ta'lim qoidalari asosida oldindan belgilanadi.

Ta'lim qoidalari maqomi. Har bir qoidaning o'z o'rnini bor. Ularning birontasini boshqasi bilan almashtirish mumkin bo'lmaganidek, birini ikkinchisi o'rnida qo'llash ham mumkin emas. Shu bilan birga, ta'lim qoidalaridan biri ikkinchisi uchun o'lchov sanaladi. Masalan, ilmiylik qoidasini ta'limning turli bo'g'inlarida-boshlang'ich, o'rta, maxsus va sh.k.maktablarda amalga oshirish uchun tushunarlik qoidasiga rioya qilinadi. Tushunarlik qoidasi, bir tomondan, o'quv-tarbiya ishlarining ta'lim darajalariga qarab asta-sekin murakkablashtirib va qiyinlashtirib borishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning o'z ichki imkoniyatlari- faollik, onglilik kabi qator omillarni hisobga olishni talab etadi. Xuddi Shunday, sistemalilik - izchillilikka, mustaqillik - faollikka, ko'rgazmalilik -onglilikka olib keladi. Yuqoridagilarga ko'ra ta'lim qoidalari tizimini quyidagicha belgilashni ma'qul, deb topdik:

- ilmiylik- tushunarlik;
- sistemalilik-izchillik;
- mustaqillik-faollik;
- ko'rgazmalilik-onglilik;
- hayot bilan-bog'liqligi, aloqadorligi-puxtalik.

Ta'limning ilmiyligi va tushunarligi

Ta'limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarligi qoidalarini o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradigan didaktik tamoyildir.

Fan va o'quv-fani o'rtasidagi aloqadorlik hamda ularning farqlarini sharhlamasdan turib, bu qoidaning mohiyatini to'g'ri tushunish mumkin emas.

Maktablarda o'qitiladigan har bir o'quv fanida o'ziga oid fanning umumiy asoslari bayon etiladi. Fan va o'quv fanlari o'zaro tubdan farq qiladi. Fan o'zini o'rganuvchi barcha kishilar uchun umumiy hisoblanadi. Haqiqiy fanda sinfiy, irqiy chegaralar bo'lmaydi. O'quv fani esa o'quvchilarning yosh xususiyatlari, aniq bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olish asosida yaratiladi. Ma'lum yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallab tuzilgan o'quv fani, masalan, boshlang'ich sinflarda o'zlashtiriladigan fizika elementlarini, 8-sinflarda o'tish bolalar uchun zerikarlidir. Bulardan ko'rinadiki, ilmiylik qoidasi amalga oshirish tushunarlik qoidasidan kelib chiqadigan talablarga rioya qilishni taqazo qiladi,

Ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalarining o'zaro aloqadorligi asosida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: O'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini hozirgi zamon fan-texnikasi, san'at va adabiyoti yutuqlari bilan uzluksiz boyitib, yangilab turish: o'quv fanlari, ularga oid o'quv materiallarini o'quv yillariga ratsional bo'lish; o'quv dasturlari darsliklardagi ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni bartaraf etish.

Ilmiylik qoidasi o'quv fanlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etsa, tushunarlik qoidasi o'quv predmetlarini bolalarning yosh, individual xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqazo qiladi.

O'quv fanlarini o'rgatishda bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olish maqsadida qator qoidalarga rioya qilinadi: yaqindan-uzoqa, oddiydan-murakkabga, osondan-qiyinga qarab borish. Bu qoidalarning birinchisi-yaqindan uzoqa qarab borish-vaqt xarakteristikasiga, oddiydan murakkabga qarab borish-ob'ektiv, osondan qiyinga-sub'ektiv ahamiyatga ega.

Ta'limning tizimliliigi va izchilligi

Tizimlilik va izchillik qoidalarini ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalarini bilan uzviy bog'liq didaktik tamoyillardir. Zero, tizimlilik qoidasiga o'rganilayotgan o'quv fanining tizimini (Masalan, o'rta, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan biologiya kursi tizim sifatida botanika, zoologiya, anatomiya fanlaridan iborat) hisobga olish asosida, izchillik qoidasiga bo'lgan bilimlarning bolalar uchun tushunarli bo'lishi qoidasiga bog'langan holda amalga oshiriladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalarini o'zaro bog'langan holda amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- O'quv fani mantiqi va uni o'zlashtirish qoidalariga qat'iy rioya qilish;
- Ta'limni bolalarning qiziqishlari, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- Ta'limda o'rganilgan, o'rganilayotgan va bundan keyin o'rganiladigan bilimlar o'rtasida vorislik o'rnatish;

-Har bir mavzu, har bir o'quv faniga oid etakchi g'oyalarni ajratish, o'quv fanlari bo'limlari, shuningdek o'quv fanlararo aloqani o'rnatish;

-Ta'limni bolalarning shaxsiy tajribasi, kuzatishlari va real bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni boshqarish;

-Sinfda, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari o'quv ishlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash;

-Ta'lim jarayoni bo'g'inlari, omillari, ketma-ketligining o'zaro aloqadorligi asosida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish.

Mustaqillik va faollik

Mustaqillik va faollik o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan didaktik hodisalardir. Ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularni faollikka erishib bo'lmaydi.

Ta'limda o'quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o'quvchi ta'limning faol sub'ektiga aylanadi. Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi. Faollik esa o'z navbatida bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallashi hech kimga sir emas. O'quvchilarga kitob ustida ishlay olish malakalari, dastavval boshlang'ich sinflarida hosil qilingan. Bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi.

Har qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik to'g'risida gapirilganda, o'qituvchi hikoyasi, suhbat, tushuntirishi, ma'ruzasini diqat bilan tinglash: turli xil yo'llar: ko'rgazmali qurol, mustaqil ish, muammolar, texnik vositalar yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok etish: moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi hoh o'quv-tarbiya, hoh ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

- Har bir materialni o'rganishga kirishishdan oldin o'quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo'lib, bolaning barcha hatti-harakatini, intilishlarini yagona yo'lga soladi. Maqsadni anglash ta'limning istiqbolliligini ta'minlaydi.

- O'rganilayotgan o'quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o'rtaga tashlash. qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.

- O'quv materiallarini o'rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rgatish. Bola aqliy faoliyat metodlarini o'rgana borgan sari, o'z

oldiga quyilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini egallaydi. Bu o'z navbatida, bolada o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o'stiradi. Ta'limning barcha bosqichlarida, darsning barcha etaplarida mustaqil ishlarni tashkil etish, bolalarga fan sohasida qo'llanadigan metodlarni o'rgatish bilan o'quvchilarda o'z kuchiga, o'z bilish imkoniyatlariga ishonch tarbiyalanadi.

Ko'rgazmalilik va onglilik

Ko'rgazmalilik - ta'limda onglilikni ta'minlash vositasidir. K.D.Ushinskiy «ko'rgazmali o'qitish haqida» nomli maqolasida «ko'rgazmali o'qitishning o'zi nima?» degan so'roqqa Shunday javob beradi: «Bu Shunday o'qituvchi, u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan yaxlit obrazlarga asoslanadi, bu obrazlarni bolalar muallimning rahbarligi ostida o'qish jarayonining o'zida bilib olishganmi, yohud ilgari, mustaqil kuzatish natijasida bilib olishganmi, baribir. Xullas, murabbiy bolaning qalbidan tayyor obrazlar topib, o'z ta'limini ana shu obrazlar bilan asoslaydi».

Endi ko'rgazmalilik qoidasini onglilik qoidasi bilan yonma-yon qo'yib o'rganishga ehtiyoj bormi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Ta'limda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, o'quvchining tafakkur darajasiga ko'ra belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi (7-11yosh) bolalarda yaxlit fikrlash ustun bo'lib, ular rasm, jadvallar asosida narsavoqealarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq-obrazli, harakatchan-obrazli fikrlash shakllarini taraqqiy etganligi ta'limda ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanishni taqazo etadi.

Bolaning yoshi ulg'ayib, ijtimoiy tajribasi osha borgan sari, unda tafakkurning abstraktsiyalash, umumlashtirish, ajratish kabi sifatlari rivojlanadi, bola induktiv va diduktiv xulosalar chiqarishni o'rganib oladi. Katta maktab yoshidagi (11 va undan yuqori yosh) bolalar bilimlarni ta'riflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Bu yoshdagi bolalarda ratsional, nazariy fikrlashning o'sganligi ko'rgazmali qurollar turini o'zgartirishni taqazo etadi. Endi ko'rgazmali qurol sifatida turli chizmalar, simvulli belgilar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Ana shularni barchasi ko'rgazmalilik qoidasi onglilik qoidasi bilan uzviy «bog'liqligini isbotlaydi va ularni yonma-yon tavsiflashni talab etadi.

Ko'rgazmalilik qoidasiga ko'ra narsa, hodisadarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi. Kuzatish, sezish ongda ma'lumotlarni to'plash, narsa-hodisalar to'g'risidagi hissiy-yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi. Ta'lim jarayonida bilish hissiy yaxlit tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi. O'qituvchi bolalarni qonun-qoida, ta'rif, aniqliklarni sezishdan ularning mohiyatini aniqlashga, tasavvurlardan tashqari tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi. Demak, ta'lim jarayonida ham hissiy bilishdan ratsional bilishga va aksincha ratsional bilishdan hissiy bilishga-omillar to'plash, tajribalar o'tkazish orqali olib boriladi.

Didaktik adabiyotlardan onglilik deganda, o'rganilayotgan mavzuga oid qonuniyat, ta'rif va omillarni asosli egallash, xulosa va

umumlashmalarni chuqur, atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni izchil va to'g'ri bayon qilish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalanish, bilish kabilar tushuniladi. Bulardan ko'rinadiki, onglilik ko'p qamrovli qoida bo'lib, u ta'limda ilmiylik va tushunarlilik, mustaqillik va faollik kabi kategoriyalar bilan bog'liq bo'lish bilan bir qatorda o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vositalari, natijalariga ham aloqadordir.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan qoidadir. Bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega: ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash; materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish, bilimlarning o'zaro uzviy bog'liqligi.

Bu qoidalarni pedagogik amaliyotga tadbiiq etishda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

-ta'limda bolalarning hissiy bilishdan ratsional va aksincha, ratsional bilishdan hissiy bilishga o'tishlarini ta'minlash;

ta'lim jarayoni uning bosqichlari, bo'g'inlari, omillari, ketma-ketligini bolalarni sezishi va anglashiga erishish;

-o'zlashtirilgan bilim, shakllangan malakalarni bolalarga o'z so'zlari bilan aytib berishni o'rgatish;

-bilimlarni o'rganilgan mavzuga doir omillarga, hayotga, ishlab chiqarishga joriy eta bilish qobiliyatini o'stirish;

-mexanik yodlab olishni chegaralash;

-bolalarda o'quv fanlariga munosabatini tarbiyalash va nihoyat;

-ta'lim manbalari-ko'rgazmali qurol, darslik, o'qituvchi nutqini uyg'unlashtirish.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ta'lim qonuniyatlarining ta'riflang?
2. Ta'lim qoidalarining nima ahamiyati bor?
3. Ta'lim qoidasini ilmiyligi nima?
4. Tizimligi – chi?
5. Izchilligi – chi?
6. Mos va loyqlik qanday amalga oshiriladi?
7. Ko'rsatmalilik qoidasini izohlang?
8. Onglilik va aktivlik qoidasini ta'riflang?
9. Tushunarli bo'lish qoidasi qanaqa bo'ladi?
10. Mustahkam bo'lish qoidasi – chi?

Glossariy

Adekvatlik – teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.

Analogiya – psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi.

Anketa – metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Assotsiatsiya – psixik xodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.

Attraksiya – bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

Apatiya – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

Astenik – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Audivizual idrok – shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi.

Autogen mashq – shaxsning o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

Affekt – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat.

Biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

Bixeviorizm – psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulqatvorini olinishi nazariyasi.

Breynshorming – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

Bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

Vegetativ nerv tizimi – nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

Genotip – ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui.

Gerontopsixologiya – psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rganadi.

Gnostik – butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Dunyoqarash – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

Depressiya – tushkunlik kayfiyati.

Diqqatning barqarorligi – diqqatning ma'lum ob'ektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

Diqqatning ko'lami – bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'ektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha ob'ektga taqsimlanish xususiyati.

Diqqatning ko'chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'ektdan ikkinchisiga ko'chirish.

Dialog – ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

Dialogik nutq – nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko'rsatadi.

Dominant shaxs – boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

Yosh psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Yosh davri nizolari – o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar yuz beradi.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Yo'nalish – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'i nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Idrokning konstantligi – idrok sharoiti o'zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning nisbatan o'zgarmasligi.

Idrokning predmetliliigi – jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati.

Idrokning butunliliigi – sezgi a'zlariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok etish.

Istedod – shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Ijtimoiy psixologiya – psixologiya fanining o'ziga xos maxsus tarmog'i bo'lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o'rganiladi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ilmiy taxmin – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgari kutilishi mumkin bo'lgan xolatning bashorat qilinishi.

Ijtimoiy psixologik eksperiment – asosiy metodlardan biri bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Introvert shaxs - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub'ektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

Kontent-analiz – tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzatslarni ma'nomohiyatini

takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.

Kichik guruh – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

Ko'nikma – odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. Ko'nikma mahoratning asosini tashkil etadi.

Longityud tadqiqot – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rgansh.

Metod – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

Mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan.

Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat sub'ekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shartsharoitlari,

yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mehnat sub'ekti (egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

Melanxolik - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Monologik nutq – bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Monolog – ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

Mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqiyeni namoyon qilishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda

tutilishi.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

Nizolar – o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

Nizo turlari – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqye yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

Nizo bosqichlari – uch bosqichda, ya'ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

Nizo hal etish yo'llari – komromiss, ya'ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

Operativ xotira – xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

Oila – turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Psixika – yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo'lib, uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixik jarayonlar – u yoki bu psixik maxsul va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixologiya – odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'uhissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Psixik holatlar – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

Pilotaj tadqiqot – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

Psixologiya metodlari – psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

Psixokorreksiya – shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

Psixologik xizmat – psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarida diagnostika, konsultatsiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

Psixologik maslahat - shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

Polilog – guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faolashuvi kuzatiladi.

Perseptiv tomon – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Professiografiya - mehnat sub'ektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish

va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

Professiogramma - kasbning turli ob'ektiv xarakteristikalarining tasnifi.

Psixogramma - faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.

Rigid shaxs – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqye, martabaning inobatga olinishi

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Referent guruh – shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

Sangvinik – temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

Sanoat psixologiyasi – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Simpatiya – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

Sotsiologiya – jamiyatda yuz beradigan turli-voqyea-xodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

So'rov – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi – shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Tushuncha – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Tushunish – biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

Taxlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

Taqqoslash – narsa va xodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Trening – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Temperament – shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Tobe shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Umumlashtirish – voqyelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, birbirlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

Ustanovka – yo'nalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan xarakatining tayyorlik xolati.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Flegmatik – temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsional xolatlarining tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Xarakter – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha xukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

Xolerik – temperament turi bo'lib, xissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman xarakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Shaxslararo munosabat – muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

Shakllar – bevosita va bivosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

Shartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Emotsiya – odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

Egotsentrizm – men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi.

Ekstrovert shaxs – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Empatiya – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

O'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O'yin – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish xarakterlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

O'z-o'ziga baho berish – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

Qobiliyatlar – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

«*Axloq*», «*xulq*» va «*atvor*» so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida xam o'z ma'nosida qo'llaniladi. Axloq kishilarning xar bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, xamma soxalarda kishilarning xatti-xarakterlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi.

Bakalavriat- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limidir.

Bilish, anglash-dunyo xaqidagi yangi bilimlar xisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqyelikning ruxiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Dars- ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda aloxida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi raxbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Darslik- maxsus ravishda o'quvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

Jamoa-insonparvrlilik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'likligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Maqsad-bo'lg'usi natijalar xaqida xar doim aqlan o'ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Shaxs dinamikasi - kishiipng ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan xolda sub'ektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zga-rish jarayoni.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruxiy va ishchan-lik qobiliyatining ijtimoiy axamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

E'tikod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va xodisallarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muxitga xamda o'zining xattixarakterlariga

bo'lgan sub'ektiv munosabati.

Evrastika ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko'rsatmalari.

Empirik - tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich tadqiqot ob'ekti to'g'risida xar tomonlama tasavvur xosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya - go'zallikni xis qilish, atrof-muxitdan go'zallikni payqay

olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Extiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy quvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati.

Extimollik - tasodifiylik, pedagogik xayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, extimol kutilgan jarayon.

Uyin faoliyatnini bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-xarakterlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z-o'zini baxolash -shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baxolay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruxiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qitish - ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish - 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muxit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qituvchining innovatsion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qitish vazifasi - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari - sokratcha suxbat metodi, qoloq ta'lim, izoxlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashti-rilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiatsiyali xamda individual ta'lim va boshqalar.

O'QISH – o'quvchinnng o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakter.

Talabalarni kasbga yo'naltirish - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarnnng asoslangan tizimi.

O'quv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'lik faoliyat.

O'quv faoliyati shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni.

Qiziqish - shaxs xarakteriga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Xalollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yorlarni rostguylik bilan saqlash.

Xasad - o'zgalarpiig muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tyyg'u.

Pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksnerimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqyelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa

satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, darslik va o'quv ko'planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflekslik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

Pedagogika fani - maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik - ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimdir. U voqeyelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik maxorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik mulokot - ta'lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt - shaxslar faoliyatini turli doiralarda ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika –

1) xar bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar majmuasi;

2) xar bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik uyin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqeyelikka va pedagogik jarayong'a bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.
Pedagogik xaqqoniylik – o'qituvchining obektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni aniq ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskriptiv - me'yoriy.

Psixologiya - 1) shaxsning ob'ektiv borlikni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar tuplami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasi.

Ratsionalizatsiya - metodlarni yoki biror ish - xarakatni takomillashtirish.

Releksatsiya - kuchli xayajon va jismoniy zuriqishdan so'ng yengil yurish, tinchlanishning umumiy xolati.

Retrospektiv - o'tmishga murojaat etish.

Ruxiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik acoqlari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning moxiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Suxbat - kuzatuv juda yetarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigai tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob'ekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj ob'ekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan ob'ektning moxiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Tayzik o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi yoki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

Takabbur - o'z manfaatlarini yuqori quyuvchi, manman shaxs.

Takt - misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoi, ijtimoiy etalonlarnipg ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka, ko'nikma, axloq me'erlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik uyin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Bilish, anglash-dunyo xakidagi yangi bilimlar xisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning uzaro ta'sirini, vokelikning ruxiyatda kayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Dars- ma'lum maksad asosida, belgilangan vaktida aloxida, bir xil yoshdagi

ukuvchilar, yoshlar bilan ukituvchi raxbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni. Darslik- maxsus ravishda ukuvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

Jamoa-insonparvrlilik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Maksad-bulgusi natijalar xakida xar doim aklan uylab kurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Shaxs dinamikasi - kishiipng ontogenetik rivojlanishini uz ichiga olgan xolda sub'ektning xususiyatlari va sifatining vaktga nisbatan uzga-rish jarayoni.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan uzining axlokiy, ruxiy va ishchan-lik kobilyatining ijtimoiy axamiyatini, jamiyatdagi urnini anglay olish xususiyati.

E'tikod - shaxs amal kiladigan bilim, tamoyil va xodisalarning kalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muxitga xamda uzining xattixarakatlariga

bulgan sub'ektiv munosabati.

Evristika ilmiy tadkikotning mantikiy usullari va metodik kursatmalari.

Empirik - tajribaga asoslangan.

Empirik boskich tadkikot ob'ekti tugrisida xar tomonlama tasavvur xosil kilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga bulgan talab urtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya - guzallikni xis kilish, atrof-muxitdan guzallikni paykay olish va tushunishga bulgan kobilyatni tarbiyalash.

Extiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy kuvvati xamda faolliigi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati.

Extimollik - tasodifiylik, pedagogik xayotdagi uzgarishlarni anik aytib berish mumkin bulmagan, extimol kutilgan jarayon.

O'yin faoliyatini bir turi bulib, ijtimoiy tajribalarni uzlashtirish va bunyod etishga, uz xatti-xarakatlarini takomillashtirishga karatilgan buladi.

O'z-o'zini baxolash - shaxsning uz psixologik sifatlari, xulki, yutuklari va muvaffakiyatsizliklari, kadr-kimmati, kamchiliklarini baxolay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bulgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga karatilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning uz jismoniy, ruxiy va axlokiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qitish - ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan O'qituvchining faoliyati.

O'qitish - 1) ta'limning uziga xos usuli bulib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'larok atrof-muxit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qituvchining innovatsion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen bulib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chikishdir.

O'qitish vazifasi - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari - soqratcha suxbat metodi, ta'lim berish, izoxlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiatsiyali xamda individual ta'lim va boshqalar.

O'qish – o'quvchining uz qobiliyati, bilimi, malaka va kunikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakat.

Talabalarni kasbga yo'naltirish - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarnng asoslangan tizimi.

O'quv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

O'quv faoliyati shaxsning yangi bilim, malaka va k'nikmalarni egallash jarayoni.

Qiziqish - shaxs xarakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Xalollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yorlarni Rostgo'ylik bilan saqlash.

Xasad – o'zgalarning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan Tuyg'u.

Pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni O'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni ekspremental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofik metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv yuklamasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflsktik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

Pedagogika fani - maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofik tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik - ta'lim natijasi o'larok bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bulgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, uziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur

qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik maxorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakterga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot - ta'lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro alokalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qullab-quvvatlashni tashkil etishning kup qirrali jarayoni.

Pedagogik takt - shaxslar faoliyatini turli doiralarida ular bilan mulokotda Bo'lishning pedagogik tamoyili, ulchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda tug'ri muloqotda bula olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) xar bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir utqazishning samarali qullash uchun zarur bulgan malaka va kunikmalar majmuasi; 2) xar bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bulgan malaka va kunikmalar.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning uzaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik o'yin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani Ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayonga bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagogik xaqqoniylik – o'qituvchining obektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni anik ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Psixologiya - 1) shaxsning ob'ektiv borlikni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar

to'plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasini.

Ratsionalizatsiya - metodlarni yoki biror ish - xarakterni takomillashtirish.

Releksatsiya - kuchli xayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng yengil yurish, tinchlanishning umumiy xolati.

Retrospektiv – o'tmishga murojaat etish.

Ruxiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning moxiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Suxbat - kuzatuv juda yetarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob'ekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj ob'ekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan ob'ektning moxiyati, ma'lum bir

tomoni, xususiyati.

Tayziq o'tqazish - uyatga kuyish, aybdorlik xissi yoki kungli cho'kkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

Takabbur - uz manfaatlarini yuqori qo'yuvchi, manman shaxs.

Takt - misli ko'rilmagan tarzdao'zini tuta bilish.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarni ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yunaltilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash goyaviy-axloqiy kadr, malaka, kunikma, axlok me'rlariga karatilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim

Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maksadga muvofik, tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maksadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maksadlarini amalga oshirishga karatilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik uyin - bilim olishga karatilgan va ma'lum bir pedagogik natijani kuzlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maksadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagog nuktai nazari (pozitsiyam) - pedagogning dunyoga, pedagogik vokelikka va pedagogik jarayon bulgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagogik xakkoniylk –ukituvchinig obektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Tafakkur inson akliy faolnyatnning oliy shakli, insonlarni urab olgan duyodagi uzaro bo'langan narsa va xodisalarni bilish jarayoni, muxim xayotiy jarayonlarni xis kilish va muammolarni xal kilish, ma'lum bulmagan vokea xodisalarni kidirish, kelajakni kura olish. Tafakkur, tushuncha, xukm, xulosa shakllarida namoyon byladi.

Temperament - 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jixatlarinn bildiradigan turgun individual xususiyatlarining konuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va xolatlar ritmi.

Umumiy pedagogika fanidan mustaqil ish mavzulari

№	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Berilgan topshiriqlar	Bajarish	Hajmi soatda
1	Kadrlar tayyorlash milliy modeli	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1-hafta	1
2	Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2-hafta	1

3	Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3-hafta	1
4	Tarbiya maqsadi va vazifalari	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4-hafta	1
5	Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5-hafta	1
6	Ta'lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6-hafta	1
7	O'rta maxsus va kasb-xunar ta'limi mazmuni.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7-hafta	1
8	Ta'lim metodlari va vositalari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8-hafta	1
9	Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9-hafta	1
10	Dars-ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	1
11	Ta'limni tashxis etish.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11-hafta	1
12	Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12-hafta	1
13	Tarbiya tamoyillari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	13-hafta	1
14	O'quvchilar jamoasi-yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	14-hafta	1
15	Tarbiyaning umumiy metodlari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15-hafta	1
16	Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	16-hafta	1
17	Fuqarolik tarbiyasi.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	17-hafta	1

18	O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	18-hafta	1
19	Mehnat tarbiyasi.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	19-hafta	1
20	Estetik va jismoniy tarbiya.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	20-hafta	1
21	Oila tarbiyasi asoslari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	21-hafta	1
22	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	22-hafta	1
23	Ta'lim tizimi menejmenti	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	23-hafta	1
24	Maxsus (korreksion) pedagogika asoslari.	Adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	24-hafta	1
	Ja`mi			24